

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Rasulov A., Toyirova L.



UMUMIY PSIXODIAGNOSTIKA

Darslik

Ushbu darslik psixologiya bo‘limi talabalarining umumiy psixodiagnostika kursi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun taqdim etiladigan psixodiagnostik metodikalarga bag‘ishlangan.

Shuningdek, metodikada shaxs psixodiagnostikasi muammolari va ularga doir diagnostik savolnomalarning tarixi xususida ham ayrim nazariy ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Ushbu darslik umumiy psixodiagnostika kursi bo‘yicha mashg‘ulotlarda o‘qituvchi va talabalar foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

1-BO‘LIM. PSIXODIAGNOSTIKANING NAZARIY MASALALARI

1.1. PSIXODIAGNOSTIKANING TARIXIY TARAQQIYOTI

Testologiyada yetarlicha izlanishlar va metodikalar yaratilayotgan bo‘lsa- da, ammo tatbiq etishdagi sifati masalasi doimo mutaxassislar diqqat marakazi bo‘lishi lozim bo‘ladi. Testologiya tarixidan ham ma’lumki, dastlabki diagnositik metodikalar, xususan, ispan olimi Xuan Xart (1530- 1589), J.Eskirol (1772-1840), E.Segen (1812-1880), tomonidan taqdim etilgan diagnostik vositalar inson psixologiyasining ma’lum bir jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lsa-da, tashxis natijalari sifatini baholash borasida ma’lum talablar masalalari xususida to‘xtalishga erta edi. Shunday bo‘lsa-da, fransuz olimlar J.Eskirol va E.Segenlar psixik kasallik bilan aqliy taraqqiyotdan ortda qolish o‘rtasida farqlashni mezonlar orqali o‘rganishga kirishgan edilar [1, 10-12].

Ilmiy Tyestologiyaning tarkib topishida psixologiya fanida eksperiment va o‘lchash g‘oyalarining kirib kelganligini tadqiqot sohasida qo‘yilgan katta qadam deb baholash mumkin. Bu boradagi o‘rinishlarni XIX asrning 30-yillarida nemis olimi Volf tomonidan diqqat xususiyatlarini aniqlash borasidagi uzoq vaqt davomida olib borgan izlanishlarida kuzatish mumkin. Bu esa nemis olimini psixometriya tushunchasini fanga olib kirgan degan xulosani beradi. E.Veber va G.Fexnerning (XIX asrdagi o‘rtalari) psixofizik tadqiqotlari ham eksperimental psixologiyada psixik hodisalarni o‘rganishda yangi yo‘nalish ochgan deyishimiz mumkin. Bu tarzda tadqiqotlarlar ko‘lamini yana bir qator olimlar misolida sharhlash mumkin. Ammo psixologik tadqiqotlarda statistik o‘ayta ishlash usullarini tatbiq etilishini olamshumul ilmiy inqilob deb qarash mumkin. F.Galton o‘z davridayoq korrelyasiya koeffisiyentini hisoblash metodini (1888 yil) antropometriya va irsiyatni aniqlashda foydalangan edi. F.Galton va uning izdoshi K.Pirsonlarning korrelyasiya koeffisiyentini aniqlash usulini, A.Bine va T.Simon intellektni o‘lchashda shkallarga tayangani (1905),

V.L.Shtern tomonidan intellekt koeffitsiyenti (IQ)ni fanga kiritilganligi tadqiqotlarda sifat o'zgarishi yuz berishidan dalolat beradi [1, 13.-23].

Yuqorida sanab o'tilgan tarixiy manbalar psixodiagnosika sohasidagi ilmiy qadamlar hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ham psixodiagnostik metodikalarni tatbiq etishda sifat masalasiga e'tibor qaratish tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lishi lozim. Chunki, ko'p holatlarda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan muammoning baholash apparati, ularning mezonlari va yondashuvlari mavhum holda bo'ladi. Natijada tadqiqotdan olinayotgan ma'lumotlarda ilmiy yangilishlar yo'l qo'yiladi yoki tadqiqot yangiligini izohlashga asos bo'lmay qoladi. Shuning uchun psixodiagnostik metodikalarni tatbiq etish yoki diagnostika sifatini aniqlashda uning darajalari va jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda golland olimi Yan ter Laakning yondashuvini e'tiborga olish lozim. Uning fikricha Testologiyada sifatni muhokama qilishdan oldin, testlar nazariyasi (klassik va zamonaviy), muhit bilan taraqqiyot borasidagi nazariyalarni, metodika bilan tadqiqot muammosining mosligini, diagnostik jarayoning borishidagi talablarni yaxshi bilish muhim degan xulosani beradi [6, 316-321.].

Ammo Testologiyada sifatni aniqlash masalasi keng ko'lamdagi ishlarni bajarishni talab etadi. Buning uchun psixodiagnostik metodikalar sifatini belgilovchi asosiy jihatlariga murojaat etish o'rinli. Psixodiagnostik metodikalar sifatini belgilashda beshta kategoriyaga tayaniladi: testlarni yaratish maqsadi, testni strukturalashtirish, me'yorlar (normalar), ishonchlilik va validlik. Bundan ko'rinadiki, testlar va so'rovnomalar yaqqol psixodiagnostik ishlanmalar natijasi sanaladi. Ularni baholash esa o'ziga xos tizimi mavjud. Baholash tizimidagi yetakchi kategoriyalar, ya'ni ishonchlilik va validlikni o'zini ham to'g'ri farqlay olish lozim.

Psixodiagnostik adabiyotlarda qayd etilgan ma'lumotlarga tayanganimizda, test nazariyalari borasida o'ziga xos tajribalar va talablar aniq belgilab qo'yilganligini guvohi bo'lamiz [1, 2, 3, 4, 5]. Testlar va

so'rovnomalarni yaratish, ularni bir muhitdan ikkinchisiga moslashtirish yoki yangi modifikatsiyalarni yaratishni o'zi ulardan muttasil foydalanish lozim degan xulosani bermaydi. Testlar va so'rovnomalarni ishonchli va validliginibelgilovchi standartlar mavjud. AQSHda har yili ob'yektiv ko'rsatkichlarga ega bo'lgan testlar va so'rovnomalar haqida "Aqliy qobiliyatlarni o'lchash yilnomasida" ma'lumotlar berib boriladi. Bundan ko'rinadiki, qator mamlakatlarda testlar va so'rovnomalar rasmiylashtiriladi va baholanib borilar ekan.

Bugungi kunda bizning sharoitimizda ham psixodiagnostik tadbirlarda sifat bosqichiga erish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalarlar qayta ko'rib chiqilishi lozim:

1. Jahon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan "Standartlar"ga tayanib, psixodiagnostik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish.

2. Mahalliy sharoit uchun qo'llanishi lozim bo'lgan psixodiagnostik metodikalarni nashr ettirib borishni yo'lga qo'yish.

3. Test va so'rovnomalardan foydalanishning ilmiy-tatbiqiy asoslar bo'yicha Respublika miqyosida anjuman o'tkazish.

4. Psixodiagnostik metodikalardan foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish.

5. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida Testologiya va testologiya kurslari o'quv dasturlarida test va ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg'ulot mavzulari ajratish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bo'yicha olib boriladigan chora-tadbirlar Respublikamizda psixologik tadqiqotlarda sifatga erishishda ijobiynatijalar beradi.

Psixologik testlardan foydalanishning tarixiy taraqqiyotining bir davri 20-asrning boshlarida Fransuz olimlari A.Bine va T.Simonlarning xizmatlari kattadir. Chunki ular tomonidan bodaning maktabga tayyorligini

psixologik aniqlashga qaratilgan dastlabki urinishlari zahirida J.Kettellning intellekt to'g'risida izlanishlarining uzviy davomi sifatida qarashga to'g'ri keladi. Ularning izlanishlarida Fransiya maorif vazirligi tomonidan berilgan topshiriqlarni amalga oshirish uchun olib borgan ishlari natijasida psixologiyada aqliy yoshni aniqlashga erishdilar.

A.Bine va T.Simonning izlanishlariga qadar nemis olimi G.Ebbingaus tomonidan olib borilgan izlanishlar aynan ularning intellektula testlarni ishlab chiqishi uchun nazariy asos bo'ldi deyish mumkin. Chunki, G.Ebbingaus tomonidan taqdim etilgan xotirani o'rganish testlari inson psixologiyasiborasidagi Yangi metodik izlanishlar natijasi edi. 1905 yilda A.Bine va T.Simon bolani intellektini o'rgatishga qaratilgan 30 topshiriqdan iborat shkala ishlab chiqdilar. Topshiriqlar murakkablikdarajasiga ko'ra tuzilgan edi. Ushbu topshiriqlar hta «qo'pol» usulda tuzilgan bo'lib, (masalan, 5 yoshli bola 14- topshiriqdan yuqorisini bajara olmaydigan). Ushbu topshiriqlarda sensor-perseptiv rejadagi masalalarga e'tibor berilishi bilan bir qatorda ularning asosiysini verbal materiallar tashkil etar edi.

1908 yilda Bine-Simon shkalasining takomillashtirilgan varianti e'lon qilindi. Bu variantda 59 test topshiriqlari bo'lib, ular yosh guruhiga ko'ra 3 yoshdan 13 yoshgacha mo'ljallangan edi. Ularning yosh xususiyatlariga ko'ra farqlanishi foiz hisobida ajratilar edi. Bunda yosh bosqichlarini ajratuvchi foizli mezon 67 % dan 75 % diapazon olingan. Berilgan topshiriqlarni ko'p miqdorda bolalar yecha olmasalar bu test topshiriqlari murakkab, aksincha ko'pchilik qismi yecha olgan hollarda yengil test topshiriqlari hisoblangan.

Test tarixidagi A.Bine va T.Simonning test topshiriqlarida misol sifatida keltiriladi (1911). Ularning ilmiy izlanish natijalari bir muncha bo'lsa-da testlarning ishlab chiqishda o'ziga xos ilmiy – nazariy asos bo'la olgan. Ularning test namunalariidagi topshiriqlardan keltirib o'tamiz.

7 yoshlilar uchun:

1. O'ng va chap tomonlarni farqlash.

2. Taklif etilayotgan suratni ifodalash.
3. Ber nechta topshiriqlarni bajarish.
4. Bir necha chaqalarni umumiy qiymatini aytish.
5. Ko'rsatilgan to'rta asosiy ranglarni nomini aytish.8

yoshlilar uchun:

1. Xotirada ikkita ob'yektning taqqoslash. Ularning orasidagi o'xshashlikni ko'rsatish.
2. 20 dan 1 ga o'arab teskari sanash.
3. Odamlarni ifodalashga tushirib o'ldirilganlarini topish (4 ta topshiriq).
4. Kun, sana, oy, yillarni nomlash.
5. Beshta bir xil sonlar qatorini takrorlash.

A.Bine testlarining muhimligi shundaki har bir yosh me'yoriga ko'ra normal bolalar ularni to'g'ri yecha olgan. Bola o'zining yoshidagi topshiriqlar guruhi yecha olgan bo'lsa u normada deb hisoblangan. Buni A.Bine bolaning xronologik yoshi bilan solishtirish asosida aniqlanadigan aqliy yosh deb hisobladi.

Testlar tarixida A.Bine va T.Simonning izlanishlarini davomida intellektni mutloq emas, balki nisbiy o'lchash mumkinligini e'tirof etib, 1912 yilda INTELEKT KOEFFISIYENTINI aniqlash usulini fanga kiritdi. Uning qisqartirilgan varianti IQ bo'lib, u

$$IQ = \frac{\frac{\text{akliy yosh}}{\text{xronologik yosh}}}{\text{yosh}} * 100 .$$

Bine o'zining shkalasidagi bunday o'zgarishlarni ko'rib, bunga nisbatan samimiy munosabatni bildirib, kamchiliklarini aniqlash imkoniga ega bo'ldi. Bine-Simonning testlari qisqa vaqt oralig'ida yer yuziga tarqaldi. Intellektni test orqali o'rganish borasidagi XX asrning dastlabki o'nyilligida rivojlanish davri Bine-Simonning xizmati bilan bog'liq.

Shuningdek, intellekt testlarini statistik tahlil bilan bog'lab tushuntirishkonsepsiyasi Charlz Edvard Spirmen qarashlarida aks etgan. Ch.Spirmen izlanishlari intellektning ikki omilli nazariyasini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ushbu nazariga ko'ra intellekt umumiy (G-general faktor) va maxsus (S – spetial faktor) omillarga ajratildi. Konsepsiyada ijobiy korrelyasiyalar faqat umumiy omillar kuchida tushuntiriladi. Ushbu faktorda testlarning chuqur kirib borishi ular orasidagi yuqori korrelyasini ifodaladi. Maxsus omillar o'lchashdagi xatolarni ifodalaydi. Shundan kelib chiqib Ch.Spirmen ko'p omillarni to'g'ri hisoblash lozimligi xulosasiga keldi.

Psixologik testlardan foydalanishning XX asrning boshlarida rivojlanishi.

Psixologik testlarning XX asrning boshlarida rivojlanishining tarixiy ildizlari borasidagi dastlabki mulohazalarimiz A.Bine va T.Simonning izlanishlari bilan boshlangan bo'lsa-da, ammo XX asrning boshlarida izlanishlarning AQSHda keng olib borildi. Dastlab Bine

_simonning standartlashtirilmagan testlarini AQSHda qo'llagan tadqiqotchi Genri Goddard hisoblanadi. Keyinchalik Bine-Simon testlarini G.Goddarddan so'ngira amerikalik olim Lyuis Medison Termen X.D.Chayldz Bilan birgalikda testlarni adaptatsiya qilish Bilan shug'illana boshladi. Ko'pgina toshiriqlar modifikatsiya qilindi va ayrim topshiriqlar esa qo'shildi. Termenning mulohazalariga ko'ra IQning 90 dan 109 ko'rsatkichlari o'rtacha intellekt darajasini, 70 dan pasti esa aqli pastlikni, 140 dan yuqorisi esa daholikni ifodalaydi. Termen tomonidan adaptatsiya va modifikatsiya etilgan test varianti (Stenford versiyasi hisoblanadi) AQSHda aqLiy qobiliyatlarni aniqlashda qo'llanila boshlandi.1917 yillarda AQSHda birinchi jahon urushi arafasida keng ko'lamda testlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Birinchi jahon urushi vaqtida Psixologik testlarning instrumentariysining rivojlanishiga o'ziga xos o'rin tutdi. P.Fressning fikricha, «testlarni yaratishga» asos solindi. Amerikada Bosh komitet tomonidan armiyada psixologik tadqiqotlar uyushtirildi. Komitetda yetakchi

psixologlar jalb etildi DJ.Kettell, G.Stenli Xoll, Torndayk va boshqalar. Ushbu davrda ikkita test batareyalaridan foydalanila boshlandi.

b- testlar va v-testlardan foydalanila boshlandi. Armiyadagi askarlardan 1726 000 nafar Askar test sinovlaridan o'tkazildi. Ulardan 500 000 nafari savodsiz, 8000 nafri esa aqliy zaif sifatida armiya zafidan chiqarildi, 20 000 nafari esa maxsus batliona xizmatga yo'naltirildi.

Birinchi jahon urushidan keyin AQSHda Stenford shkalasidan tashqari Kulman (1922), Yerks (1923), Gering (1922), aqliy qobiliyatni o'rganishga mo'ljallangan CAVD (1925) shkalasi (Torndayk rahbarligida) ishlab chiqildi. Yevropada intellekt diagnostikasi borasida Rishar Meyli samarali izlanishlar olib bordi. U intellektning analitik testi (1928) uning intellektni to'rt omilli : yetarlicha murakkab, plastik, yaxlitlik va ravonligi. Dj.Stenkvishton tomonidan umumiy mexanistik qobiliyatni terma testi (1923), Florens Laura Gudinaf Odam rasmini chizish testi (1926) ishlab chiqdi. Bu testlarda olimlarni uchta muammo olimlarni bezovta qildi: 1) kattayoshdagilarni intellektual taraqqiyotini belgilash uchun individual foydalanish shkalalarning mavjud emasligi; 2) go'daklarni aqliy taraqqiyoti aniqlash uchun qulay shkalalarning zarurligi; 3) intellekt va shaxs muhim psixologik konstruktlar sifatida psixologik testlarni ishlab chiqishning umumiy nazariyasini yaratish.

Bolalarning aqliy rivojlanish borasidagi eng e'tiborga sazovor ishlarni Arnold Lyusius Gezellning (1925) ishlarida uchratish mumkin. Bu borada uning «Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti» mavzusidagi ishini alohida sanab o'tish o'rinli. Gezell bolalarning xulq-atvorini o'rganish uchun kinomotagrafiyadan foydalandi. O'zining kuzatishlari asosida «Go'daklik va inson kamoloti» (1929) asarida bolaning rivojlanish holatini 3 oylikdan 30 oylik davrini 195 ta mezon bilan o'lchash mumkinligini qayd etib o'tdi.

Intellekt testlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda shaxsni nokognitiv sohasini o'rganishga qaratilgan metodikalar (shaxsni o'rganish testlari) ham yaratilishiga e'tibor qaratilmoqda. Shaxs savolnomalari borasida Robert

Session Vudvorts (1917) anormal xulqni o'rganishga mo'ljallangan testni ishlab chiqdi. Ammo psixologiyada shaxsni o'rganish so'rovnomalari borasida dastlabki savolnomalarni birinchi bora 1909 yilda gollandiyalik olimlar G.Xeymans Bilan Ye.Virsm tomonidan ishlab chiqilgan degan mulohazalar bor.

«Shaxsiy ma'lumotlar varag'i» tarzidagi bir necha savolnomalarning muallifi sanaladi. So'ngra shaxs savolnomalari borasida Floyd va Gordon Olport tomonidan shaxs fazilatlar reytingi (1921-22) taklif etdilar.

Folker tomonidan shaxsni baholash testi (1921). Shuningdek psixodiagnostik testlar borasida German Rorshaxning (1921) va Trumen Li Kelling (1928) xizmatlarini ham hisobga olish lozim.

Psixologik testlarning 1930-39 yillarda rivojlanishi.

XX asrning 30 –yillarida bir qator testlar vujudga keldi. Ularning ko'p qismi AQda yaratildi. Shuningdek, 1936 yilda eng yetakchi testlar sifatida quyidagi beshta testlar e'tirof etildi: Stenford-Bine, Rorshax testi, Bernteyterning shaxs savolnomasi, Sishoning Musiqiy talantni Aniqlash tyesti, Strongning professional qiziqishlarning blanki.

1938 yilda buyuk Britaniyada psixologiyada keng ko'lamda qo'llaniladigan Ravenning progressiv matrisalar testi ishlab chiqildi. Uning mualliflari Dj.Raven va L.Penros edi Ular umumiy intellektni o'rganish testiga asos solgan edilar.

Intellektning susayishini o'rganishga erishgan David Veksler, o'zining shkalasini yaratdi. Unda 11 sub'test mavjud bo'lib, intellektning turli qirralarini o'rganishga qaratilgan.

Shuningdek, Vekslerning izlanishlarida ham IQning Yangi bir koeffisiyentini topish formulasi taqdim etildi.

$$IQ = \frac{\text{Erishilgan(real)natija}}{\text{Yoshguruxidagikutilayotganurtachakursatkich}}$$

1937 yilda Kaliforniya universitetida aqliy yetuklikni aniqlash testi e'lon qilindi. Uning mualliflari Edvard Li Torndayk va Luis Lion Terstoun

hisoblanadi. 1938 yilda Terstoun o'zining birlamchi aqLiy qobiliyat testlarini e'lon qildi.

30-yillardagi yana bir yutug'li izlanishlarni Uristian Morgan va Genri Aleksandr Myurrey amalga oshirdi. Ularning 1935 yilda «Shax stadqiqotlari» kitodida psixologik proyeksiya to'g'risidagi nazariy g'oya xususida to'xtalangan edi. So'ngra u asosida Tematik appersepsiya testi (TAT) vujudga keldi.

Shuningdek ushbu yillarda proyektiv metodikalarning yaratilishida tub burilish yuz berdi deyish mumkin. Chunki, venger-shvyesariyalik olim Leopold Sondi testi psixologiya olamiga kirib keldi. Uning testida 6 seriya har xil psixik kasallikdan azoblanayotgan bemorlarning (har bir seriyada 8 tadan portretlar) fotografiyalar bo'lib, Tekshiriluvchilar har bir seriyadan o'zlariga eng ko'p yoquvchi va eng kam yoquvchilaridan ikkitasini tanlash tavsiya etilgan.

40-yillarda psixologik testlarning rivojlanishi.

1940 yillarda Oskar Burosning «psixik o'lchashlarning yilnomasi» nashrida psixologik byestlar haqida ma'lumotlar taqdim etila boshlandi. Bunda 325 test sharhlanib, 200 test faqat sanab o'tilgan edi.

Birinchi jahon urushi singari Ikkinchi jahon urushi arafasida ham AQSHda Yangi testlar ishlab chiqila bordi. Amerikalik olimlar Yana asosiy e'tiborni armiya uchun zarur guruhiiy testlarni yaratishga kirishdilar va Armiyaning umumiiy klassifikatsiyalovchi testi-guruhiiy testi yaratildi. Unda 10mln yaqin harbiy xizmatchilar htkazildilar. Shuningdek, harbiylarda Rorshax, TATning qisqartirilgan testi, vaziyatli testlar ham tatbiq etila boshlandi. Buyuk Britaniyada esa Ravenning progressiv matrisalari harbiy klassifikatsiyalashda qo'llanila boshlandi.

40-yillarda Erishilganlik Stenford testi, Otisning klassifikasion testi, Kbyuderning 168 topshiriqli savolnomasi, Shu yillari Katrin Briggs va uning qizi Isabel Mayers tomonida «Mayers-Briggsning tiplar indikatori» ustida ishlar olib borilib, 1962 yildagina ushbu test e'lon qilindi.

Ushbu yillarda ko'pchilikni e'tiborini Minnesotskiyning ko'p jabhali shaxsni o'rganish savonomasi (MMPI) o'ziga jalb etdi. G.Yu.Ayzenkning Moudsleysk tibbiyot savolnomasi yaratildi.

Gilfordning «Temperament sharhi»ni yaratilishiga olib keldi.

Urushdan so'ngra Saul Rozensveyning frustratsiyaga reaksiyani aniqlash proyektiv testi (24 ta suratdan iborat) vujudga keldi.

50-yillarda Vekslarning katta yoshdagilarni intellektini o'rganish shkalasi yaratildi. R.Kettellning intellektni aniqlashning erkin madaniytesti va 16 faktorli shaxs savolnomasi yaratildi (1958). Dj.Teylorning byezovtalanishning namoyon bo'lishini aniqlash metodikasi (1953) keng ko'lamdatadqiqot maydoniga kirib keldi.

1.2. PSIXOLOG-TADQIQOTCHINING KASBIY-ETIKAVIY TAMOYILLARI

Jahon psixologiyasi tajribalari ko'rsatadiki, psixodiagnostika va psixologik testlar bilan shug'ullanishda ma'lum standartlar va kodekslarga amal qilinadi. Ushbu standart va kodekslarga ko'ra, psixodiagnostik metodika natijalarini sharhlash uchun psixolog mas'uldir. Agar psixodiagnostik tekshiruv natijasida tekshirilgan shaxs biror ma'naviy yoki moddiy zarar ko'rsa, psixolog javobgar hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, psixolog- psixodiagnost o'zining kasbiy huquqiga ega. Ular kasbiy-etikaviy tamoyillarni doimo yodda tutishi va ularga amal qilishi lozim. Biz taqdim etayotgan kasbiy-etikaviy tamoyillar faqat mutaxassis-psixologlar uchungina emas, balki ta'lim muassasasi rahbari, pedagoglar uchun ham mo'ljallangan. Kasbiy faoliyat jarayonida ushbu kasbiy-etikaviy tamoyillarga amal qilish foydadan xoli emas.

Psixodiagnostik metodikalardan foydalanishda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lish. Ushbu tamoyilga ko'ra, psixodiagnostik metodikalarni amaliy qo'llashi uchun mutaxassis-psixolog yetarlicha kasbiy tayyorgarlikka va psixologik bilimga ega bo'lishi zarur. Chunki undan ta'lim muassasasi muammosidan kelib chiqqan holda psixodiagnostika metodikalarini tanlay bilish, ularni to'g'ri tatbiq etish va natijalarni haqqoniy tahlil etish talab etiladi. Masalan, ma'naviy rivojlanishdan orqada qolgan o'quvchilar bilan shug'ullanuvchi psixolog nafaqat psixodiagnostika metodikalarini, balki o'quvchilarda kuzatiladigan nomukamallik darajalarini ham bilishi lozim bo'ladi. Shuningdek, psixolog tanlangan metodikaga aloqador bo'lgan ilmiy adabiyotlarni, metodikaning texnik ko'rsatkichlarini, ya'ni ishonchliligi, validligi, haqqoniyligi va me'yorlarning kafolatlanganligini baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy sirlarni saqlash. Ushbu tamoyilga ko'ra, tanlangan metodikalar mohiyati boshqalarga ovoza qilinmasligi va ulardan g'ayri insoniy maqsadlarda foydalanilmaslik kerak. Kasbiy sirni saqlash psixologning nufuzi va obro'sini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda psixodiagnostika metodlarini to'g'ri va aniq qo'llashga xizmat qiladi, tashqi aralashuvlarga yo'l qo'yilmaydi. Psixodiagnostika metodlaridan muhim bo'lmagan masalalarda foydalanish yoki ularni mutaxassis bo'lmagan shaxslarning qo'llashi fanda yolg'on ma'lumotlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Demak, ta'lim muassasasida tashkil etiladigan psixodiagnostik tekshiruvlarni o'tkazishda ushbu tamoyil psixologning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Shaxs huquqlarini ta'minlash. Bu — psixologiyadagi murakkab masalalardan biri. Qator testlar shaxsning hissiy va motivasion sohalarini, barqaror holatlari, ichki kechinmalari (ustanovkalari)ni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bunda shaxsning o'zi xohlamagan yoki anglab yetmagan xususiyatlari aniqlanishi mumkin. Bunday holda shaxsning ma'naviy zarar ko'rishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Shuning uchun tekshiriluvchi shaxs tekshirish natijalari bo'yicha kim va qanday qaror qabul qilinishi haqida ogohlantirilishi, ya'ni uni test

sinovidan o'tkazib, sirlarini barchaga oshkor qilmaslik kerak. Agar tekshiriluvchi balog'atga yetmagan bo'lsa, uning ota-onasi test natijalaridan xabardor bo'lishi kerak. Ushbu kasbiy-etikaviy tamoyilga ko'ra, psixodiagnostik tekshiruvda ishtirok etayotgan shaxs huquqlari va sirlari himoya qilinadi. Bu garchand psixolog ishini murakkablashtirsa-da, lekin uning kasbiy tayyorgarligiga talabni kuchaytiradi.

Haqqoniylik. Bu tamoyilga ko'ra, psixolog tekshirishlar o'tkazish jarayonida tekshiriluvchi shaxsiga u yoki bu darajada (ijobiy yoki salbiy) ta'sir o'tkazmasligi kerak. Test o'tkazish jarayonida unga nisbatan simpatiya yoki antipatiyaga yo'l qo'yilmasligi, munosabatlar samimiy va xolis bo'lishi lozim. Unga xayrixoh munosabatda bo'lib, biror test savoli javobini aytib yubormaslik talab etiladi. Mabodo sinaluvchi test yo'riqnomasini tushunmasdan topshiriqlarni bajargan bo'lsa, uni tuzatish yuzasidan ko'rsatma berish mumkin.

Konfidentsiallik. Tekshiruv natijalari sir saqlanishi va ulardan tegishli shaxslar (psixologlar, pedagoglar, ota-onalar) foydalanishi zarur. Tekshirib ko'rilgan o'quvchining roziligi asosida tekshiruv natijalari boshqalarga ma'lum qilinishi mumkin. Agar o'quvchi testdan past natija olgan bo'lsa, psixolog bu haqda uning ota-onasiga darhol ma'lum qilmasligi, balki keyinroq olingan natijalar uchun uning zinhor aybi yo'qligini tushuntirishi lozim. Eng muhimi, testdan past natija olgani uchun o'quvchining ota-onasi tomonidan jazolanishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Agar o'quvchi olgan natijalar uni ogohlantirmasdan ota-onasi yoki o'qituvchiga taqdim etilsa, psixolog xatoga yo'l qo'ygan hisoblanadi. Ma'lumotlar kimga taqdim etilishi haqida o'quvchi (yoki tekshiruvdan o'tgan shaxs) xabardor bo'lishi shart.

Tekshiruv natijalarini psixoproflaktik izohlash. Ushbu kasbiy-etikaviy tamoyilga ko'ra, agar tekshiriluvchi shaxs haqida taqdim etilgan daliliy materiallardagi ma'lumotlarga tuzatish kiritish yoki ularni aniqlashtirish talab etilsa, tekshiriluvchining o'zi natijalar mazmuni bo'yicha sharh berishi mumkin. Masalan, ta'lim muassasasida o'quvchi haqidagi tekshiruv natijalari

o'qituvchi tomondan so'ralmasa, yoki aksincha, ushbu ma'lumot oshkor qilingan holda o'quvchining psixologik holatida salbiy o'zgarishlar yuz berishi mumkinligini psixolog bilsa, u o'quvchi haqidagi ma'lumotlarni o'qituvchiga umuman taqdim etmasligi kerak.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, psixodiagnostik ishlarni tashkil etishda psixolog bir qancha talablarga amal qilishi lozim:

Birinchidan, psixolog differensial psixometriyaning asoslarini va psixologik adabiyotlarni tahlil etish metodlarini, umumiy nazariy- metodologik tamoyillarni amaliy qo'llashni bilishi va uddalashi lozim.

Ikkinchidan, axborot ma'lumotlar bankini va test vositalari bankini yaratishi zarur.

Uchinchidan, psixodiagnostik tekshiruvlar o'tkazuvchi psixolog test ma'lumotlari asosida qabul qiladigan qarori, qo'llanilgan metodikaning validligini va tashxisning zaruriy ishonchlilik darajasini ta'minlash uchunmas'ul.

To'rtinchidan, psixolog psixodiagnostikaning kompleks metodikasini ishlab chiqishda diagnostikaning yuqori samaradorligiga asoslanishi, tegishli sohada qo'llaniladigan usullarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi kerak.

Beshinchidan, diagnostik ish jarayonida psixodiagnostik metodikalarni standartlashtirish talablariga rioya etishi, olingan ma'lumotlarni qayta ishlashi va talqin qilishi kerak.

Oltinchidan, psixologdan metodik vositalardan to'g'ri foydalanish, psixologik axborotlarning konfidensialligini ta'minlash, shuni kasbiy yo'nalishdagi fanlarni o'rganish, ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'tkazilgan amaliy ishlar (ayniqsa, yuqori kurslarda) o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularni to'ldiradi va chuqurlashtiradi. O'quvchilarga o'rganilgan fanlarning amalda qanchalik foydali ekani, ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga, va albatta,

qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha kichik mutaxassislar faoliyati samaradorligiga ta’siri ishonchli va yorqin misollar asosida ko‘rsatib beriladi.

1.3. PSIXODIAGNOSTIKANING PSIXOMETRIK ASOSLARI

1.3.1. Metodikalar yaratish texnologiyasi va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish

Testlashtirish to‘g‘risida so‘z borganda birinchi navbatda «test» so‘zi to‘g‘risida to‘xtalishimizga to‘g‘ri keladi. Testlar inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, sinov, sinash, tajriba ma’nosini bildiradi. Test qisqa muddatli standartlashtirilgan sinash vositasi bo‘lib, eng muhim va ahamiyatli ma’lumotlarni olishga mo‘ljallangan.

Testlashtirish konsepsining asosida shaxs xususiyatlarini baholash va o‘lchash metodi tushuniladi va u quyidagilarga tayanadi:

1. Shaxsning ichki (psixologik) xususiyatalari indikatorlar yordamida aniqlanadi.
2. Indikatorlar maxsus proseduralar bilan o‘lchanadigan yoki ob’yektini kuzatish orqali ifodalanadi.
3. Tashqi (xulqiy) va shaxsning ichki xususiyatlari o‘rtasida bir xil sababiy bog‘lanish mavjud: kuzatilayotgan xatti-harakat yoki reaksiya bilan ma’lumshaxs xususiyatlarini tug‘ilishida ko‘rinadi.

4. Test sinovlarida keng ko‘lamli tadqiqot tanlanmalarida amalga oshiriladi.
(V.M.Rusalov, O.V.Guseva. Yu.M.Zabrodin, V.I.Poxilko, A.G.Shmelev,
A.G.Vinogradov)

Test topshiriqlarini aniqlash

-Testning tuzish maqsadini belgilash

-testning o‘ziga xosligini belgilash

Test tuzish bosqichlari



Xorijiy testlarni moslashtirish

Xorijiy testlarni moslashtirishda quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Tesning original variantidan ikkinchi tilda tarjimasi bo'yichadastlabki variantini tayyorlash
2. Lingvist va testning original variantini tushunuvchi mutaxassisni jalbetish orqali test mazmunini ekspert baholash;
3. Testni asli bilan eksperimental tajribasidagi shkalalarni ekvalentligini tekshirish;
4. yangi shkalalarni o'rnatish va mahalliy tanlanmalar bo'yicha mosme'yorlarni to'plash. (Yu.L.Xanin, 1977)

1.3.2. Psixodagnostik testlarning effektivligi quyidagi shartlar belgilaydi:

- Shkalalar intervalidan foydalanish
- Ishonchlilik
- Validlik

— Diskriminativlik

— Normativ ma'lumotlar yig'ish

Test topshiriqlarining ichki muvofiqlik darajasiga egaligi va tekshiriluvchidan bir necha bora test topshirig'i sinab ko'rilganda natijalarning bir xil miqdoriy kursatkichga ega bo'lishi uning ishonchliligini belgiladi.

Testlarning ishonchlilikgini aniqlashning uch qoidasi mavjud:

1. Retest-testni qayta o'tkazish orqali, ya'ni test o'tkazilgandan so'ngra ma'lum vaqt o'tgandan so'ngra yana aynan oldin tekshiruvdan o'tgan sinoluvchilar yana qayta testdan o'tkaziladi. (P.Klayn retest o'tkazish muddatini 6 oy oralig'ideb belgilaydi, L.F.Burlachuk esa buni 3 hafta oralig'i yetarli degan xulosani beradi).
2. Bir vaqtni o'zida testning ikkita, ya'ni ekvalentidan foydalanish.
3. Testlarning juft va toq topshiriqlari bo'yicha ishonchliligini hisoblashdaularning juft va toq raqamli topshiriqlari orasidagi korrelyasiyani hisoblab chiqish.

$$r_{11} = \frac{2r_{1/21/2}}{1 + r_{1/21/2}}$$

Testlarning ishonchliligini aniqlashda 200 va undan ortiq tekshiriluvchilardan hamda reprezentativ tanlanmalarda amalga oshiriladi.

Validlik. Testning o'rganish mo'ljallangan xususiyatni o'lchay olishimkoniyati uning validligini belgilaydi.

Validlik turlari:

1. Konkurent validlik
2. Prognostik validlik
3. Konseptual validlik

Testlarni standartlashtirish-psixometrik o‘lchash tadbirlainig biri sifatida qaraladi va ular tekshiriluvchilarni bir-biri bilan qiyoslashda va natijalarni tahlil etish uchun zarur me’yor hisoblanadi.

500 kishilik tanlanma olinadi.

Standartlashtirish. Testlarni standartlashtirish psixometrikaning asosiy talablaridan biri sanaladi. «**Sten**»(**Standart ten-standartnaya desyatka**)

$Z = \frac{X - \bar{X}}{S_x}$

Z-standart ball

quruq ball

$\bar{X}$ -standartlashtirish tanlanmasidagi o‘rtacha ball

S_x -standartlashtirish tanlanmasi bo‘yicha standart og‘ish

StenqZ..2Q5.5 markaziy qiymat 5.5 va standart og‘ish esa 2 ga teng

Quruq ballarni stenlarga ajratish bo‘yicha namuna

Quruq ball	0-6	7-8	8-9	10-13	14-16	17-19	20-22	23-24	25	26-30
Stenlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Test topshiriqlarini aniqlash

-Testning tuzish maqsadini belgilash

-Testning o‘ziga xosligini belgilash

Tenstlar tuzish qoidalari: psixodiagnostikada shaxs so‘rovnomalari tuzish uchun bir qator talablarga amal qilinadi:

- Har bir topshiriq bitta savol orqali berilishi.
- Har bir topshiriq sodda va aniq tuzilgan bo‘lishi.
- Ikki mazmun savollar tuzishdan qochishi.
- Sinaluvchi qanday xususiyatlarini o‘rganilishini payqamasligi kerak

Testlarni rasmiylashtirish talablari

1. Har bir topshiriq raqamlanadi.
2. Har bir qator 10-12 soʻzdan oshib ketmagan va qisqa va mazmunli boʻlishi lozim.
3. Har bir topshiriq toʻgʻri vertikal tarzda tepadan pastga q-qarab varaqning chap tomonida qayd etilishi lozim.
4. Har topshiriqning javoblar varianti topshiriqning toʻgʻrisida va varaqning oʻng tomonida mos ravishda berilishi lozim
1. _____ ha bilmayman
yoʻq2. _____ ha
bilmayman
yoʻq

5. Har bir topshiriq bir-biridan ajratilgan holda va aniq ifodalanishkerak.
2. Agar bir xil tipdagi topshiriqlar beriladigan boʻlsa ularni tipiga koʻraguruhlash lozim. Har bir topshiriq uchun alohida
3. Pechat qilinishi lozim.

1.4. PSIXOLOGIK TESTLAR VA SHAXS SOʻROVNOMALARI

Psixologik testlar va shaxs soʻrovnoamlaridan foydalanishda ularning yutuqva kamchiliklari toʻgʻrisida yaqqol tasavvurga ega boʻlish mutaxassis faoliyati samaradorligini taʼminlashning muhim shartlari hisoblanadi.

Psixologik testlarning qadr-qimmati quyidagi sifatleri bilan belgilanadi:

1. Testni tatbiq etish sharoitlari va natijalarni standartlashtirilganligi.
Test metodikalarni oʻtkazishda foydalanuvchilarning maʼlumotlik darajasiga bogʻliq boʻlmagan holda tayyorlab qoʻyish mumkin. Bu esa test batareyalari boʻyicha kompleks xulosalar tayyorlashda yuqori malakali psixologni jalb etish kerak emas degan maʼnoni bermaydi.
2. Operativlik va tejamkorlik. Tipik testlar qisqa topshiriqli seriyalardan tashkil

topadi. Ularni bajarish uchun esa yarim minut vaqtni

oladigan bo‘ladi va odatda testlar bir soatdan oshib ketmaydi. Ba’zi shaxslik testlari bunday chegaradan chetga chiqishiga ham to‘g‘ri keladi.

3. Baholarning miqdoriy differensiallashgan xarakterga egaligi. Test shkalalari va standartlashganlik uning aniqlovchi instrumenti sanaladi hamda o‘lchanayotgan xususiyatni miqdoriy baholash imkonini beradi (bilim, ko‘nikma, malaka) Yaxshi test o‘quvchilarni uch toifaga ajratib beradi. A‘lochi, o‘rta va qoloq. Qutbli xarakterda esa qobiliyatli va talantli, ishonchlikni yo‘qligi bilan o‘ta ishonchsizlik (mutlaqo tayyor emaslikni) ajartishga olib keladi. Bundan tashqari test natijalarining miqdoriy testlarning yaxshi ishlab chiqilganligi imkoniyatlarini baholab beradi.
4. Optimal murakkablik. Professional tarzda tayyorlangan test topshiriqlari optimal murakkablikka ega bo‘ldai. Bunda o‘rta sinalluvchi maksimal miqdordagi ballning 50 foizini to‘play olishi kerak. Bu dastlabki, psixometrik eksperiment vaqtida aniqlanadi.
5. Ishonchlilik.
6. Adolatlilik. Yaxshi test barcha tekshiriluvchilar uchun bir shart-sharoit qo‘yiladi.
7. Kompyuterlashtirish imkoniyati. Ommaviy test tadbirlarini o‘tkazishda uning natijalarini qayta ishlash va vaqt tejamkorligini oshirishga yordam beoadi. Testlarni kompyuterlashtirish axborot xavfsizligini ta‘minlashning eng maqbul yo‘li sanaladi.
8. Psixologik adekvatligi. Bu optial murakkabligini muhim psixologik sababi hisoblanadi. Stressga chidamlilik,

Testlarni qadr-qimmati bilan bir qatorda ularning kamchiliklarini ham sanab o‘tish lozim bo‘ladi.

1. «Ko‘r-kurona» xatoga yo‘l qo‘yish xavfi. Yuqori ma‘lumotli bo‘lmagan mutaxassislariga ishonib qo‘yish, ya‘ni testlarni avtomatik tarzda

ishlatish, ba’zida bir qator oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yo’riqnomalarni tushunmasdan javob berishga to’g’ri kelib qolishi,

2. Profanatsiya xavfi. Bu so’z ma’nosini ifodalashda hosil bo’ladigan effekt. Masalan mutaxassislar saralash sharoitida MMPI qo’llash, sakkizinchi shkaladagi maksimal ball «Shizofreniya»ni aniqlashga yordam beradi bu original tafakkurni baholovchi sanaladi, to’rtinchi shkalada «psixopatiya-impulsivlik» tarzda ifodalangan. Testning savollari sog’lom shaxsni ancha talvasaga solib qo’yadi.
3. Individual yondashuvning yo’qligi (Stressga chidamlilik). Test yoppasiga o’tkazishga ancha qo’l kelganligi sababli, unda individual xarakterdagi jihatlar e’tibordan chetda ham qolib ketadi.
4. Ishonchlilik sharoitlarini bo’lmasligi. Test proseduralarining rasmiylik xarakteriga ega ekanligi, psixologning uning muammosiga shaxsan qiziqishiga nisbatan ishonchsizlik olib keladi.
5. Noadekvat murakkablik individual yondashuvning yo’qolishi. Ba’zan yuqori ma’lumotli darajasida tuzilmagan testlarda hatdan ortiq murakkablik yosh xususiyatlariga tag’sir etadi.

Shaxs so’rovnomalari va ularni psixologik ifodalash tartibi

Shaxs so’rovnomalarining rasmiylashtirish va ularning shkalalarini ifodalashda ayrim tartiblarga amal qilinadi.

Psixologik shaxs so’rovnomalarining “L” “Q”-ma’lumotlar bir qator tadqiqotlarda o’ziga xos tarzda tartiblanadi. Bunday tadqiqotlarda L” “Q”- ma’lumotlarning muvofiqligini ta’minlashda 20 tagacha omillar inobatga olingan.

Faktorlarni identifikatsiyalashda ikki xil ifodalash tizimiga amal qilinadi: indeksli va alfavitli

Indeksli ifodalash tizimi o’zida universal indeksni taqdim etadi va quyidagicha yoziladi: U.I. (L, Q)№, agar U.I. universal indeksning

qisqartirilgan ifodasi; L ,Q-ma'lumotlar tipini ifodalanishi, №- universal indeksdagi faktorning raqami.Ular 1dan 20 gacha bo'lishi mumkin.

Alfavitli ifodalash tizimi ABCDEFGHIJKLMNOQ₁Q₂Q₃Q₄)

Q₁Q₂Q₃Q₄ Harflar UI (Q) 16-19 faktorlarni ifodalaydi A-O faktorlardan farqlash uchun.

Faktorlarni ifodalashning ikki xil nomlanish qabul qilingan:

Texnik va maishiy

- ***Texnik nomlanish*** psixologlar uchun mo'ljallangan bo'lib, faktorlarni ilmiy belgilangan ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Ko'pincha texnik atamalarda akronomik nomlanish: sizotimiya, siklotimiya, sugency, eksvia-invia va boshqalar.

- ***Maishiy nomlanish*** umum uchun qo'l keladigan tarzda faktorlarni atashda qo'llaniladi. Bu esa psixologlarni mutaxassis bo'lmaganlar bilan muloqoti uchun foydalaniladi. Masalan, A faktor-«iliqlik-sovuqlik» (affektotimiya-sizotimiya), S-faktor «emosional barqarorlik-beqarorlik» («Men» kuchi-«Men»ning kuchsizligi)

L ,Q-ma'lumlardan shaxslik faktorlarini ajratib ifodalanadi.

Har bir omilni quyidagi qismlarga ajratib ifodalanadi:

A) faktorlarning universal va harfiy indeksi; b)

faktlorlarning texnik va maishiy nomlanishi;

v) «L» ma'lumotdagi faktorni ifodalovchi eng ahamiyatli xarakteristikag) eng ma'lumotbop savollar ro'yxati (Q-ma'lumot)

d) faktorlar interpretatsiyasi

1. A faktor, yoki U.I. (L ,Q)1

Ijobiy qutb (AQ)	Salbiy qutb (A-)
Affektotimi (siklotimiya)	Sizotimiya
mehribonlik	Begonalashganlik

• Muloqotga tez kirishuvchan • Mehribon • Ochiq • His-tuyg‘uli • Ishonuvchan • Ginasiz • Muloqotmand	• Nizoli • Rigid • Sovuq • Yopiq • Tortinchoq o‘zini chetga olib turuvchan • Shubhalanuvchan • Ehtiyotkor • egoist
--	---

Bundan ko‘rinadiki, testlar va shaxs so‘rovnomalari bilan bog‘liq yuqoridagi holatlar psixodiagnostikada mutaxassisning diqqat markazida bo‘lishi muhimdir.

1.5.QOBILIYATLAR VA INTELLEKT PSIXODIAGNOSTIKASI

Qobiliyatlar va intellektni amaliy o‘rganish psixodiagnostika tarixida o‘ziga xos tarixiy bosqichga va ilmiy qarashlarga tayaniladi. Qobiliyat – umumiy psixologik tushuncha bo‘lib, psixologiyada uni ta’riflashda bir necha yondashuvlar mavjud. Masalan, B.M.Teplov qobiliyatni uchta belgisini sanab o‘tadi:

- qobiliyat-bu bir odamni boshqasidan farq qiluvchi individual psixologik xususiyat;
- faoliyatni yoki bir nesa faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga munosabatini bildiruvchi xususiyat;
- qobiliyat –bilim, ko‘nikma va malaka bilan bog‘liq bo‘lmagan holad. Ammo bilim, ko‘nima va malakalarni tez va oson o‘zlashtirishni shartlovchi xususiyat.

V.D.Shadrikov esa qobiliyat tushunchasini psixologik konkretlashtirishgaharakat qilib, uni individual o‘lchamli, alohida psixik funksiyalarni

sifatli va muvaffaqiyatli o‘zlashtirishdan iborat psixikaning funksional tizimi xossasi sifatida ifodalashga harakat qildi.

D.N.Zavalishin qobiliyat turlarini tahlil etar ekan, umumiy qobiliyat insonning umumiy sharoitlardagi yetakchi faoliyati bilan, maxsus qobiliyatlarni esa alohida faoliyat sohasi bilan bog‘laydi.



Qobiliyat bilan intellekt orasidagi bog‘liqlik va o‘xshashlikni bilimning qo‘llashdagi topshiriqlarni hal etish qobiliyati sifatida qaraganda kuzatiladi.

Birgina insonning ijodiy Kreativlik (umumiy ijodiy qobiliyat) va intellekt munosabatiga bog‘liq minimal darajada uchta yondashuv mavjud:

- Bunday kreativlik yo‘q. Shaxsning ijodiy aktivligi uchun sharoit yo‘q vaqtida intellektual iqtidor zarur. Bu yerda ijodiy xulq-atvor uchun bosh determenant sifatida motivatsiya, qadriyatlar va shaxs xususiyatlari yetakchi rol o‘ynaydi (A.DJ.Tannenbaum, A.Maslou, O.B.Bogoyavlenskaya). ular ijodkor shaxsning asosiy xususiyatlariga kognitiv iqtidor, muamoga nisbatan sezgir, noaniq va murakkab vaziyatlarda mustaqil mulohaza yurituvchi sifatlarinikiritdi.

Masalan, ijodiy qobiliyat (kreativlik) intellektga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud mustaqil omil sanaladi (Dj.Gilford, K.Teylor, Ya.A.Ponomarev). Bu konsepsiyaning yana bir tomoni intellekt bilan

kreativlik o'rtasida ahamiyatsiz darajada korrelyasiya borligi haqida so'z yuritiladi. Ye.Torrensning mulohazasicha, agar IQ qiymati 115-120 dan past bo'lsa, intellekt va kreativlik yagona omilni hosil qiladi, 120 dan yuqori bo'lsa ijodiy qobiliyat mustaqil sifati o'lchamiga ega bo'ladi, ya'ni quyi intellekt bilan kreativlik o'rtasida bog'liqlik kuzatilmaydi, deyiladi. Ammo ushbu g'oyadan farqli o'laroq hayotiy kuzatishlarda quyi kreativli intellekt egalari bor.

Intellektni yuqori darajada rivojlanishi ijodiy qobiliyatning yuqori yoki aksincha holati ham bo'lishi mumkin. Ijod jarayoning psixik faollikdagi singari spesifik shakli yo'q (D.Veksler, G.Ayzenk, A.Termen va boshqalar).

Intellektning faktorli nazariyasi asoschisi Ch.Spirmen quyidagi g'oyani ilgari surdi:

- Intellekt qat'iy insonning shaxs xususiyatlariga bog'liq emas;
- Intellekt o'z tuzilmasiga intellektual bo'lmagan sifatlarni qo'shmaydi (qiziqish, erishish motivatsiyasi, bezovtalanish). U intellektni to'rtga ajratdi: birinchi tip intellekt-yangilikni tez tushunish, ikkinchisi-bilishning to'liqligi, uchinchisi-«sog'lom fikrga egalik», to'rtinchisi-yechimlarning originalligiga bog'liq. Uning g'oyasiga ko'ra, umumiy qobiliyat -bosh faktor-G –faktorda, maxsus qobiliyat – S –faktor tarzda ifodalanadi. G –faktor Ch.Spirmen bo'yicha «aqliy quvvatni» belgilaydi. G.Ayzenk va Dj.Raven o'zlarini intellekt testlarini ishlab chiqishla G –faktor xususiyatiga tayandilar.

Dj.Ravenning «Murakkablashib boruvchi matrisalari» 1936 yillarda yaratilgan bo'lib, unda har birida 12 ta topshiriqdan iborat 5 seriyali topshiriqlar mujassamlashtirilgan. Test to'plamlari to'g'ri burchak shaklidagi matrisalardan tashkil topgan bo'lib, o'zida mantiqiy yaxlitlikka, ma'lum qonuniyat va qoidalarga asoslanib tuzilgan har xil figura va figuralar to'plamidan iborat. Masalan, qandaydir qismida yetishmovchilik mavjud bo'lgan rasm va tasvirlar berilganki, tekshiriluvchi mantiqiy jihatdan tahlil

qilib, matrisa ostida berilgan 1 va 6 yoki 1dan 8 gacha bo'lgan javoblar variantidan birini mos o'ringa qo'yishi lozim bo'ladi.

Har bir seriya yengil topshiriqlardan boshlanib, keyinchalik murakkablashib boraveradi. Bu holat A seriyadan boshlanib, Ye seriyada yanada murakkabroq ko'rinish oladi.

Ravenga muvofiq bu test qobiliyatni tekshirishda ma'lum shakllarni idrok etishni, ularning xususiyatlarini qamrab olish lozimligini, munosabatlar yig'indisiga asoslanganligi tufayli har bir topshiriqni bajarishda ma'lum mantiqiy mulohazalashni talab etadi.

Matrisaning perseptiv shkalasi ikkita nazariyaga tayanadi:

A) geshtalt psixologiyada rivojlangan shakllarni idrok etish nazariyasi; B) K.Spirmenning neogenez nazariyasi.

Topshiriqlarni yechishda uchta asosiy psixik jarayonlar ishtirok etadi:

- diqqat, e'tiborlilik (diqqat idrok va tafakkur doirasidan ajratiladi);
- idrok etuvchanlik;
- tafakkur, tushunuvchanlik.

Topshiriqlarni yechish vaqtida diqqatda ancha zo'riqish paydo bo'ladi. Shunday bo'lsa-da uni tekshiriluvchining topshiriqlarni yechishdagi qiziquvchanligi yengilashtirishga olib keladi. Topshiriqlarni bajarish sharoitida diqqatni to'plashni va uning taqsimlashni talab etadigan holatlar ko'p uchraydi. Bu yerda diqqatdan tashqari iroda va emosiyaning ham ahamiyati ko'zga tashlanadi. Shu sababali ham Ravenning «Murakkablashib boruvchi matrisalari» «umumiy intellektni» tekshiruvchi test emas, balki intellektual faoliyatni rejali, tizimlashganlik qobiliyatini tekshirishga qaratilgan.

Raven testi topshiriqlarining alohida seriyalar bo'yicha tavsfini keltirib o'tish o'rinlidir. Bu holatini inobatga olishimiz tadqiqot natijalariga ko'ra test topshiriqlarini tahlil etishimizda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va bizga ma'lum yengilliklar tug'diradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, matrisa shkalalari 5 seriya topshiriqlardan tuzilgan bo'lib, Raven ularni quyidagi tamoyillarga muvofiq tartiblagan edi:

A seriya topshiriqlari tuzilmasi o'zaro aloqadorlik tamoyiliga;

B seriya topshiriqlari juft figuralar orasidagi o'xshashlikka (analogiya);

S seriya topshiriqlari figuralaridagi progressiv o'zgarishlarni aniqlash tamoyili;

D seriya topshiriqlari seriya topshiriqlari figuralarni qayta guruhlash tamoyili;

Ye seriya topshiriqlari figuralarni elementlarga ajratib tashlash tamoyiliga tayanib tuzilgan.

Har bir seriya topshiriqlariga xos ayrim jihatlarni tahlil etish va izohlash mumkin.

A seriya topshiriqlari tekshiruvchanlik ahamiyati matrisadagi yetishmaydigan qismni to'ldirishda iborat. Uning figuralari statik xarakterlidir. A seriya topshiriqlarini yechishda ikkita fikrlash jarayoni kechadi: 1) tuzilmani farqlash va tahlil etish yordamida qismlar orasidagi moslikni topish lozim bo'ladi; 2) tuzilmadagi yetishmaydigan qismni identifikatsiyalash va matrisa ostida berilgan 6 ta qirqma qismlarni yetishmaydigan tomonini qiyoslashni talab etadi. Uning psixologik ahamiyatini topshiriqlarni yechishda vizual farqlash va xayolga, statik tasavvur darajasi va e'tiborlilik darajasiga ancha bog'liq.

V seriya topshiriqlari ikkita juft figuralar orasidagi analogiyani topishga asoslangan. Tekshiriluvchi topshiriqlarni ushbu tamoyilga asoslanib, sekin-astalik bilan elementlar orasidagi differentsiatsiyani inobatga olishi lozim. Topshiriqni yechimini topishda figuralar orasidagi simmetriklikni qo'yish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Psixologik ahamiyati: chiziqli bog'lanish asosida chiziqli differentsiatsiyalash va xulosalash lozim bo'ladi.

S seriya topshiriqlari matrisadagi figuralarni ma'lum mantiqiylik jihatidan figuralar joylashuvini uzluksiz rivojlanish tamoyiliga va fazodagi dinamik almashuviga qarab murakkab o'zgartirishlar kiritishga asoslangan (figura gorizontal va vertikal yo'nalishda ortib borib, yakunida bu yangi elementlar yetishmovchi figuraga aylanadi).

Psixologik ahamiyati: tasavvur qilish qobiliyati, dinamik e'tiborlik va kuzatuvchanlikka qobiliyatlilikni yoritishdan iborat.

D seriya topshiriqlari matrisadagi figuralarni gorizontal va vertikal yo'nalishda qayta tuzish tamoyiliga ko'ra tuzilgan. Yechish figuralarning ketma-ketligi va yaxlit tuzilmadagi figuralarni almashinish qonuniyatiga aniqlashni talab etadi.

Psixologik ahamiyati: foydalanilgan o'zgarishlar qonuniyatiga ko'ra figuralarni tartiblashtirishda miqdoriy va sifat o'zgarishlarni qo'lga kiritish qobiliyatiga bog'liq.

Ye seriya qabul qilingan tamoyilga muvofiq alohida elementlardan figuralarni analiz va sintez orqali xulosalash topshiriqlaridan iborat. Bu yerda figura elementlarini hisobga olish va taxlash, qismlarni algebraik tamoyillarga muvofiq qismlarni qo'shishdan iborat. Tuzilmadagi yetishmaydigan a'zo algebraik operatsiyalar yordamida tuzilmaning boshqa a'zolari bilan topiladi.

Psixologik ahamiyati: kinetik va dinamik qatorlar orasidagi murakkab miqdor va sifat farqlarni kuzatish qobiliyati. Abstraksiyaning yuqori shakliva dinamik sintezni aniqlashdan iborat.

Intellektni tahlil etishda L.Terstounning o'ziga xos yondashuvi bo'lib, uni 12 faktorga ajratdi va ulardan 7 tasini tadqiqotlarda ko'p ishlatiladi: V-so'zli tushunish, so'zli anologiya, tekstni tushunish, verbal tafakkur va maqollarni sharhlashga doir testlar; W-nutqning tezligi, ma'lum kategoriya so'zlardan foydanishga asoslangan test topshiriqlari, N-Sonli faktor, arifmetik hisob-kitoblarni tez va aniq bajarish, S-fazoviy omil, M- assosiativ xotira, P-idrok tezligi, I-induktiv faktor.

Psixodiagnostikada qobiliyatlar va intellektni o'rganishga doir ularning klassifikatsiyasiga e'tibor qaratganda: motor yoki harakat qobiliyatlari, sensor qobiliyatlar, vizual qobiliyat, texnik qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarga ajratiladi. O'z navbatida ularga mos tarzda maxsus metodiklardan foydalanishga to'g'ri keladi. Harakat qobiliyatlarini o'rganishdagi dastlabki metodiklar F.Galton va E.Krepelenlar hisoblanadilar. Zamonaviy psixologiyada esa Stromberg, Kraumford, M.I.Gurevich va N.I.Ozeresklar tomonidan ishlab chiqilgan metodiklar; sensor qobiliyatlarga doir Sishorning musiqaga iqtidorlikni, eshitish idrokini o'rganishga mo'ljallangan Massachuseti testi; texnik qobiliyatlarni o'rganishda esa Bannet va Purdy testilarini uchratish mumkin.

Intellektni diagnostika etishda Dj. Ravenning Ravenning «Murakkablashib boruvchi matrisalari», R.B.Ketell va A.K.Kettellning CFIT testi, D.Veksler testi, R.Gardnerning analitik-sintetik qobiliyatlarni o'rganish testi, R.Meylining analitik testi, R. Amtxaueraning intellyekt strukturasi o'rganish testi va boshqa metodikalarni uchratish mumkin.

1.6. SHAXSNI BAHOLASH METODIKALARI

Shaxsni tadqiq etish psixologiya fanidagi asosiy muammo sanaladi. Shaxs keng ko‘lamli tadqiqot predmeti sifatida psixolog-tadqiqotchilarning diqqat markazidadir. Ammo mamlakatimizda psixologiyaning jamiyat talabidan kelib chiqib yangi bosqichga qadam qo‘yganligi shaxs muammosiga atroflicha e‘tibor qaratishni talab etadi. Buning uchun shaxsni tadqiq etishda jahon psixologiyasi tajribalarini inobatga olgan holda muammoni tahlil etish ko‘zlangan maqsadni to‘laqonli baholash imkoniyani beradi.

Psixologiyada shaxsni tadqiq etish keng ko‘lamda o‘rganish vositalariga ega bo‘lsa-da, ammo ularni milliy muhit va zamon talablariga moslashtirish kerak bo‘ladi.

Shaxsni o‘rganish metodikalarining jahon psixologiyasidagi tajribasi ular yuzasidan yana ilmiy izlanishlar olib borishga undaydi. Shu bois jahon psixologiyasida shaxsni baholashga bag‘ishlagan metodikalar va ularning xususiyatlarini qisqacha sharhlab o‘tish lozim.

Odamning o‘rganishda ob‘yektiv testlar sifatida shaxsni o‘rganish so‘rovnomalarining ahamiyatilidir. Shaxs so‘rovnomalarining tekshiriluvchini asosiy e‘tiborni topshiriqning javobiga emas, balki topshiriqqa qaratishi, test maqsadlarining yashirin xarakterga egaligi, topshiriqlarni yaxlit tuzilma sifatida taqdim qilinishi, psixometrik o‘lchamga egaligi ularning yaroqliligini belgilaydi. Shaxsni o‘rganish so‘rovnomalar uzoq vaqt davomida ishlab chiqiladi.

R.B.Kettell va F. Vorberton (R.B.Cattell, F.Warbuton,1967) tomonidan ishlab chiqilgan shaxsni o'rganish so'rovnomasi bir necha o'n yillik mehnatnatijasidir. Ushbu so'rovnoma yaratilishida R.B.Kettell shaxs xususiyatlarini identifikatsiyalashda faktorli tahlildan foydalanib, 18000 ta xususiyatlarni 16 omilga mujassamlashtirishga erishdi. Shu bois psixologik diagnostikada «16 omilli shaxs so'rovnomasi» keng qo'llanilmoqda. Uning o'zbekcha modifikatsiyasidan ham mahalliy sharoitimizda foydalanilmoqda.

Ba'zi shaxslik testlari kognitiv o'lchamga asoslangan. G.Vitkina (H.A.Witkin et al.) va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan izlanishlarda idrok, xotira, tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal etish kognitiv o'lcham sifatida o'rganildi.

Shaxs so'rovnomalari bilan bir qatorda *proyektiv metodikalar* shaxsni o'rganishning asosiy psixologik vositalaridan biri sifatida qo'llanilmoqda. Ammo ushbu metodikalar o'tgan asrning 60-yillariga qadar nazariy asoslanmaganligi, psixometrik o'lchamga ega emasligi, haqqoniy natijalar berishga yaroqli emas tarzda tanqidlarga duch keldi (Rorshaxning «Odam chiz» testi va «Siyoh dog'lari» testi). Bugungi kunda jahon psixologiyasida proyektiv metodikalarning istiqbolga ega ekanligi e'tirof etilmoqda. Proyektiv metodikalar shaxsni o'rganish testlaridan farq qilib, insonning ongsizligini o'rganish shaxsni baholashga yordam beradi. Proyektiv metodikalar natijalarini sharhlashdagi beqarorlik, standart me'yorlarni mavjud emasligini kamchiliklari sifatida sanash mumkin.

Shaxsni baholashda estetik *tabii aniqlash stili* xorijiy psixologiyada sinovdan o'tga. Ushbu toifa testlarning bitta namunasi deb Barron-Velsh shkalasini aytish joiz.. Bunda tekshiriluvchiga 86 ta oq-qora tasvirdagi figuralar taqdim qilinadi. Tekshiriluvchi figuralarni yoqishi va yoqmasligini baholaydi. Uning bahosi shaxsning nafaqat san'atdagi, balki boshqa faoliyat sohalaridagi kreativligini baholashga yordam beradi. Barron- Velsh shkalasiga ko'ra yuqori va past ko'rsatkichlar shaxsning bir qator xususiyatlarini izohlashga imkon berar ekan. Yuqori ko'rsatkichli shaxslarda

tadbirkorlik, bahslashishni yoqtiruvchanlik, liderlikka moyillik, impulsivlik va boshqa sifatlar xos ekan. Quyi ko'rsatkichli shaxslarda mehnatsevarlik, azoblanuvchanlik va asosli mulohazalovchanlik yetakchilik qilarkan.

Shuningdek, shaxsni o'rganishda hazil-mutoyibadan foydalanish ham mumkin ekan. Shaxsning hazil-mutoyiba va karikaturaga beradigan javobi uning xususiyatlarini yoritishga imkoniyat tug'diradi. *Hazil-mutoyibatestlarida* mutaxassislar ko'proq hazil va karikaturalardan foydalaniladi. Masalan, shaxsni o'rganuvchi hazil –mutoyiba testi (IPAT)da ham tekshiriluvchilar hazil va karikatura rasmlarni baholaydilar. Ushbu test A va V shakldan iborat bo'lib, birinchisi 104 ta, ikkinchisida 132 ta hazil va karikaturadan tashkil topgan. Metodika natijalari shaxsni 13 shaxslik omillarini yoritish imkonini beradi.

Ba'zan xalq donishmandligining noyob namunasi sanalmish maqollarni o'rganish ham shaxsni diagnostika etishning eng maqbul vositalaridan biri sanaladi. Hattoki bu borada xorijiy psixologlar XX asrning 50-yillaridayoqmaqol va aforizmlarga asoslanib shaxsni baholash metodikalari ishlab chiqilganligi diqqatga sazavordir. O'zida 130 ta tasdiqni mujassamlashtirgan B.M.Bassning «Mashhur o'g'itlar» testi (B.M.Bass, 1956) ushbu testlar toifasiga kiritiladi. Bu test natijalari omilli tahlil qilinadi va shaxsning xulq-atvoriga mos keluvchi xususiyatlar ajratib olinadi.

Shaxsni baholashning maqbul vositalaridan biri «vaziyatli testlar» hisoblanadi. Ushbu testlar ikkinchi jahon urushidan so'ngra keng tarqalgan bo'lib, unda tekshiriluvchilarga vaziyatlar orqali ta'sir ko'rsatiladi. Natijada hosil bo'lgan javob reaksiyasiga ko'ra shaxs baholanadi. Dastlabki, vaziyatli testlarni G.Xartshorn, M.Meye va uning hamkasblari (H. Hartshorne, M.A.May) tomonidan ishlab chiqilgan. Ular taqdim qilgan testlar bolalardagi xarakterning tabiati va rivojlanishini tadqiq etishga qaratilgandir.

Yana bir guruh metodikalarda shaxsning o'zini va atrofdagilarni ko'rishga, atrof muhitni qanday idrok etishga bag'ishlangan. Bular shaxs konstruktleri

deb ataladi. Shaxs konstruktlari borasidagi izlanishlarda amerikalik psixolog G.A.Kelli va uning hamkasblarining ulushi yuqori.

Bugungi kunda o'zbek muhitida shaxsni o'rganishga doir bir qator metodiklar mavjud. Ulardan keng ko'lamda taqdiqotlar ishlatilib kelinayotgan va aprobatsiyadan o'tganlari sarasiga R.B.Kettelning "Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish so'rovnomasi", G.Yu.Ayzenkning "Ekstraversiya- introversiya va neyrotizmni o'rganish so'rovnomasi", L.T.Yampolskiyning "Psixodiagnostik testi", Minnesoti shaxsni ko'p omil yordamida o'rganish so'rovnomasi (SMIL, L.Sobchak modifikatsiyasi), K.Leongard va Shmeshik so'rovnomasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Shaxs qiyofasini o'rganish

Inson xulq-atvorining prognozlash masalasini hal etishda ikkita tushunchaga murojaat etiladi: profil va undan kelib chiqqan holda «xislatlar». Ushbu tushunchalarni qo'llashda individga, unga har xil xislatlarni mujassamlashuviga ko'ra turli talablar qo'yiladi: vaziyat, asosiy sinchkovlik va diqqat, «e'tiborlilik-e'tiborsizlik». «batartiblik- ehtiyotsizlik», odamlar bilan uchrashish yoki tanishish asnosida muomalag kirishimlilik-odamovilik», hozirjavoblik-betgachoparlik.

Psixologiyada har xil vaziyatlarga ko'ra xislatlar ifodalanadi. Shu sababli psixologiyada eng asosiy xislatlarni yoki universal deb nomlanadi.

Bunday xislatlar psixologiyada «temperament xossalri» sifatida faoliyatning umumiy dinamik tuzilishini ifodalovchi funksional tushunchalar hisoblanadi (Merlin V.S.1975) yoki «asab tizimi xususiyatlari substonsional tushunchasi (B.M.Teplov, 1961, Nebilisin 1966).

Ijtimoiy, kasbiy taraqqiyotning darajasiga ko'ra ular xarakter xislatlari tarzida baholanadi (N.D,Levitov, 1960. B.G.Ananyev).

Psixik boshqaruvning uch darajasi:

-organik

-individlik

-shaxslik (V.V.Stolin, 1983).

Qiyofa inson xulq-atvorining integral dispozisiyada organik, ijtimoiy me'yoriy va shaxslik harakat tizimi ostida mujassamlashgan holati sifatida qaraladi.

- Konstitusioan-organizm xossalari shartlovchi va maksimal kengvaziyatlar uchun cheklangan.
- Individlilik-ijtimoiy me'yoriy vaziyatlarga ma'lum nisbiylik beruvchi hayotiy faoliyat tajribasini shartlaydi.
- Shaxslik-o'zining xulq-atvorini loyihalash va tahlillash asosida ichki muhitini shartlaydi.

Konstitusional dispozisiyada temperament?

V.S.Merlin «Ocherki teorii temperamenta» kitobida «Temperament belgilari to'g'risida turli mualliflar xilma xil qarashlarga ega ekanligini qayd etib o'tdi. A.Ben (1886) yil Temperament keraksiz, o'rganishga hojat qolmagan muammo sifatida qaradi. A.F Lazurskiy esa A.Benning fikrlarini tasdiqladi va temperament haqidagi ta'limot o'z davrini yashab bo'ldi degan xulosani berdi.


Differensial psixofiziologiyada bu borada anchagina ishlar qilingan bo'lib, yangiliklarga asos solindi. Natijada keng tatbiq etishga yaroqli psixodiagnostik metodikalar paydo bo'ldi.

Strelyauning (Polyak psixologi) «Temperamentni o'rganish test-savolnomasi» psixofiziologik konsepsiyaga asoslanadi (Pavlov-Teplov). Test-so'rovnoma 134 savoldan iborat bo'lib, birinchi shkalada 45, ikkinchi shkalada 44 va uchinchi shkalada 45 ta savol mavjud.

G.Yu.Ayzenkning I.P.Pavlov va K.G.Yung qarashlarini birlashtirib, individuallikning ikki asosiy parametrini ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi: «ekstraversiya-introversiya», «neyrotizm-emosional barqarorlik».

Ushbu so‘rovnoma 57 savoldan iborat bo‘lib, unda:

- Ekstraversiya-introversiya-24 ta savol.
- Neyrotizm-barqarorlik –24 ta savol.
- Yolg‘on –ochiqlik-9 ta savol.




Zamonaviy psixodiagnostikada temperamentni o‘rganish borasida izlanishlar ham ijtimoiy, ham konstruktiv dispoziysialarni qamrab olishga harakat qilingan. Bu borada B.M.Rusalov «Temperament strukturasi o‘rganish» testini taqdim etgan. Ushbu test tarkibida 9 ta shkala mavjud: 1) erg; 2) sosial erg; 3) temp; 4) sosial temp; 5)plastiklik; 6) sosial plastiklik; 7)emosionallik; 8) sosial emosionallik va 9) nazorat shkalasi

1. Psixodiagnostik tadqiqotlarda shaxs to'g'risida yetarlicha va ob'yektiv ma'lumotlar olishga erishish uchun qilinadigan urinishlar o'zbek mutaxassislarini psixologik amaliyotda ma'lum o'ringa ega bo'lgan metodikalarni modifikatsiya qilishga undamoqda. Chunki, ishonchli metodikalar o'zining yetarlicha konseptual asosiga egaligi bilan birga boshqa shaxsni o'rganishga mo'ljallangan psixodiagnostik metodikalarni to'ldirishi va ularni mazmunan boyitishi lozim bo'ladi. Quyida so'z boradigan metodika jahon psixologiyasida yetakchi o'rin egallagan (MMPI, 16-faktorli shaxs so'ronomasi, ekstraversiya-introversiya va neyrotizmni aniqlash) shaxstestlarini modifikatsiyalash asosida rus olimlari (L.T.Yampolskiy va Melnikovlar) yangi ko'rinishdagi «Psixodiagnostik test» ishlab chiqdilar. Ushbu test yuqorida sanab o'tilgan testlarning barchasidagi mavjud jihatlarnimujassamlashtirgan bo'lib, ularning amalga oshirish lozim bo'lgan shaxs xususiyatlarini yoritishga yordam beradi. Chunki bizning muhitimizda MMPIning 566 savolli varianti bo'yicha modifikatsiya mavjud emas, R.B.Kettellning 16-faktorli shaxs so'rovnomasining 100 ta savolli varianti mahalliy sharoitimizda qo'llanilib kelinmoqda, uning 187 ta savollivarianti uchun hali psixometrik talablarga javob beruvchi versiyasi mavjud emas. Bugungi kunda G.Yu.Ayzenkning «Ekstro-introversiya va neyrotizmni aniqlash» metodikasining ayrim variantlaridan psixologik tadqiqotlarda foydalanilayapdi.

Psixodiagnostik test tarkibidagi savollar 14 ta shkalaga mujassamlashtirilgan bo'lib, ulardan 10 tasi quyi shkala va 4 tasi yuqori shkala hisoblanadi. Quyi shkala tarkibiga neyrotizm (1) (**neyrotizm**- shaxsning emosional beqarorligi, bezovtalanishi, o'ziga past nazar bilan qarashi, vegetativ buzilishlarini tavsiflovchi holatdir.), psixotizm (2) (**psixotizm shkalasi** esa shaxsning xulq-atvoriga mutanosibligini tekshirishga qaratilgan.), depressiya (3) (**depressiya** shaxsdagi salbiy emosional fonni, motivatsiyasidagi o'zgarishlarni, kognitiv (bilish) tasavvurlari va xulqidagi umumiy passivlikni ifodalaydi.), vijdonlilik (4) (**vijdonlilik**

shkalasi shaxsni ijtimoiy norma va etika talablariga hurmatini, o'zini o'zi nazorat qilishi, vijdoni va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini belgiladi), turg'unlik (5) (**turg'unlashuv shkalasi** shaxs xulq-atvorining vazminlashganligi va ijtimoiylashganligi mujassamlashgan), umumiy faollik (6) (**umumiy faollik** shkalasi shaxsning kuchi, quvvati va umumiy faollik darajasini o'lchovchidir), tobelik (7) (**jur'atsizlik, uyatchanlik shkalasi** bu jur'atsizlik, kuchlilik va shaxslararo munosabatdagi cheklanganlikni xarakterlaydi), muomalaga kirishimlilik (8) (**muloqotmandlik shkalasi** shaxsning muloqot jadalligi va ko'lamini belgilaydi), estetik taassurotchanlik (9) (estetik taassurotchanlik esa shaxsni estetik va badiiy qadriyatlarga sezgirligini aniqlaydi) va nazokatliliklar (10) (**nazokatlilikda** shaxsning madaniyat va jamiyat ko'rsatmalariga nazokatlilik bilan yondashishi o'z ifodasini topadi) kiradi. Yuqori shkalani esa psixik beqarorlik (11) (psixik beqarorlik shkalasi shaxsdagi nevrotizm, psixotizm, depressiyani mujassamlashtirib, psixik beqarorlikni umumiy tarzda baholashga yordam beradi), asosiallik (12) (**asosiallik** yordamida shaxsning ijtimoiy ko'nikishi baholanadi), introversiya (13) (**introversiya shaxsning** ijtimoiy munosabatlarga bog'lanishini) va senzitivlik (14) (**senzitivlik** esa shaxsning emosional kechinmalardagi nozik tomonlarni tafsilotini aniqlashga mo'ljallangan) tashkil etgan.

Agar ularning sxematik ko'rinishini keltirib o'tadigan bo'lsak quyidagi ko'rinishni oladi:



Yuqori shkalaning tashkil etuvchilar o'z tarkibiga quyi shkalaning bir qator shkalalarini o'zida qamrab oladi. Psixologik testlarning muhim xususiyatlaridan biri ularda nazorat shkalasi, ya'ni tekshiriluvchilarning javoblarini ob'yektivligini baholash xarakteriga egaligidir. Mazkurpsixodiagnostik testning nazorat shkalasini yuqori shkala bajaradi. Agar quyi shkala natijalari bilan yuqori shkala natijalari orasida mutanosiblik bo'lmasa natijalarning haqqoniyligi pastligidan dalolat beradi.

1.7. SHAXSLARARO MUNOSABAT PSIXODIAGNOSTIKASI

Shaxslararo munosabat muammo psixologik tadqiqotlarda turli umumiy psixologik, pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazardan o'rganilganligi juda ko'p tadqiqot predmeti va ob'yektlarini tahlil etish jarayonida kuzatiladi. Bu borada Amerikalik olim E.Bernning transakt tahliliga konsepsiyasining markaziy tushunchalarini yodga olish lozimdir. Shaxslararo munosabatning bir necha aloqa yo'llari, ya'ni voyaga yetgan kishi-voyaga yetgan kishi (V-V), ota-ona-ota-ona (O-O), bola (farzand) – bola (farzand) munosabatlarining o'ziga xos tavsifi berilgan. Ularning o'zarobog'lanishlari, ya'ni Ota-ona – farzand (O-O $\rightleftharpoons$ F) munosabat tizimi bilan bog'liq, chunki transakt munosabat tizimiga ko'ra bolaning ijtimoiylashuvida ota-ona tarbiyasining o'rni muhimligi va bu tarbiya ta'siri saqlanib qolishi ta'kidlanadi. Transakt munosabat tizimiga ko'ra har bir shaxs Menida bir qator holatlar bo'lib, ular ota-onasi Menidagi holatlarni takrorlanishi ekan. Shu sababli ham oila muhitidagi tarbiyada ota-ona tomonidan o'tkaziladigan ta'sirlarning muhimligi farzand xulq-atvori tasavvurida shakllanishi lozim bo'lgan ijtimoiy timsollarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxslararo munosabatni ijtimoiy psixologik jihatdan o'rganishda uni katta sosial guruhdan (millat, ishlab chiqarish jamoasi) boshlab, intim, diada munosabatlari (er-xotin, ota-ona-farzand va boshqalar)dan iborat keng tadqiqot maydoniga ega. Shu sababli ham ushbu doiradagi muammolarni o'rganishda psixologiyada konkret metodikalar mavjud. Shaxslararomunosabatni psixodiagnostikasiga doir metodikalar tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularga har xil asoslar bo'yicha yondashish mumkin:

- tadqiqot ob'yektiga ko'ra (guruhlar orasidagi munosabat, guruh ichidagi jarayonlarni o'rganish, diada munosabatlari va boshqalar);

- tadqiqot hal etishi lozim bo'lgan vazifalariga ko'ra (guruhdagi jipslikni, hamkorlikni va boshqalarni o'rganishga qaratilgan);

-tadqiqot metodikalarining tuzilish xususiyatiga ko'ra (savolnoma, proyektiv metodika, sosiometriya va boshqalar);

-shaxslararo munosabat diagnostikasini o'rganishni hisobga olganda(sub'yektiv munosabatlarni o'rganish metodikasi, munosabat ishtirokchining shaxslik xususiyatlarini o'rganish metodikasi, shaxslararo munosabatdagi sub'yektiv xususiyatlarni o'rganish metodikalaridan iborat).

Tadqiqotimiz maqsad va vazifasidan kelib chiqib, muammoni amaliy jihatlarini o'rganishga qo'l keluvchi metodiklarni saralashga harakat qilib, bir qator shaxslararo munosabatni o'rganish metodikalarini mazmun va mohiyatini tahlil etishtirish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Tadqiqot muammosiga ko'ra shaxslararo munosabatni amaliy o'rganish metodikalari inson hayotining turli jabahalarini qamrab olganligi va har xil psixologik determinantlar ta'sirida bo'lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ham aniq metodikalar o'zining tadqiqot chegarasiga ega, agar undan foydalanish zarurati tug'iladigan bo'lsa, metodika bilan bog'liq "devalidizatsiya" tadbirini amalga oshirish lozim. Bir-birini yaxshi tanishlarga guruhida sosiometriyani o'tkazish ancha qo'l kelishi psixodiagnostika amaliyotida o'z isbotini topgan usul va hattoki uning bugungi kunda 4000mingga yaqin modifikatsiyasi amaliyotda qo'llanilayotganligi qayd etiladi. Ammo byuu metodikanii turli xil shaxslararo munosabatni bilish darajasida tatbiq etish qiyinchilik tug'diradi. Ammo sosiometriya oilaviy munosabatlarni tadqiqi etishdan ko'ra, o'quvchilar, sportchilar va ishlab chiqarish jamoalaridagi ma'lum munosabat xususiyatlarini, guruhning jipsligi, guruhdagi muloqotga moyillik va guruh a'zolarining ijtimoiy mavqeini baholashda qo'llanilgan ()

Yana bir holatni aytib o'tish lozimki, shaxslararo munosabatni amaliy o'rganish metodikalarida guruhdagi motivatsiyaning shakllanganlik va psixokorreksiya maqsadlarda foydalanishi bilan ajralib turadi. Yuqorida shaxslarararo munosabatni amaliy o'rganish vositalarini tahliliga ko'ra bayon etilgan metodikalarning xususiyatdan kelib chiqib, ma'lumotlarga murojaat

qiladigan bo'lsak, Dj.Morenning sosiometrik testi shaxslararo munosabatni sub'yektiv tanlashi asosida diagnostika qilishga mo'ljallangan. Ma'lum guruhdagi shaxslarning bir-birini o'zaro tanlashiga tayanishi (ish, dam olish va boshqalar). Sobiq sovet psixologiyasida metodika bilan bog'liq yetarlicha tadqiqotlar olib borilgan. Sosiometriyaning bugungi kunda tatbiq etilgan yangi modifikatsiyalari mavjudki, ulardan biri autososiometriya metodikasi deb nomlanadi (Danilin K.Ye.). Bu modifikatsiyada shaxslararo munosabat respondentlarning o'zlari tomonidan insonlarning bir-biriga va o'ziga munosabatini aniqlanishi ko'zda tutilgan. Ushbu metodikaning Kolominskiy Ya.L. tomonidan modifikatsiya qilingan bolalar varianti ham mavjud bo'lib. U bolalar guruhini a'zolarini bir-biriga munosabati, sosial statusini, sosial ustanovkasini, o'zaro munosabat jarayonida tengdoshlarini kechinmalarini va ularning o'zaro bir –birlarini tushunish darjasini o'rganishga erishish mumkin. Ammo yuqoridagi metodikalarning alohida kamchiligi sifatida qaraladigan bir tomoni mavjud deyish mumkin. Ularning ko'pchiligida shaxslararo munosabatda sub'yektiv baholash yetakchi o'riga chiqib qolmoqda.

O'z o'rnida oldin tahlil etilgan holatlardan farqli o'laroq ikkinchi inobatga olinadigan guruh metodikalari shaxslararo munosabatni chetdan baholash metodikasi hisoblanadi. Bu borada bugungi psixologik tadqiqotlarda hamda psixodiagnostikada hali yetarlicha tajriba mavjud emas.

Bu borda insonlarning prosemik xulq-atvoriga qonuniyatlariga asoslangan, eng ahamiyatga ega bo'lgan metodikalardir. Proksemika insonning psixologik zonasi haqidagi tadqiqot sohasi hisoblanadi. "Proksemika" tushunchasini amerikalik antropolog Eduard T. Xoll tomonidan fanga olib kirilgan. Insonning fazoviy maydoni 4 zonaga bo'lingan: intim, shaxsiy, sosial va ijtimoiy. Bu toifa tadqiqot metodikalarining o'ziga xosligini sub'yektlarni notanish yoki boshqa guruhdagi kishilar bilan munosabati sharoitida o'zini tutishi va boshqarishi hisobga olinib baholashga tayaniladi. Bunda ularning munosabati masofasi inobatga olinadi.

Bugungi kun psixologik amaliyotda tadqiqotlar “shaxs maydoni” fenomeniga ko‘ra o‘rganish vositasi uch kategoriyaga tayanib ajratiladi:

1. Real vaziyatlarni kuzatish texnikasi;
2. Real vaziyatni modellashtirish texnikasi;
3. Proyektiv vositalar. (A.A.Bodalev).

Ammo biz olib borayotgan tadqiqotda oiladagi shaxslararo munosabatni ushbu faoliyat texnikalari alohida vaziyatlarni tashkil etish oilaviy munosabatlarni o‘rganishda ancha murakkablik tug‘dirishi tabiiy.

Amaliyotda shaxslararo munasabatlar haqida ishonchli ma’lumotlar olishda kuzatish metodikasi ancha ishonchli ekanligi ko‘p bora ta’kidlanadi.

Sobiq sovet psixologiyasi va mamlakatimiz psixologiyasida proksemik xarakterdagi tadqiqotlarga doir metodikalarni juda kam uchratamiz. Ammo xorijiy psixologiyada ikki kishining proksemik xulq-atvori kuzatuvchilar tomonidan tadqiq etilganligi (Sronje E, Moller A.), xuddi shuningdek tadqiqot guruh a’zolarining proksemik xatti-harakatlari vidioplenkada yozib olish va so‘ngra ishtirokchilarning xatti-harakatlari muhokama qilinish orqali o‘rganiladi (Peterson K., Draper D, Roscol).

Dj. Kyutning shaxslararo munosabatni simvolli modellashtirish metodikasida respondentlarga har xil masofada joylashgan stol va stullar fotografiyalar to‘plami taqdim etiladi. Respondentlardan ulardan eng komfort joylashganligini tanlash taklif etiladi. Ushbu metodikaning boshqa variantida esa respondentlardan ancha follikni talab etadiki, ularning o‘zlari vaziyatlarni tuzib chiqishlari lozim bo‘ladi. Vaziyatlarni hosil qilishda odamlar va o‘yinchoqlar hamda boshqa ob’yektlardan foydalanadilar. Bu yerda simvollar, ob’yektlarni joylashuviga muallif insonlar o‘rtasidagi masofaga qarab munosabatlar to‘g‘risida xulosaga keladi.

Bu borada yana bir qator metodikalar mavjudki, ularda kuzatish va talqin etishning ekspert baholash usuli, situatsiyali test (R.Beyls), ota-ona-bola interaksiyalari (Mash E, Terdo L), hamkorlik, lidirlik, raqobat va kooperatsiyani diada ko‘rinishda o‘rganish uchun maxsus to‘plamlarni taxlash

o'yini (M. Doych va R.Kraus), diada shaklidagi o'zaro ta'sirlashuvni o'rganish uchun "Tutqun diyellimmasi" o'yini orqali kooperativ va raqobat xulqlarga xostanlanmani bajarish taklif etiladi va baholanadi (M.Kelley).

Bundan tashqari shaxslararo munosabatga ta'sir etuvchi individualxususiyatlarni diagnostikasi doirasida ham bir qator metodikalar psixologik amaliyotda qo'llanib kelinayotganligi sir emas: shaxsni psixologik o'rganish Kaliforniya so'rovnomasi va T.Liri metodikasi.

Amerikalik psixolog Dj.Goux tomonidan taqdim etilgan shaxsni psixologik o'rganish Kaliforniya so'rovnomasining maqsadi-ma'lum vaziyatlarga odamlar qanday qaraydilar va bu haqida nima deyishlari orqali shaxsning sosial psixologik xarakteristikasi yoritiladi. Savolnoma 480 ta savolda iborat bo'lib, 18 ta shkaladan iborat standart me'yorga ega. Savolnoma shkalalari tahlil etish vaqtida to'rt guruhga birlashtirilib interpretatsiya qilinadi.

Dastlabki 6 shkala birinchi guruhga kirib, ularda shaxslararo munosabatdagi muvozanatlashganlik, o'ziga ishonch va adekvatlikni baholashga qaratilgan.

Ikkinchi guruh shkalalari shaxsning yetukligi va sokiiallashuvini, uning mas'uliyati va shaxslararo qadriyatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, bu guruhda ham 6 ta shkala mavjud. Uchinich guruhdagi shkalalar insonning erishganlik va kamoloti, uning intellektula imkoniyatlarini baholaydi, Undakomformlik, mustaqillik va intellektual samaradorlik shkalalari mujassamlashgan. To'rtinchi guruhga psixologik xususiyatga egalik, egiluvchanlik va nazokatlilikdan iborat uchta shkala o'rin olgan bo'lib, omadlilikki tuyg'usi, yaxshi taassurot va odatlikka xoslikni baholaydi.

Keyingi test batareyasi T Liri :

Oktantlar quyidagi psixologik tendensiyalarni xarakterlaydi

1. Liderlikka moyillik, hukmronlik, zulmkor.
- II. O'ziga ishonch- o'zini yaxshi ko'rish.
- III. Talabchanlik.

- IV. Ishonchsizlik (skeptizm)- qaysar-salbiylik (negativizm)
- V. Yon berishlik-bezor-passiv bo'ysunuvchanlik.
- VI. Ishonuvchanlik-itoatkorlik-tobelik.
- VII. Ko'ngilchanlik-mustaqil emas, haddan tashqari yon beruvchi
- VIII. Rahmdillik-beg'arazlik-fidokorlik.

Shuningdek shaxslararo munosabatni o'rganishga doir proyektivmetodikalarning ahamiyati katta ekanligini e'tirof etish maqsadga muvofiq, chunki oilaviy munosabatlardagi buzilishlarni diagnostikasini o'rganishda Rorshashning hamkorlik testi, bola shaxsini o'rganishda qo'llaniladigan "Oila rasmi" metodikasi, munosabatlarni o'rganish rang testi (metodika V.N Myasim'yevning munosabat konsepsiyasi va B.G.Ananyevning psixik tuzilmalarning timsolli tabiati g'oyasi va A.N.Leot'yevning shaxsning mazmunga egalik haqidagi tasavvurlari asos qilib olingan). Metodikani yaratishda M.Lyusherning sakkiz rangli testidagi ranglar to'plamidan foydalanilgan

Yu.Ya. Rijonkinning kommunikativ distansiyani (oraliqni) aniqlash metodikasi (KDM) esa turli xil guruhlardagi shaxslararo munosabat oraliqlarini o'rganish imkonini beradi.

Metodika foydalanish uchun ancha qulay va sodda bo'lib, tekshiriluvchilar uchun ortiqcha muammo tug'dirmaydi. Bu voqelikni uning umumiy tavsifidan payqash mumkin. Metodika muloqotdoshlarni ma'lumot ayriboshlash jarayonida bir-biriga o'zaro ta'sirlashuvi, mazkur jarayonidagi oraliqqa aniqlik kiritadi. Buning uchun muomala ishtirokchilari bir-biriga qanchalik yaqin yoki uzoq turishi hamda o'rtadagi kommunikativlik (kommunikator va resipiyent) rolini aniqlashda bir qator topshiriqlarni bajarishlari lozim.

Shaxslararo munosabat psixodiagnostikasidagi metodiklar xilma xil va ko'pligi bilan boshqa yo'nalishdagi testlardan ajralib turadi.

1.8. PROYEKTIV METOD

Proyektiv psixologiya tarixi yarim asrlik tarixga ega bo'lsa-da, undan oldin ham baʼzi olimlar inson proyeksiyalari masalasiga to'xtalib o'tganlar. Ularning qarashlari proyektiv psixologiya haqidagi klassik nazariyalar hisoblanadi. Proyektiv testlar masalasiga tuxtalishdan oldin proyeksiya tushunchasi mazmuniga e'tibor berish lozim. Proyeksiya tushunchasi dastlab, Z.Freyd tomonidan shaxslarning ongli va ongsiz tarzda kuchirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashki obyektlarga nisbatan munosabatini ifodalash uchun kullangan. Proyeksiya lotincha «proektio» suzidan olingan bo'lib, oldinga irgitish, tashlash ma'nosi bildiradi. Proyeksiya baʼzida insonning mexanizmi bilan, ichki ximoya kuch sifatida namoyon bulishini Freyd ta'kidlaydi. Proyeksiya sublimatsiya, rasionalizatsiya, foriglanish kabi tushunchalarni ham kamrab oladi. G.S. Frimen insondagi proyeksiyalarni shunday izoxlaydi.

1. Ongsizlik holati, ya'ni insonning bu holatda boshqa kishilarning g'oya, qarash, istak, emosiya yoki xarakter xislatlarini o'ziga olishi sifatida.

2. O'z shaxsiy ehtiyojlarini boshqalarga kuchirish sifatida.

3. Qandaydir tajribaga asoslangan noto'g'ri xulosa chiqarish sifatida qaraydi.

Bundan tashqari baʼzi olimlar aynan proyeksiya suzini kuyidagicha ifodalaydilar. Proyeksiya - voqelikni, insonlarni, namoyon qilingan stimullarni idrok etish muayyan darajada shaxsning psixik holati, ehtiyojlari, xususiyatlariga mos ravishda tafsiflash tendensiyasi mavjud. Proyeksiya—anglanmagan psixologik mexanizm sanaladi, ya'ni proyeksiya elementlari ongsiz tarzda idrok qilinadi. Bu holat klinik tadqiqotlar, psixoterapiyaviy izlanishlarda ham yaqqol ko'zga tashlangan. Chunki proyektiv testlarga berilgan dastlabki ta'riflar klinik nuqtai nazardan berilgan. Proyeksiya suzli assosiyasiyalar, tugallanmagan so'zlar, rasm va dog'lar, tekshiriluvchilar chizgan rasmlar, turli qo'zg'atuvchi stimullardan iborat. Lekin proyektiv metodikalar ildizi 1904-1905 yilda K.Gustav Yung tomonidan

yaratilgan soʻzli assosiyasiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish bilan Yung shaxsning ongsizlik holatlaridagi kechinmalarini assosiativ diagnostika qilish mumkinligini koʻrsatib berdi. Keyinchalik assosiativ testning turli variantlari aybdorlik xissini aniqlashda (yolgʻon detektori) M.Veyrtgaymer va A.R.Luriya tomonidan normani patologiyadan ajratish va boshqa vaziyatlar uchun qoʻllanilgan. Proyektiv testlar katoridagi tugallanmagan xikoya yoki gap testi ham Yungning assosiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Bundan tashqari Yevropaning klassik psixologiya maktabi vakillari Frenk, G.Rorshax, G. Myurrey kabi olimlarning xissasi proyektiv testlarni kelib chikishiga keng ahamiyat kasb etadi. Yukorida aytilgandek dastlabki proyektiv testlar klinik xarakterda tadbqiq etilgan. Proyektiv psixodiagnostikaning yuzaga kelishi G.Rorshaxning 1921 yilda Germaniyaning Bern shaxrida chop etilgan «Psixodiagnostika» asari bilan boglanadi. Oʻzi rassom bulishiga karamay Rorshax sanat va rassomchilik tarixiga juda kizikkan .Unga maʼlum bulishicha,buyuk rassom Leonardo Da Vinchi uz xayolini osmondagi bulutlar, ulardagi turli shakllarni uzok vakt davomida kuzatish va ularni tahlil qilish orqali mashq kildirgan.Bu xususiyatyaʼni atrofimizdagi «predmetli dunyoni jonlantirish»barchaga, ayniqsa rassomlar va yosh bolalarga xos bulgan xususiyatdir deb karaldi. G.Rorshax talkiniga kura siyox doglari, yaʼni kurishga yunaltirilgan siyox doglari motor (xarakat) fantaziyalarini jonlantiradi. Rorshaxdan avval siyoh dogʻlari bilan boshqa olimlar asosan Rossiyada F.Ye. Ribakov, Fransiyada A.Bine va Vallon Anrilar tadqiqot olib borganlar.Birok Rorshax birinchi boʻlib fantaziya obrazlarini shaxsning sifat va xislatlari bilan alokasini isbotlab berdi. Rorshaxning tadqiqotlari gʻoyasi bugungi kunda ikki yirik yunalishlarda AQSH (Beek Klopfer, Davidson Rapoport) va Yevropada (Bohm, Doosli-Listeri) bilan urganilmokda.Rossiyada Rorshax testini oʻrganishga urinishlar XX- asrning 20-30 yillariga toʻgʻri kelib,u asosan shaxsning anomal xususiyatlarini aniqlash,nevroz va psixopatiyalar diagnostikasida, shuningdek epilepsiya (tutkanoklik) kasalligini tadvkik qilishda foydalanilgan.

Shuningdek 1935-1939 yillarda kuppina proyektiv testlar yaratilib psixoterapiyada keng kullanilgan. Bunda turli xil kasalliklar va tramvalarning shaxs psixikasiga taʼsiri ,kasallik va sogʻlomlik urtasidagi alomatlar urganilgan. Shular katorida 1935-yillarda jurnallarda chop etilgan tematik appersepsiya testi (TAT)ni kiritish mumkin. Bu test kelib chikishiga koʻra fantaziyani eksperimental oʻrganish metodikasi sifatida yuzaga keldi .Uning muallifi G.Myurrey hisoblanib, Rorshax testi singari kelib chikish tarixi mavjud. Bunda shunday masala yuzaga keldi, pedagog va psixiatrlarga tekshiruvchilar uchun maxsus tanlab olingan syujetli rasmlar asosida tuzilgan xikoyaga karab, insonning kizikishlari ,mayllari haqida xulosa chiqarish mumkinligi oldindan maʼlum boʻlib, baʼzida esa psixikaning kasallik holatini ham aniqlash imkoni mavjud edi. Bir qarashda TAT fikri Rorshax gʻoyasiga karaganda ancha sodda va aniq kurinar biroq, bunda muallifning kaxramonlari takdiri va rasmlari toʻgʻrida-toʻgʻri aks etadi-yu, baʼzilari karama –karshi maʼno aks etishi muammo tugdiradi . Utgan asrning buyuk ertakshunoslari yozgan ertaklari mazmuni ham proyektiv xarakterli hisoblangan .Bu esa bolalarning turli xil psixologik xususiyat va holatlarini oʻrganishda kul kelgan. Fransiyada Sh.Perro, Germaniyada aka-uka Grimlar juda kup proyektiv xarakterli ertaklar yaratgan. Bunga misol kilib

«Kizil shapkacha», «Uxlab yotgan parizod», «Dono kiz» , «Buri bilan echki», «Kor malikasi», kabi ertaklarni keltirish mumkin. Aynan, ushbu ertaklar ham proyektiv testlarning kelib chikishiga sabab bulgan degan maʼlumotlar mavjud

. Bundan farkli ravishda proyektiv testlar masalasi va proyeksiya tushunchasi psixologiyaning bir qancha sohalarida baxsbop boʻlib bulgan. Shu jumladan eksperimental psixologiya , analitik psixologiya, xolistetik psixologiyadakeng tadkik qilingan . Analitik psixologiyada aynan ertakli proyektiv testlar orqali bolalarning ongsizlik holatlarini tadkik etish keng yulga kuyilgan. Bugungi kunda bu ertakli terapiya nomi bilan gʻarbda mashhur sanaladi. Umuman olganda proyektiv testlar masalasi baxsbob masalaga aylanib ,u olimlar urtasida turlicha fikrlar va qarashlarni keltirib chikardi. Z.Freyd

fikriga kura proyektiv testlar mazmunan ongsizlikni ifodalaydi shu bilan birga instinktiv xarakter kasb etadi. Xolistetik psixologiya vakillari proyeksiya masalasiga boshqacha nazar bilan karab ,u insonning subyektiv yoki ichki dunyosi bilan boglikligini taʼkidlaydi , bu esa insondagi strukturaliyashirin maksadlar borligini ifodalaydi . Aynan shu holat barcha kishilarda

«shaxsiy dunyo» deb ataladi. Bularga karshi ravishda eksperimental psixologiya vakillari proyeksiya va proyektiv testlar masalasiga uzgacha karagan .Bunga kura proyeksiya tushunchasi nazorat va bilish usuli , idrokli jarayon bilan xarakterlanadi: atributiv proyeksiya , klassik proyeksiya , artistik proyeksiya, rasional «akliy» proyeksiya , munosabatli proyeksiya va similyativ proyeksiya .

Atributiv va klassik proyeksiyalar inson xarakterida uzini anglash bilan vujudga kelib , undan boshlab karama -karshi orttirilishi taʼkidlanadi .Artistik proyeksiyalar idrokning determenantligi va aktual ehtiyojlar paydo bulishi va kondirilishi bilan boglikligi kursatiladi .Bu falsafiy okim bulgan Autizm qarashlarini ham uz ichiga oladi. Rasional proyeksiyalar esa inson xakteri , xulk -atvori va akl-zakovatini mazmunini belgilaydi .Va bu D.Xolmsning proyeksiya tushunchasi klassifikatsiyaga bergan tahlilida keng urin olgan .

Proyektiv psixologiyaning kelib chikishiga V.Vund, F.Galtonlarning tadqiqotlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular Vyursburg psixologiyasida dastlabki eksperimental tadqiqotni utkazganlar.Tadqiqot «Assosiativ suzlar» metodikasi olib borilgan. Bunda shaxslardagi xarakter xususiyatlari urganildi .Lekin , kuplab olimlar fikricha dastlab proyektiv testlarni K.G.Yung ishlatganligi taʼkidlanadi .Yung erkin assosiatsiyalar testi orqali barcha proyektiv testlar xarakterini ochib berdi.Yaʼni bu shaxsni diagnostika qilishni kompleks usuli deb ham tan olindi. 1910-yillarda tadqiqotchilar G.Kent , K.G.Yung, A.Rozanovalar AQSHda shaxslarni favkulodda holatlarda urganadigan stimulli testlar yaratishga kirishdi. Bunda yuz kishidan natijalar olinib ,ulardagi individuallik xususiyati urganildi. Bu metodikagarchi klinik xarakterli boʻlsada ,keyinchalik boshqa olimlarning ham

nazarini torta boshladi. 1946-yilda Rapoport K.G.Yung tadqiqotlaridan kelibchikib 60 ta stimulli suzlardan iborat metodikani yaratdi. Metodika asosida psixoanalitik nazariya yotib, shaxslardagi ichki nizolarni nizolarni faoliyatdagi mental buzilishlarni urganadi.Ba'zi olimlar esa Z.Freyd ning 1909-yilda bosilib chikkan monografiyasi «psixoanaliz asoslari»da proyektiv teslarning dastlabki nazariy asoslari yotishini ta'kidlaydilar .19 asr oxirida va 20 asrning 30-40-yillarida proyektiv testlar va ularning turli yunalishdagi maktablari paydo buldi 1921-yilda G.Rorshax amalga oshirgan ish proyektiv metodikalarni empirik tadqiq qilishning yangi talqini deb nom oldi. Bundan tashqari proyektiv testlar rivoji 1920-yillardan so'ng jadal o'sib bordi. 1939-yilga kelib Frenk fanga xaqiqiy proyektiv metodika tushunchasini qo'lladi. Shundan keyin proyektiv metodikalar turli xil vaziyatlarda va sohalarda keng kullanila boshladi. Masalan tadqiqotchi G.Myurrey, Yung va Rorshax ishlaridan kelib chiqib voyaga yetmagan jinoyatchilarni sirlarini ochishda kul keladigan proyektiv test ya'ni TAT(tematik appersepsiya) ni sud- psixologik ekspertezasida keng kullagan. Garvard psixologik klinikasida ham keng yo'lga qo'yilgan. Bunda sinaluvchilaroshkor etishni xoxlamaydigan yoki yashirib kelayotgan xotiralari ,g'oyalari , kechinmalari ochib berilgan .

Xorijiy psixologiyada keng qo'llanilgan proyektiv metodika bu Lyusherning «Rang testi» bo'lib, u shaxslardagi konflikt, agressivlik,shaxslararo munosabatdagi kelishmovchiliklar shu bilan birga isonlarning ranglarga munosabatini aniqlashga keng imkon bergan. Bundan tashqari ushbu test sog'lomlik va kasallik urtasidagi tafovutlarni aniqlashda ham kulay metodika hisoblangan.Lyusher fikricha inson proyeksiyalarini ranglar bilan ham yorkin bilish mumkin. Chunki xar bir kishi uzi yoktirgan va yoktirmagan ranglari bilan uz xususiyatini belgilaydi deb ta'kidladi. Keyinchalik proyektiv testlarning noverbal variantlari keng tarkala boshladi .Shular jumlasida geometrik figuralar testi ,uz ramini chizish ,manzaralar kursatmasi ,orqali insonlarning xissiy olami ,ijodiy qobiliyatlari haqida

maʼlumot olingan. Test talabiga kura obyektiv mazmun kasb etgan.Chunki berilgan yuriknomalar bu holatni taʼminlashga xizmat kilgan. Bugungi kunga kelib proyektiv testlarning yangi modifikatsiyalari psixolog olimlartomonidan kuplab yaratilmoqda .

Proyektiv metodiikalarning klassifikatsiyasi

Biz quyidagi paragrafda proyektiv metodikalarning klassifikatsiyasi xususida toʻxtalib oʻtamiz. Proyektiv metodikalarni tatbiq etish jarayonida ularning klassifikatsiyasi bir qator jihatlarni inobatga olishni talab etadi. Quyida klassifikatsiyaga doir keltirilgan ayrim yondashuvlar ustida toʻxtalamiz.

Mashxur psixolog olim L.Frenk barcha proyektiv testlar toʻgʻrisidagi nazariy va amaliy maʼlumotlarni uzlashtirib ,ularning yangicha klassifikatsiyasini yaratdi(10.32-38 betlar).Uningcha xar bir turdagi proyektiv test aloxida mazmun kasb etib ,uziga xos tahlilni talab etadi.Metodikalarni guruhlariga bulish ,tadqiqot natijalarini tahlilini osonlashtiradi vatadqiqotchiga kulaylik olib keladi Bugungi kun amaliyotida proyektiv testlarning bir qator turlari qoʻllanilib kelinmoqda:

- Konstitutsiyaviy metodlar.
- Konstruktiv metodlar .
- Interpretasion metodlar .
- Katartistik metodlar .
- Eksprissiv metodlar.
- Imprissiv metodlar .
- Additiv metodlar .

Yukoridagi xar bir testlar turiga alohida proyektiv metodikalar kirib, ular turlicha mazmun mohiyatga ega.

1.Konstitutsiviy xarakterli proyektiv testlar katoriga «Tugallanmagan suzlar», «Tugallanmagan rasmlar» testlari kirib, oʻtkazilish texnikasiga kuraturli situatsiyali (vaziyatli) strukturalardan iborat. Metodika materiallari

amorf xarakterga ega bo'lib, tekshiriluvchilardan asosan mantiqiy muloxazalashni talab etadi. Ushbu metodikaning muallifi Saksa Levi hisoblanib, test ommabop testlar katoriga kiradi. Muallifdan oldin ham ushbu metodika, eksperimental psixologiyada kullanilgan. Yuqoridagi variantini esa Saks va Levilar yangi variantda tuzganlar. Metodikada 60 ta tugallanmagan so'zlar keltirilgan bo'lib, ular 15 ta guruhga ajratilgan. Metodika savollari orqali shaxsning olaviy munosabatlardagi xulkatvori, uz-uzidagi karama -karshilik chegarasi, seksuaal xarakter xususiyatlari, qo'rquvva xissiy buzilishlar, kelajakdagi va bugungi kundagi orzu istaklari, ota-onasi bilan munosabati shu bilan birga dust yakinlari bilan munosabat mazmuni aniqlanadi. Test o'tkazishda alohida anketa mavjud bo'lib u tekshiriluvchilarni testga tez yo'naltirish xususiyatiga ega. Shu qatorda tadqiqotchi Varttegning «Tugallanmagan rasmlar» testi ham xudi shu xarakterda foydalanniladi.

2. Konstitutsiyaviy xarakterdagi proyektiv metodikalar insonlar va xayvonlar figuralari, modellari orqali shaxs xususiyatlarini tahlil etadi. Bunda rasmlar va figuralar minatyura xarakterida ham ifodalanishi mumkin. Tadqiqot xar bir yoshda aloxida xarakter kasb etadi. Bu esa tekshiriluvchilarni muhitdagi ijtimoiy ximoyasini ochib beradi. Masalan, inson rasmi va xayvon rasmi testning kuprok masalasini tashkil etadi. Metodika tahlilida xar bir figura, kurilish materiali, mozaika modellari va saranjomlik hisobga olinadi.

2. Interpretasion xarakterdagi proyektiv testlar turkumiga TAT (tematik appersepsiya) testi misol bo'lib, bunda masala va topshiriklar illyustrasion xarakterda ifodalanadi. Metodika insondagi kizikishlar, xissiy kechinmalar shu bilan birga ichki imkoniyat va yashirin maksadlarni aniqlaydi. Metodika mualliflari G. Myurrey va Morganlar sanaladi. Metodika Myurrey yaratgan shaxs nazariyasiga asoslanadi. Ya'ni ehtiyojlar shaxsning xulkatvorini, tasavvurlarini, bilish jarayonlarini yunaltiradi va tashkillashtiradi degan tamoyilga asoslanadi. Myurrey bunda barcha ehtiyojlarni psixodinamik

kutilmalar deb atadi. Myurrey barcha ehtiyojlarni vital va psixogen turga ajratadi. Vital ehtiyojlarga –suv-xavo ,psixogen ehtiyojlarga bilish ,sanat,sevgi kabilarga ajratdi. Metodikada 20 ta ehtiyoj kullanilsada lekin,24 tasi farklanadi(6.26-31-betlar).

Myurrey fikricha metodikadagi rasmlarni tekshiriluvchilar ikki xil izoxlaydilar .Mavxumlik aks etgan rasmlarni uz xayotiy tajribalari orqali bajaradilar .Erkak va ayollarga berilayotgan topshiriklar aloxida –aloxida bulishi ham test koidalaridan biri sanaladi.Chunki jinsiy xarakterdagi tafovut rasm guruhlarida aloxida mazmun kasb etadi .

4.Katartistik mazmunli proyektiv testlarga uyin faoliyati bilan belgilanadigan testlar kiradi .Masalan «psixodrama», «ixtiyoriy teatr saxnasi», «terapivtik chikishlar», misol bulla oladi .Buning uchun shart- tanlanishi , uyin texnikasi tanlanadi.Bunda shaxslardagi nizolar ,boshqa insonlar bilan buladigan munosabatlar kurinishi uyin paytida ochik oydin amalga oshiriladi.Bu texnika insonlarni xar kanday vaziyatlarda muommo va holatga uz imkoniyatidan kelib chikib ish tutishiga yordam beradi .Bu psixoterapiyada kup kulanadigan va shaxsni tarbiyalaydigan vosita hisoblanadi.Xox rollar kulgili yoki salbiy obrazli bulsin ,shaxs tipiga mos ravishda ijro etiladi .Bunda shaxsning fantaziya holatlari ham hisobga olinadi.Misol uchun «issik stul»nomli trening uyini aynan insonni stressli vaziyatda oqilona hukm chiqarishida qo‘l kelishi taʼkidlanadi.

5.Eksprissiv xarakterli proyektiv testlar tezkor maʼlumot olishni ifodalab ,bu grafalogiyada ham keng kulaniladigan usul sanaladi .Bizga maʼlumki ,grafologiya insonning yozuvi va imlolariga karab uning xususiyatlarini tahlil etadi.Eksprissiv tahlil jinoyat turini aniqlashda yokibulmasa davlat ahamiyatiga molik rasmiy xujjatlardagi uzboshimchalik va konunbuzarlik holatlarini ochishda ,mansabdor shaxslar yoki davlat xizmatchilari kuygan imzolarni aniqlashda eksprissiv usul kul kelishi tadqiqotlarda taʼkidlangan .Bundan tashqari eksprissiv proyektiv metodikalarga «Uy. daraxt.inson.» metodikasini kiritish mumikin. Metodika

Dj.Morgan tomonidan 1948-yilda kullangan..Test kattalar bilan bolalalarnio‘rganish uchun ham kulay sanaladi .Moxiyatiga kura test kuyidagi mazmunni ifodalaydi.Testni kullashda yuriknoma berilib ,xar bir vazifadaan sungsuhat utkaziladi.Suhat ham ularning nima uchun bu vazifalarni tanlaganlari to‘g‘risida maʼlumotni oydinlashtiradi.

5.Imprissiv turdagida esa tekshiruvchilarning xoxish va intilishlarihisobga olinib ,ularni taʼminlash talab etiladi.Bunday testlarga Lyusherning «rang testi» yaqqol misoldir.Testda barcha ranglar hisobga olingan bo‘lib ,ulardan 8 ta rang metodikada foydalanilgan .Ushbu ranglar orqali insonda qo‘rquv ,affekt ,ichki dunyo sirliligini yashirin ochish, nizoli vaziyatga moyillik ,emosional kiyofa kabi psixologik masalalar urganiladi

.Lyusherning rang testlari XX-asr boshlari va oxirgi un yilligida medisinapsixologiyasi va psixoterapiyada klinik jixatdan keng tadbiq etilgan

.Tadqiqotchilar fikricha ushbu metodika insondagi kuyidagi xususiyatlarni sifatlarni tahlil etadi .

1.Turli xil kasalliklarning insonga taʼsiri ,somatik va psixosomatik belgilarini aniqlashda .

2.Epilipsiya(tutkanoklik)va shizofreniya kasalliklaridagi sog‘lomlik va kasallik tafovutlarini aniqlaydi .

3.Shaxslardagi emosional buzilishlar ,qo‘rquv ,xaddan tashqari zo‘riqish kabi holatlarni oydinlashtiradi .

4.Jamoalardagi psixologik iqlimni o‘rganadi.

5.Shaxsning xissiy kechinmalari yunalishi va mazmunini ochib beradi.

Lyusher testining keyingi modifikatsiyalarida 70 xil turdag rasmlar xarak teri hisobga olinib ,u ham insonni kompleks tatkik kila olgan .Lyusher metodikani yaratish paytida ranglarni tanlashda , birinchi urinda ularning funksiyalarini hisobga oladi. Lyusher fikricha insondagi subyektivlik kuprok ranglar bilan yuzaga chikadi .Muallif testga qushimcha ravishda natijaga oydinlik kiritish maqsadida tekshirish oxirida savollar bilan murojat qilgan.Masalan,siz o‘smirlik yoshingizda kaysi ranglarni yoqtirgansiz

yoki umuman qaysi rangni yoqtirasiz deb soʻralgan .Koʻpchilik tekshiriluvchilar yashil va kizil rangni aytganlar .Tahlilga koʻra ,yashil rang oʻsmirlikdagi noaniq hissiyot ,mardlikka daʼvogarlik ,shu bilan birga koʻchuvchan samimiylilikni ifodalagan .Qizil rang esa kuch- quvvat ramzi, shiddatli xulq – atvor koʻrinishi ,yoki agressivlik va qaysarlik xususiyatlari boʻlganliginikoʻrsatgan .Lyusher ushbu usulni maqbul baholab, koʻproq tadqiqotlar olib borishga harakat qildi. Oxir –oqibat u metodikada aks etgan 8 ta rang har biriga alohida taʼrif ishlab chiqdi .

1. Koʻk rang-emosional komfortlik ,hissiy munosiblik ,ichki himoya mexanizmga ega ,muvaffaqiyat kutuvchi tip boʻlib,ehtiyojlari rang- barang tusga ega .

2.Yashil rang-ehtiyojlar sferasi oʻz pozisiyasi bilan uygʻunlashgan kishilar,mudofa qudrati kuchli,haraktlarida agrissiv xulq kuchli boʻlgan kishilar.

3.Qizil rang-ehtiyojlari muvaffaqiyatga qaratilgan,ledirlik va tashkilotchilikka moyil.Agressiyalari yigʻilgan ,boshqaruvchilik , shu bilan birga faoliyattida yukori qidiruvchanlik mavjud .Bunday toifali kishilar hayotda juda harakatchan ,yuqori energiyali kuchga ega boʻlib,doimo muvaffaqqiyatsari intiladilar .

4.Sariq rang –ijtimoiy rejalarda ehtiyojlar emosional koʻrinishliligini ifodalaydi .Ushbu tipdagi shaxslarda himoya mexanizmi yuqori ,tajovuzkor xulqli ,muloqot va muomala jarayonida qoniqmaslik ,siqiluvchanlik hissi kechiriladi.

5.Binafsha rang –shaxsdagi emosional yetukmaslikni,hayotiy maqsadlarning aniqmasligini ,subyektivizmning yuqoriligini,individual oʻziga xoslik kabilarni ifodalaydi .

6.Jigar rang-ehtiyojlar sferasi qor kabi hujumli ,jismoniy va psixologik tipga koʻra komform xarakterli kishilar,shaxslararo munosabatda tez til topa olishga moildir.

7.Qora rang –tahliliga ko‘ra , kishining ehtiyojlari mustaqil shu bilan birga ko‘chuvchan xarakterni ham oladi.Qora rangni xush ko‘ruvchi kishilar negativ xulqqa ega ,doimo insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘z avtoritetini o‘rnatuvchi tip sanaladi .Ular doimo hukmronlikka intiladilar va bu uchun hatto hech narsadan qaytmaydilar. Barcha berilgan yoki ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlarga qarshi turadilar.Lyusher ushbu ranglarning barchasini tadqiqodlarida ko‘p bora sinab ko‘rgan.Va eng keraklisi ranglarning insonlarga beradigan proyeksiyasini ham keng ochib bergan.

7.Additiv xarakterli proyektiv metodikalar alohida mazmunga egabo‘lib, unga tugallanmagan so‘zlar metodikasi misol . Bu ko‘proq bolalarda tadqiq etilgan. Metodika psixologik korreksiyaga ko‘ra tarbiyali xarakterni kasb etadi. Bu insondagi motivlar va uning shaxs kamolotiga ta’sirini ochib beruvchi metodikadir.

Tadqiqotchi G.M.Proshanskiy ushbu metodika yuzasidan ish olib borib, testni qo‘llashning yo‘llari va ishlash klassifikatsiyasini keltirib o‘tadi. Proyektiv texnikaning qisqacha ko‘rinishini tuzdi(22.106-109-betlar).

1. Stimullar - 1) verbal. 2) vizuval. 3) konkret. 4) modal Javoblar
- 1) yozma. 2) diagnostik. 3) Terapivtik.

Bundan farqli ravishda bugungi kunda proyektiv testlarning turli ko‘rinishlari ishlab chiqilgan. Ulardan turli sohalarda ta’limda, mehnat jamoalarida, psixologik markazlarda foydalanilmoqda.

Yuqoridagi proyektiv metodikadan farqli ravishda insonning ma’lum a’zosi orqali tadqiq qilinadigan testlar mavjud. “Qo‘l testi” proyektiv metodikasi insonlardagi agressiv munosabatni o‘rganishga mo‘ljallangan. Metodika B.Brayklin, Z.Piotrovskiy, E. Vagnerlar tomonidan ishlab chiqilgan. Metodikani o‘tkazish uchun 9 ta qo‘l panjaralari tasvirlangan rasmlardan hamda bo‘sh varaqdan iborat qo‘zg‘otuvchi material zarur. Rasmlar birma-bir ko‘rsatilib sinaluvchilarga qo‘l panjaralarini tasavvur qilish va uning harakatini tasvirlash vazifasi beriladi. Ya’ni rasmda aks ettirilgan qo‘l qanday harakatni bajarayotganligi yoki bajarishga qodirligi to‘g‘risida

sinaluvchi fikri aniqlanadi. Har bir tasvirlangan qo'l qanday harakatni amalga oshirayotganligi haqida bir necha variantda javob berishga ham ruxsat beriladi. Test tahliliga e'tibor berishda quyidagi shaxs xususiyatlari keltirib o'tilgan.

1. Agressiya holati – qo'l ustuvorlik sifatida talofat yetkazuvchi mazmunda idrok etiladi.

2. Hukumronlikka intilish-qo'llarning to'g'riga yo'nalganligi, gorizantal joylashganligi Bilan.

3. Qo'rqinch-sinaluvchi javoblarida qo'l ,boshqa kishilarning agressiv harakatlari qurboni sifatida namoyon bo'ladi. Insonning o'ziga zarar yetkazuvchi sifatida tasvirlanadi.

4. Bog'lanib qolishlik-qo'l boshqa kishilarga nisbatan ijobiy yo'nalgan.Bu ko'proq sevgi- muhabbat va mehr tuyg'ularini ifodalaydi.

5. Kommunikatsiya-aloqa o'rnatishga intilayotgan qo'l sifatidasvirlansa ,bu shaxsdagi muloqotchanlik belgisi.

6. Tobeklik – qo'l boshqa kishilarga bo'y so'nishni ifodalasa ,bu bog'liqlik belgisi .

7. Qo'l turli usullar yordamida o'zini ko'rsatishga intilayotgan tasvirlansa,bu namoyishkoronalikdan darakdir.

8. Qo'l kasal ,shakli bo'zilgan ,hech qanday harakatga noqobildek aks ettirilsa –kasallik belgisi yoki jarohat sifatida tushunish mumkin.

9. Noaniq faollik qo'l tasviri –harakatga moyillik ,kuchli energiyali tip.

10. Shaxsi noaniq sustlik sifatidagi qo'l tasviri -motivlarning kuchsizligi ,bezovtalik kurinishi, shaxsdagi bo'shashganlik.

11. Qo'llarning mushtlangan holda yo'nalishi –xulqdagi yashirin va to'plangan dushmanlik belgisi .

Bundan tashqari yosh bolalarning turli ijtimoiy psixologik xususiyatlarini ochish tabiatiga ega proyektiv testlar mavjud.Unga misol

tariqasida “Oila rasmi” metodikasini keltirish mumkin .Bumetodika- bilan V.Xyulse A.I.Zaxarova L.Karmanovalarning ko‘proq tadqiq olib borganlar. Tadqiqod uchun 6 xil rangli qalamlar va oq qog‘oz va o‘chirg‘ichtalab etiladi(1.56-81betlar). Bolaga ko‘rsatma quyidagicha beriladi, ”O‘z oilang rasmini chiz” oila so‘zi ma’nosi tushintiriladi. Agar bola tushunmasa yo‘riqnoma yana qaytariladi. Vazifani vaqti 35 minut deb olingan. Psixolog vazifani bayonnomaga qayd etishi.

- 1.Detallar chizish ketma-ketligi.
- 2.15 sekunddan ortiq pauzalar.
- 3.Detallarni o‘chirish.
- 4.Bolaning spontan berilgan izohlari.
- 5.Emosional reaksiyalar.

Tadqiqod tugagach psxolog, verbal yo‘l bilan boladan ma’lmot olish uchuni murojat qiladi, qo‘shimcha savollar bilan.

- 1.Aytchi bu yerda kim tasvirlangan ?
- 2.Ular qayerda tasvirlangan ?
- 3.Ular nima qilishyapti ?
4. Buni kim o‘ylab topdi ?
- 5.Rasmda chizilganlarning eng baxtlisi kim. Nima uchun.
- 6.Ulardan eng baxtlisi kim ? Nima uchun.

Suhbatdan so‘ng bolaga 6 ta vaziyatni tahlil qilish qo‘yilib, u analizetiladi.

Intepritatsiya qilishda quyidagilarni bilish zarur .

- 1.Tadqiq qilinayotgan bolaning yoshi.
- 2.Uning aʼzolari soni ,aka –singillari yoshi .
- 3.Iloji bo‘lsa bolani ,uy,maktab va bog‘chadagi xulqi .

Interpritatsiyani shartli uch qismga bo‘lish belgilangan.1.Oila rasmi strukturasi tahlili .

2.Oila aʼzolari grafik tasviri xususiyatlari tahlili.3.Rasm chizish jarayoni tahlili .

4.Bolaning oilasiga bergan rasm tafsilotining umumiy xulolasi .

Bu esa, boladagi barcha ijtimoiy tusiqlarni, negativ xulq –atvorni, qo‘rquvni, hissiyot olamining rang-barangligini ochib beradi . Eng asosiysi yashirin, spontan xususiyatlar tekshirish paytida o‘z-o‘zidan sodir bo‘lgan .

Shu o‘rinda yana bir masalaga to‘xtalish kerak bo‘ladi. Aynan bolalar shaxsini o‘rganuvchi, keng imkoniyatli proyektiv test mavjud. Bugungi kunda Yevropaning rivojlangan davlatlari, xususan, Germaniya, Gresiya, Rossiya, Ukraina, Aqshda keng tadqiq qilingan proyektiv test “Ertakli proyektiv test” yaʼni ertak terapiyasidir. Ertaklar bizga maʼlumki, haqiqatni boricha aks etadi. Masalan yaxshilik va yomonlik, davlat boshqaruvidagi zulmkorlik, o‘g‘rilik va to‘g‘riliik, sevgi-muhabbat, omad, sehrgarlik kabi insonxususiyatlarini tasvirlaydi. Bu esa bolaning dunyo qarashiga ijobiy ta’sir etib, tarbiyasini kamol toptiradi. Tekshirilganda sinaluvchilar ongsizlikholatlari chiqib keladi. Ertaklardagi takrorlanuvchanlik bolalardagi idrok ko‘lamini kengayishiga olib keladi. Ertakshunos olim Roxeym fikricha, ertaklar tush ko‘rish bilan yaqin deb qaraladi. Va ertaklar qo‘yidagi vazifalarni bajaradi inson proyeksiyalari jarayonida.

- 1.Bog‘lovchi .
- 2.Transformatsiyalash.
- 3.Vositachilik .
- 4.Himoyalovchi.

Analitiklarning fikriga ko‘ra, bu vazifalar bolalardagi nizoli, ruhiy bezovtalik va negativ xulq ko‘rinishini ochib beradi. Tadqiqotimizning nazariy masalasiga oydinlik kiritish maqsadida, Rossiyaning amaliy psixologlar uchun maxsus chikadigan”Amaliy psixologiya va psixoanaliz “ jurnalida chop etilgan maqolaga qaratmoqchimiz (2003-yil,4-dekabr, 12-son). maqola ertaklar va ongsizlik deb nomlanadi.Masalaga esa” Qizil shapkacha “ ertagi tanlanadi.

Ushbu proyektiv test 21 ta rasmlı karta va qahramonlarning 3ta xulosa kartasidan iborat .Psixolog tadqiqod o‘tkazishdan oldin qo‘yidagi talablarni bajarishi kerak buladi .Savolarni berish tartibi quyidagicha.

1. Bolalarda ertakning mazmuni, yoki o'qilganligi hisobga olinadi. 2. Qizil shapkacha uydan chiqib ketganda onasidan xafa bo'ldimi yoki qo'rqdimi?

3. Qizil shapkacha o'rmonga kirganida xursand bo'ldimi yo qo'rqib ketdimi?

4. Buvisini o'yida bo'rini ko'rganda qo'rqdimi?

Tadqiqod oxirida 3ta xulosa kartasi bolalar qo'liga berilib ana shuorqali xulosa qilinadi. Xulosa kartalari mazmuni turlicha.

1-karta. Bolalar shaxsining kuchsizligini, hissiyotlari salbiyligini, shu bilan birga bolaning qo'rqoqligi va tortinchoqligini anglatadi.

2-karta. Bolaning beg'uborligi, quvnoqligi va psixologik sog'lomligi ko'rsatadi.

3-karta. Boladagi xafalik, bezovtalik, xavfsirash, agressiv holatini anglatadi.

Ushbu test ham stimulli qo'zg'atuvchi material xarakterlidir. Testni ko'proq maktabgacha tarbiya maskani va kichik maktab bolalarida o'tkazish tavsiya etiladi. Bu esa bola shaxsining ijtimoiy-psixologik jihatini o'rganishga va tarbiyaning ijobiy kamol topishiga keng imkon beradi.

“Agressivlik” testi (Rozinsveyg testining modifikatsiyasi)

Metodika proyeksiya xarakteriga ko'ra frustratsiya va stressli holatlarni o'rganishga qaratilgan hisoblanadi. 24 ta rasmlı vaziyat testda ko'rsatilib, vaziyatni izohlash talab etiladi.

Insondagi agressiya kuchli yoki yo'qligi vaziyatlar orqali baholanadi. Tekshiriluvchining har bir rasmdagi fikri, bahosi, kechinmasi qayd etilib boriladi. Bolalar psixikasini tadqiq etishda yana bir proyektiv metodika “Uch daraxt” testi qulay hisoblanadi. Tadqiqotchi testni boshlashdan oldin bola bilan suhbat qilib oladi. Ota-onasi, ish joyi, necha yoshdaligi, oilaning boshqa a'zolarini ham qanday uyda yashayotganligi haqida so'raladi.

Suhbatdan so'ng psixolog bolaga “Xohlagan uch daraxt”ni chizishni buyuriladi. Rangli qalamlardan foydalanish aytiladi. Tadqiqot natijalari ranglardan foydalanganligi, daraxt proyeksiyalari va strukturasiga qarab

tahlil etiladi. Ushbu metodika ham diagnostik xarakterga ko‘ra, qulay va imkoniyatli sanaladi.

Rene Jil metodikasi – Muallifning ushbu testi bolalarning shaxslararo munosabatlar hamda uning oilaviy munosabatlarni idrok qilingan sohasini tadqiq qilish uchun mo‘ljallangan. Metodikaning maqsadi bolaning ijtimoiy moslashuvchanligi, uning atrofdagilar bilan aloqasi va munosabatini ochishdir. Metodika vizuval – verbal xarakterda bo‘lib, bolalar bilan kattalar rasmi tasvirlangan. Vazifalar 42 ta rasm va matn shaklidan berilgan savollardan tuzilgan. Test bilan ishlashdan avval – bolagarasm asosida berilgan savollarga javob berishligi tushuntiriladi. U rasmlar bilan tanishib chiqqach, savollarni o‘qib javob beradi. Lekin bu metodika sof proyektiv emas, balki anketa va proyektiv testlarni oralig‘ida turuvchi test turkumi hisoblanadi.

“Geometrik figuralar testi” proyektiv xarakterdagi metodikalar sirasiga kiradi. Metodika muallifi E. Mox hisoblanadi. E.Mox testda o‘z testida inson qiyofasini ifodalashda to‘rtta geometrik figuradan foydalandi. Yani aylana, uchburchak, kvadratni tanladi. Ular kaysidir ma’nodainson proyeksiyasini bashorat qiladi.

Aylana shakl – Insonning mayl sohasi, hissiyot olami, emosional kechinmalarining kanday tusga egaligini anglatadi. Agar tekshiriluvchilarchizishda aylanadan ko‘p foydalansalar.

Uchburchak shakl-Insonning fantaziyalarini anglatib kay darajada undan foydalanganligini anglatadi. Bu uchburchak shakldan bir rasmda qancha ko‘p foydalanganligi bilan belgilanadi.

Kvadrat shakl-Insondagi aql sohasi bo‘lib, rasional imkoniyatga karatilgan. Test talabiga ko‘ra tekshiriluvchi vazifada foydalangan figuralarsoni 10 tadan oshmasligi kerak. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib to‘ribdiki bugungi kunda proyektiv testlarsiz amaliy psixologiyani yutuqlarini sezish qiyin. Garchi ular milliy muhitimizga to‘la javob bermasada, ularni

modifikatsiya qilish, qayta ishlab chiqish fanimiz salohiyatini ikki baravar oshirishi ajab emas.

Shaxs diagnostikasida proyektiv metodikalardan foydalanish Proyektiv texnika psixodiagnostikada keng qo'llanilsada, har bir proyektiv testlardan foydalanish uchun testlarga qo'yiladigan psixodiagnostik talablarga rioya qilish zarur. Lekin, ushbu testlarni standartga solish qiyindir. Prognozlik xarakteriga ko'ra, bir qarashda oddiy ko'rinsada, chet elda keng imkoniyatli testlar deb qaraldi. Proyektiv metodikalarning diagnostik qimmatiga e'tibor berishdan oldin, uning qo'llanilish sohalariga e'tibor berish lozim.

1. Kadrlarni saralashda, kasbga yo'naltirishda.
2. O'quv faoliyatini o'rganishda va tarbiya jarayonini samarali olib borishda.
3. Ijtimoiy xulq – atvorni aniqlashda .(Oila rasmi testi misol).
4. Harbiy haqiruvga kelayotgan prizivni psixologik ekspertiza qilishda.(Masalan, Psixik holatlarning asosiy parametrini aniqlash testi).
5. Sud-psixologik ekspertizasida jinoyatchi motivlari va maqsadlarini ochishda (Masalan, TAT testi orkali o'smir jinoyatchilarni).
6. Psixoterapiyaviy yordam va psixologik konsultatsiyalar jarayonida posentlarni o'rganishda.(Agressivlik testi va frustratsiyali vaziyat testi orkali masalan).
7. Amaliy psixologlarning turli faoliyatida (Oliy ta'lim va maktabta'limida ta'lim va tarbiya muommasida).

Yuqoridagi talablar qo'llanilish sohasi talabi bo'lsa, tadqiqodchilar uchun avvalo, testning nazariy asosini bilishi va testni aprobatsiya qilaolishi asosiy talabdir. Bundan tashqari klinik psixologiyada bolalarning normal rivojlanishi va anomaliyalarini aniqlashda ham qo'llanilgan. Bu hol yana test imkoniyatlari yuqoriligini va ishonchliligini ko'rsatadi. Lekin natijalar ba'zida standartlikni talab etadi.

Ularda tadqiqod oxirida forig‘lanish, qutulish holati sodir bo‘lganligi proyektiv texnikaning yana bir o‘ziga xos jihati ekanligi isbotlandi. Proyektiv texnika asosan qo‘yidagi materiallar bilan amalga oshirilgan. Suv, loy, metal parchasi, kubikchalar kabi materiallarni uz ichiga oladi. Terapivtik uyinlarning birida bolalarda qismlarga ajratilgan qo‘g‘irchoq berilgan. Ularni yig‘ish holati bolalardagi agressiv holat va ota onalariga bo‘lgan munosabatni belgilagan. Teatr ko‘rinishidagi o‘yinlar bolalarda emosional sakrash va katarsis (forig‘lanish) holatini olib kelgan. Test texnikasini bola bajara olmasa, ularga qo‘shimcha ravishda kichik suhbat va interv‘yu o‘tkazilgan. Asosiy muammo esa test o‘tkazish emas, tadqiqodchilarning test talablaridan qo‘rqishi, ya’ni validlik va ishonchlik olishdan qo‘rqish. Klinik psixologiyada test natijalaridan norma olishda tekshiruvchilardagi qobiliyatlar alohida etapga solinadi. Ba’zi olimlar Rorshax testi va TAT testini tahlil etishda ularni falsifikatsiya qilish kerakligini ta’kidlaydilar. Tekshiruvchilar javoblaridan qoniqmasalar tadqiqodchi yordam berishi va hohishlarini hisobga olishi kerak.

Tekshiruvchilar va situativ omillar.

Ko‘pgina tadqiqodlarda natijalar normal natija bermasligi mumkin. Bunda barcha tekshiruvchilar javoblarini formulirovka instruksiyasi tuziladi. Klinik usullar bilan ham ob’yektiv tekshiriladi. Birinchi galda tekshiruvchi metodikani qachon qo‘llagani, haqiqiy chislo, vaqt, kun ham hisobga olinadi. Testning qaysi xususiyatlarni ochishdagi muvaffaqiyati, yoki chegarasi, so‘zlardagi qo‘llangan obrazlar, xarakter uyg‘unligi, stereotipik xususiyatlar ham chetlab o‘tilmaydi.

Situativ omillar-bu testlarda qo‘llangan vaziyat, o‘zidagi kechinma, qabul qilinmagan stimuly, shu bilan birga testga oydinlik kirituvchi har bir chetda qolgan holatlar. Oxirgi qilinadigan ish bu, aniq javoblarni tekshirib, nazariy oriyentatsiya olish va gipoteza qilish, qolaversa o‘z kechinmalari bilan solishtirish, o‘z navbatida shaxsni dinamik strukturasini aniqlashdir.

Ishonchlilik –bu proyektiv testlar uchun ham qo‘llaniladigan psixometrik talab bo‘lib, agar bunga e‘tibor berilmasa, natijalar interpretatsiyasini to‘xtatib qo‘yish mumkin. Agar test natijalari talabgajavob bermasa, retest o‘tkazish talab etiladi. TAT metodikasida ayniqsa o‘tkazilgan sana va javoblar protokoli aniq solishtirilishi ham samara berishi mumkin. Ranglar indeksi xam hisobga olinadi.

Validlik- bu testlarning ikkinchi psixometrik talabi bo‘lib psixodiagnostikada turlicha izohlanadi. Validlik metodikaning sifatini hamda o‘rganilgan xususiyat javobgarligi va baholash, nimani o‘rganishga qodirligini izohlovchi tushunchadir. Eksperimentli nazorat holati ham validlik belgilashda muhim sanaladi. Ko‘plab Rorshax testi haqidagi ma’lumotlarda metodologik yondoshuvlar yolg‘on degan ma’lumotlar validlik to‘g‘risida uchraydi . Masalan klinik tadqiqodchilar ishlarida adashishlar uchragan . Misol uchun 1966-yildagi (H.J.Kinslenger) tadqiqotda bir stimulda uchramagan belgilar ikkinchi stimulda uchragan. Bu esa kriterial gruppalariga ajratishni talab etgan (8, 93-103). Validlik va ishonchlilik agar qiynchilik olib kelsa retest qoidalari qo‘llaniladi. Retest o‘tkazilgandan keyin oldingi test natijalari bilan solishtiriladi. Agar tekshiriluvchi oldingi tekshiruvda vazifani tushunmasdan bajargan bo‘lsa, unga metodika mohiyati yana tushuntiriladi. Test o‘tkazilgan sana va oy aniq qayd kilib olinadi. Testlarning psixometrik talablariga ko‘ra proyektiv testlarning aniq standartini olish qiyin, chunki noverbal xarakterdagi vazifalardan tashkil topgan. Ularni guruhlariga ajratish yoki strukturaga solish kerak bo‘ladi. Ana shunda berilgan stimullar va chizilgan rasmlardagi tafovutlar kelib chiqadi. Buning uchun tadqiqodchi avvalo testlarning bir-biridan farqini ajrata olish kerak. Umuman olganda standartga solish masalasi sovet olimlari bilan g‘arb olimlarini ko‘p qiynab kelgan muammo hisoblanadi. G‘arb mutaxasislari ko‘pincha ko‘plab tadqiqotlarida rasmlar xarakter mazmuniga ko‘ra guruhlariga ajratilib umumiy belgilar olingan. Rossiyada prektiv testlarga beriladigan talablar bir muncha orqada qolgan. Ular ko‘proq

tekshiriluvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy me'yor belgilashga harakat qilganlar. Bir tarafdin esa jins xususiyatlari ham hisobga olingan. Lekin, proyektiv testlarga norma berishda boshqa original variantlarni ham hisobga olish kerak. Bu testlarni guruhlashni, umumiy o'xshashlik chiqarish, stimullar mazmunini aniqlashni ham o'z ichiga oladi. Ba'zida sinalluvchilarda ya'na tekshirish olish talab etiladi. Ya'na bir tomoni barcha tekshiriluvchilar vazifalaridagi mazmunan o'xshash yoki ko'p takrorlanganholatlar hisobga olinadi. Proyektiv metodikalar faqat tadqiqodchidan yengil va original variant orqali hal etilishini kutadi. Chunki aniq standart olish juda murakkab.

Proyektiv metodikalarning o'ziga xosligi:

Proyektiv metodikalarning o'ziga xosligi: 1. Topshiriqlar strukturalashmagan

2. Topshiriqlar javoblari cheklanmagan

3. Test stimullarining sabablari bir xilda emas

12. Qo'llanilishi:

13. Klinik psixologiya

14. Sud-psixologik ekspertiza

15. Pedagogik psixologiya

16. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Mahalliy sharoitda proyektiv metodikalarning qo'llanilish xolati:

1. Ayrim tadqiqotlar doirasida va psixologik maslahatlarda foydalaniladi

2. Proyektiv metodikalarning modifikatsiyalashtirilgan shakllari kam va yetarlicha emas

3. Yangi tadqiqot metodi sifatida foydalaniladi

4. Xali urganilish uchun zarurat yetarlicha

Proyektiv metodikalarning murakkablik tomoni ularning chala standartlashtirilganligi, natijalarni sharxlashda mutaxassisdan yuqori psixologik bilim va malakani talab etadi hamda psixoanaliz konuniyatlarini yaxshi tushungan bulishi lozim

Proyektiv metodikalar quyidagi guruxlarga ajratiladi: Metodikalarning strukturalashganligi: siyoh dog'lari G.Rorshax, bulutlar testi, uch o'lchamli proyeksiya.

Konstruksiyalashtirilgan metodikalar: MAPS, dunyo testi va uning modifikatsiyalari Metodiklarning interpretatsiyasiga ko'ra: TAT, Rozensveygning frustratsiya testi, Sonidi testi. Qo'shimcha metodikalar: tugallanmagan gap, tugallanmagan hikoya, Yungning assosiativ test. Katarzis metodikalar: psixodramma, proyektiv o'yinlar. O'rganish metodikalari:

ekspressiyani o'rganish, yozuvni tahlil etish, og'zaki muloqot xususiyatlari, Ijod mahsullarini o'rganish, figuralarni chizish testi (Guden va Maxover varianti), K.Koxning daraxt, uy odam rasmi testi)..

2- BO‘LIM. PSIXODIAGNOSTIKANING AMALIY JIHATLARI

2.1. INTELLEKT DIAGNOSTIKASI METODIKALARI

2.1.1. Gilfordning «Sosial intellekt» testi

Sosial intellekt – bu insonning kechinmalari, niyati va emosional holatlarini so‘zlari va xatti-harakatlari orqali tushunish qobiliyati. Sosialintellekt – shuningdek, insonning shaxslararo munosabat natijalarini oldinda ko‘ra olish xususiyati hamdir. Sosial intellekt insonlar haqida tez mulohazalab, ularning xatti-harakatlari yuzasidan tezkor munosabat bildirish qobiliyati bilan ham bog‘liq. Bu «ijtimoiy inoyat etilgan» xususiyat bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarga moslashishni ta‘minlash uchun insonlar bilan munosabatni tekis ketishini ta‘minlaydi.

Metodika muallifi Dj. Gilford sosial intellekt masalasiga umumiy intellektga bog‘liq bo‘lmagan, ammo xulq-atvor orqali ma‘lumot olish bilan bog‘liq intellektual qobiliyatlar tizimi deb izohlagan. Gilfordning konsepsiyasiga ko‘ra sosial intellekt o‘zida 6 omilni birlashtirgan:

Xulq-atvor elementlarini bilish – xulq-atvordagi so‘z (verbal) va so‘zsiz (noverbal) mazmundagi xatti-harakatlarni ajrata olish qobiliyati.

Xulq-atvorni sinflarini bilish – xulq-atvor haqidagi ekpressiv yoki vaziyatli axborotlar oqimidagi umumiy xususiyatlarni anglash qobiliyati;

Xulq-atvor munosabatlarini bilish-munosabatlarni tushunish qobiliyati ;

Xulq-atvor tizimini bilish – odamlar o‘zaro ta‘sirlashuvidagi yaxlit vaziyatlarning rivojlanish mohiyatini, ularning bu vaziyatlardagi xulq-atvor mazmunini tushunish qobiliyati;

Xulq-atvordagi o‘zgarishlarni bilish – har xil vaziyatlardagi kechayotgan xulq-atvor mazmunini o‘zgarishini tushunish qobiliyati;

Xulq-atvor natijalarining tushunish – mavjud axborotdan kelib chiqib, xulq-atvor oqibatlarini ko‘ra olish qobiliyati.

1-subtest. «Yakunlangan tarix»

Bu subtestda Siz Barni personajiga bog‘liq sodir bo‘lgan hayotiy vaziyatlar tasviriga e‘tibor qarating. Barni-taqirbosh kishi bo‘lib, ofisiantbo‘lib ishlaydi. Vaziflarda uning rafiqasi, kichkina o‘g‘li va Barning o‘rtog‘i ishtirok etadilar.

Har bir topshiriqning chap tomonida ma’lum vaziyatni ifodalovchi birqator rasmlar joylashtirilgan. Siz undagi personajlarning kechinma va maqsadlarini aniqlang hamda o‘ng tomondagi uchta rasmdan vaziyatning uzviy davomi bo‘lganini tanlang.

Namuna :



Chapdagi rasmda Barni sarmast, tomning chekkasida qo‘rqib osilib turgan va o‘g‘lidan yordam so‘rayotgan holati hamda bolaning otasini bunday og‘ir vaziyatda turganini ko‘rib, tashvishlanayotganligi ifodalangan .

1-rasmda keltirilgan vaziyat topshiriqning to‘g‘ri javobdir. Shu sababli javoblar varaqsida 1 raqami aylana ichiga olinadi. 1-rasmdagi Barnining o‘g‘li bilan rafiqasi devorga narvon qo‘yib unga yordam berishga harakti aks ettirilgan holat vaziyatning mantiqiy davomi sanaladi.

2-va 3-rasm unchalik to‘g‘ri javoblar emas. 2-rasmda Barnining tomdan mustaqil tushayotgan holati hamda 3-rasmda rafiqasi bilan o‘g‘li uni ustidankulib turgan holatlar mantiqan to‘g‘ri kelmaydi.


Shunday qilib, har bir topshiriqda chapdagi rasmdagi vaziyatdan keyinnima sodir bo‘lganligini personajlarning kechinmalari va harakat maqsadlari asosida aytib berishingiz kerak.

Javob uchun Siz o‘zingizga eng qiziqarli bo‘lgan rasmni talab qolmang. Balki tipik va mantiqan topshirilgan vaziyatning uzviy davomini taklif eting. tanlangan rasmning quyi qismidagi raqam nomerini javoblar varaqasida qayd eting. Test kitobchasini o‘ziga hech qanday belgi qo‘ymang.

Subtestning bajarish uchun 6 daqiqa vaqt ajratilgan. Topshiriqni bajarilishi uchun ajratilgan vaqt 1 daqiqa qolganda ogohlantirilasiz. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yanaqaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa-da.


БЕІÙÓ’%•İËİ,, ‘—Ó`Ê#İ ËİÙÂİİÂÍÚª ÚÂÒÚË

1- «Yakunlangan hikoya» subtesti rasmlari









5



6



7




8



9



10



11





2- «Ekspressiya guruhlari » subtesti

Bu subtestda Siz gavdani tutish, imo-ishora, mimika, ifodali harakatlar, inson holatini aks ettirgan rasmlar bilan ishlaysiz.

Topshiriq mohiyatini tushuntirish uchun sizlarga namuna keltiramiz. Bu misolda chapda bir xil inson holatini ifodalovchi, ya'ni fikr, tuyg'u, maqsadni ifodalagan rasmlar keltirilgan.



O'ng tomondagi to'rtta rasmdan biri shunday holatni, fikrni yoki maqsadni ifodalaydi. O'sha rasmni topishingiz kerak.




To'g'ri javob 2-rasmda bo'lib, u chap tomondagi rasmdagi singari holatni (zo'riqish yoki asabiylashishni) ifodalagan. Shu sababli, javoblar varaqida 2 raqamini aylana ichiga olinadi. 1, 3, 4-rasmlar mos kelmaydi, chunki ular boshqa holatlarni aks ettirgan (quvonch va muvaffaqiyatli holat).

Shunday qilib, o'ng tomondagi subtestdagi barcha topshiriqlarni o'ng tomondagi rasmlardan ham tomondagi rasimga mos kelganini toping va uning javoblar blankidagi raqamini belgilang.

Subtestni bajarishi uchun 7 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa-da.


2-

«Ekspressiya guruhlari » subtesti rasmlari





6



1



2



3



4



7



1



2



3



4



8



1



2



3



4



9



1



2



3



4



10



1



2



3



4



11



1



2



3



4



12



1



2



3



4



13



1



2



3



4



3- «Verbal ekspressiyasi» subtesti

Bu testning har bir topshirig‘ini chap tomonida bir kishini boshqa kishiga so‘zlagan jumlasini berilgan bo‘lib, o‘ng tomonida esa muomalaning uchvaziyati keltirilgan. Chap tomonda keltirilgan jummalardan biri boshqa ma’noga ega. Misol keltiramiz.

Kar inson- o‘rtog‘i : «Marhamat qilib, takrorlang»

Kar odamni o‘rtog‘iga iltimosini tasavvur qilib ko‘ring. 2-3- vaziyatlarda jumalar shunday ma’noga ega. Faqat 1 vaziyatdagi boshqa ma’noni ifodalaydi. Shu sababli, javoblar varaqasida 1 raqamini aylanacha ichiga olib qo‘ying.

Shunday qilib, har bir topshiriqdagi shunday muomala vaziyatini tanlangki, u chap tomondagi qolgan ikki vaziyatdan farq qiluvchi boshqamazmundagi jumlaning ifoda etsin

Subtestni bajarish uchun 5 daqiqa beriladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa- da. Gilfordning «Sosialno‘y intellekt» testi

1. Kishi – o‘rtog‘iga: «Siz ajoyibsiz».	1. Minnatdor xodim – boshlig‘iga. 2. Yaxshi o‘quvchi – o‘qituvchisiga. 3. Norozi kishi – tanishiga .
---	---

2 . Sotuvchi- xaridorga: «Nima kerak bo'lsa oling».	1. Ittifotli o'qituvchi – talabaga. 2. Vrach – mijozga. 3. Asabiylashgan milisioner – zorlanayotgan mast kishiga.
3. Sudya – g'olibga: «Tabriklayman».	1. Ota– g'olibga. 2. Do'st – g'olibga. 3. Mag'lub– g'olibga.
4. Mag'rur ota – do'stiga : «Unga qarang».	1. Rashqchi qiz – do'stiga. 2. Xursand bola– do'stiga. 3. Zavq-shavqqa to'lgan qiz– do'stiga.
5. Kishi – do'stiga: «Nima qilayapsan?».	1. Achchiqlangan ona – bolasiga. 2. Qiziqqan yo'lovchi – o'ynayotgan bolaga . 3. O'qituvchi – namunali o'quvchiga.
6. Vrach – bemor bolaga: «Buni ezig'ilama».	1. Ona – o'g'liga. 2. Jangchi – dushmanga. 3. Ish bilan band ayol– turmush o'rtog'iga.
7. Ofisiantka – mijozga: «Sizga qanday yordam berishim mumkin?».	1. Psixiatr – mijozga. 2. Yo'lovchi– avariya dan jabrlanayotgan kishiga 3. Gid – turistga.
8. O'qituvchi-talabaga: «Sen buni juda yaxshi bajara olasan».	1. Rafiq – eriga. 2. Ona – bolasiga. 3. Trener – sportchiga.
9. Ota-o'g'liga : «Sen menga yoqasan».	1. Aka – singliga. 2. Yosh yigit – do'stiga. 3. Jiyan – xolasiga.
10. Boshliq – ishchiga: «Bu yaxshi» .	1. Murabbiy – artistga. 2. O'qituvchi – talabaga.

	3. Jabrlanayotgan bola – uni urgan raqibiga.
11. Ona – qochayotgan bolaga: «Jim!».	1. Asabiylashgan ota – chinqirayotgan o‘g‘liga. 2. Yo‘lovchi– shofyorga. 3. Proxojiy – ehtiyotsiz bolaga.
12. Sug‘urta agenti – mijozga: «Marhamat qilib, imzo cheking».	1. Mehmonxona ma’muri – mijozga. 2. Kolleksioner avtograf – «yulduzga». 3. Kassir – qarzdoga.

4- «To‘ldirilgan hikoya» subtesti

Bu subtestda siz Ferdinand haqidagi tarix aks ettirilgan rasmlar bilan ishlaysiz. Ferdinandning rafiqasi va o‘g‘li bor. U boshliq bo‘lib ishlaydi. Shusababli hikoyada uning xodimlari ham ishtirok etadi.



Har bir topshiriq sakkizta rasmdan iborat. Yuqoridagi to‘rta rasm Ferdinand bilan bog‘liq yuz bergan voqealarni aks ettirgan. Ushbu rasmlardan biri esa tushib qoldirilgan. Siz pastdagi to‘rta rasm orasidan yuqorida tushibqoldirilgan suratni o‘rniga qo‘yishingiz kerak va Ferdinand bilan bog‘liq voqeani mazmunan to‘ldirishingiz lozim. Agar tushib qoldirilgan rasmni siz to‘g‘ri topsangiz voqeaning mazmuni, unda ishtirok etayotgan personajlarning tuyg‘u va maqsadlari tushunarli va aniq bo‘ladi. Misol keltiramiz:








Bu voqeaning uchinchi rasmi tushib qoldirilgan. Voqea yakunida biz Fyerdinadning tushlik haqidagi orzulari aksincha kutganidek chiqmay, uydan ranjib chiqadi. Ferdinandning rafiqasi asabiylashgan va guyoki o'g'liga kitobni o'qiyotgandek o'ltiribdi Bola esa xotirjam o'ltiribdi. Bularning barchasi o'zaro bog'liq, Ferdinad ishdan qaytgandan so'ng yuvinib, oshxonani iflos qiladi. Bu esa rafikasini achchiqlantirdi. Shunday qilib ushbu voqeadatushib qoldirilgan holat 4 – rasm bo'lib, u javoblar varaqasida aylana ichiga olinadi..




1, 2, 3 –rasmlar mazmunan bu voqeaga mos kelmaydi.

Shunday qilib, har bir topshiriqda Ferdinand bilan bog'liq voqelarni mazmunan to'ldiradigan tushib qoldirilgan rasmni topishingiz lozim. Subtestni bajarish uchun 10 daqiqa beriladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko'p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo'lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo'lmasa-da.









Gilfordning «Sosial intellekt» testining Javoblar varaqaasi

F.I.Sh. _____ Vaqt _____
Yosh _____ Jins _____

	1-subtest 1	2-subtest	3-subtest	4-subtest
Misol	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
1	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
2	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
3	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
4	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
5	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
6	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
7	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
8	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
9	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
10	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
11	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
12	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
13	1 2 3	1 2 3 4		1 2 3 4
14	1 2 3	1 2 3 4		1 2 3 4
15		1 2 3 4		

Standart ko'rsatkichlarni aniqlash uchun me'yoriy jadval (18-55 yosh guruhi uchun)

Standart qiymat	Subtestlar				Kompozitiv baho
	1	2	3	4	
1	0 – 2	0 – 2	0 – 2	0 – 1	0 – 12
2	3 – 5	3 – 5	3 – 5	2 – 4	13 – 26
3	6 – 9	6 – 9	6 – 9	5 – 8	27 – 37
4	10 – 12	10 – 12	10 – 11	9 – 11	38 – 46
5	13 – 14	13 – 15	12	12 – 14	47 – 55

Metodikani qayta ishlash kaliti To'g'ri javoblar:

№	1-subtest	2-subtest	3-subtest	4-subtest
1	2	1	3	4
2	2	4	3	3
3	2	3	3	3
4	3	3	1	2
5	1	2	1	1
6	3	1	2	1
7	3	2	2	4
8	3	2	1	1
9	3	1	2	1
10	3	4	3	2
11	3	1	1	1
12	1	1	2	2
13	1	2		2
14	2	4		1
15		4		

2.1.2. RAVEN TESTI

	A	V	S	D	Ye		A	V	S	D	Ye	
15	8	4	2	1	0		8	4	2	1	0	
16	8	4	3	1	0		8	4	3	1	0	
17	8	5	3	1	0		8	5	3	1	0	
18	8	5	3	2	0		8	5	3	2	0	
19	8	6	3	2	0		8	6	3	2	0	
20	9	6	3	2	0		9	6	3	2	0	
21	8	6	4	2	1		8	6	4	2	1	
22	9	6	4	2	1		9	6	4	2	1	
23	9	7	4	2	1		9	7	4	2	1	
24	9	7	4	3	1		9	7	4	3	1	
25	10	7	4	3	1		10	7	4	3	1	
26	10	7	5	3	1		10	7	5	3	1	
27	10	7	5	4	1		10	7	5	4	1	
28	10	7	6	4	1		10	7	6	4	1	
29	10	7	6	5	1		10	7	6	5	1	
30	10	8	6	4	2		10	8	6	4	2	
31	10	7	7	5	2		10	7	7	5	2	
32	10	8	7	5	2		10	8	7	5	2	
33	11	8	7	5	2		11	8	7	5	2	
34	11	8	7	6	2		11	8	7	6	2	
35	11	8	7	7	2		11	8	7	7	2	
36	11	8	8	7	2		11	8	8	7	2	
37	11	9	8	7	2		11	9	8	7	2	
38	11	9	8	8	2		11	9	8	8	2	
39	11	9	8	8	3		11	9	8	8	3	
40	11	9	9	8	4		11	9	9	8	4	
41	11	10	9	8	4		11	10	9	8	4	
42	12	10	9	9	3		12	10	9	9	3	
43	12	10	9	9	3		12	10	9	9	3	
44	11	10	9	9	4		11	10	9	9	4	
45	12	10	10	9	5		12	10	10	9	5	
46	12	10	10	9	5		12	10	10	9	5	
47	12	10	10	9	6		12	10	10	9	6	
48	12	11	10	9	6		12	11	10	9	6	
49	12	11	10	10	6		12	11	10	10	6	
50	12	11	10	10	7		12	11	10	10	7	
51	12	11	11	10	7		12	11	11	10	7	
52	12	11	11	10	8		12	11	11	10	8	
53	12	11	11	11	8		12	11	11	11	8	
54	12	12	11	11	8		12	12	11	11	8	
55	12	11	11	11	10		12	11	11	11	9	
56	12	12	12	11	9		12	12	12	11	9	
57	12	12	12	11	10		12	12	12	11	10	
58	12	12	12	12	10		12	12	12	12	10	
59	12	12	12	12	11		12	12	12	12	11	

»ì%òÈ,È%òÛî,î „Û‘ÛhÈÈ ÚÂðÚ
 îÚÚî ú¯%òî„Èîî’

%	...Èîîî’ ·ÈÈ~î í‘ÖïÖïÖ„Èí ú¯									
	20	25	30	35	40	45	50	55	60	65
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
95	55	55	54	53	52	50	48	46	44	42
90	54	54	53	51	49	47	45	43	41	39
75	49	49	47	45	43	41	39	37	35	33
50	44	44	42	40	38	35	33	30	27	24
25	37	37	34	30	27	24	21	18	15	12
10	28	28	-	-	-	-	-	-	-	-
5	23	23	-	-	-	-	-	-	-	-

2.2. SHAXS QIYOFASINI O'RGANISH TESTLARI

2.1. "KATTA BESHLIK" SO'ROVNOMASI

(Mak Kraye va P.Kosta)

Yo'riqnoma: Hurmatli respondent, sizga taqdim etilayotgan testda to'g'ri va noto'g'ri, shaxsning yaxshi yoki yomon xislatlarini ifodalovchi mulohazalar mavjud emas. Keltirilgan 75 juft mulohazalarni quyidagi ball tizimi bo'yicha baholang: (-2;-1;0;1;2). Birinchi juftlikni o'qing va ikkala muqobil mulohazalardan o'zingizga ko'proq ma'qul kelganini aniqlang. Agar siztanlagan mulohaza baholash shkalasining chap tomonida bo'lsa, bu mulohazani belgilash uchun "-2" yoki "-1" qiymatlardan foydalaning. Mabodo o'ng tomondagi mulohazalarni ma'qul bilsangiz uni "2" yoki "1" qiymatlar bilan baholang. "- 2" yoki "2" agar mulohazalar kuchli namoyon bo'lganda baholanadi. Agar kuchsiz ifodalanganda esa "-1" yoki "1" qiymatlardan foydalaniladi. Agar hech bir mulohaza yoqmasa yoki mulohazalar teng kuch bo'lsa, u holda "0" bilan baholang. Birinchi mulohazalar bo'yicha tanlangan qiymat javoblar varaqasining 1 raqamli chap yacheykasiga belgilanadi. Barcha mulohazalar bo'yicha qiymatlar shu tarzda mos tartib raqamiga ko'ra chap yacheykasiga yozib boriladi.

	Menga jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yoqadi	-2	-1	0	1	2	Menga jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yoqmaydi
	Odamlar meni xayrixoh va rahmdil odam deb hisoblaydilar	-2	-1	0	1	2	Ayrim kishilar meni iltifotsiz va bag'ritosh deb hisoblaydilar
	Men hamma narsada tozalik va batartiblilikni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan o'zimni palapartish tutaman
	Meni tez-tez nimadir yuz berishi mumkinligi bezovta qiladi	-2	-1	0	1	2	Meni "hayotning ikir-chikirlari" bezovtalantirmaydi
	Barcha yangi narsalarga qiziqaman	-2	-1	0	1	2	Ko'pincha yangi narsalar meni

							asabiylashtiradi
	Agar men biror narsa bilan mashg'ul bo'lmasam, bezovtalanaman	-2	-1	0	1	2	Men vazmin odam bo'lganligim sababli hovliqib harakat qilishni yoqtirmayman
	Men barcha odamlarga do'stona munosabatda bo'lishga harakat qilaman	-2	-1	0	1	2	Men har doim va hamma bilan ham samimiy munosabatda bo'la olmayman
	Mening xonam doimo saranjom-sarishta	-2	-1	0	1	2	Men tozalik va tartibga rioya qilavermayman
	Men ba'zan arzimagan narsalarga asabiylashaman	-2	-1	0	1	2	Men mayda-chuyda muammolarga e'tibor bermayman
	Menga kutilmagan narsalar yoqadi	-2	-1	0	1	2	Men voqea-hodisalarni bashorat qilishni yoqtiraman
	Men uzoq vaqt harakatsiz qola olmayman	-2	-1	0	1	2	Menga shijoatli turmush tarzi yoqmaydi
	Men boshqalar bilan xushmuomala munosabatda bo'laman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan hazillashib boshqalarning nafsoniyatiga tegib qo'yaman
	Men hamma narsada rejali va batartibman	-2	-1	0	1	2	Men unchalik mas'uliyatli emasman
	Men nozik ta'b va jizzakiman	-2	-1	0	1	2	Men kamdan- kam bezovtalanaman va biror narsadan qo'rqaman
	Javobi oldindan aniq bo'lgan narsalar men uchun qiziqarli emas	-2	-1	0	1	2	Menga tushunarsiz bo'lgan narsalarga qiziqmayman
	Boshqalar mening bo'yruqlarimni tez bajarishlarini yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Boshqalarning bo'yruqlarini shoshmasdan bajaraman
	Men murosakor va yon berishga moyil odamman	-2	-1	0	1	2	Atrofdagilar bilan bahslashishni yoqtiraman
	Murakkab vazifalarni yechishda qat'iyatliman	-2	-1	0	1	2	Men unchalik sabotli odam emasman
	Murakkab vaziyatlarda butunlay zo'riqishda	-2	-1	0	1	2	Har qanday vaziyatda ham o'zimni erkin

	bo‘laman						tutaman
	Mening tasavvurlarim juda jonli	-2	-1	0	1	2	Men har doim olamga real ko‘z bilan qarashni afzal bilaman
	Menga tez-tez yetakchibo‘lish, tashabbus ko‘rsatishga to‘g‘ri keladi	-2	-1	0	1	2	Menda yetakchilikdan ko‘ra butunlay tobelik ustun
	Men doimo boshqalarga yordam berish va mushkullariga sherik bo‘lishga tayyorman	-2	-1	0	1	2	Har bir kishi o‘z - o‘ziga g‘amxo‘rlik ko‘rsata olishi kerak
	Barcha yumushlarda juda tirishqoqman	-2	-1	0	1	2	Men ishda unchalik g‘ayrat ko‘rsatmayman
	Menda tez-tez sovuq ter chiqib, qo‘lim qaltiraydi	-2	-1	0	1	2	Men kamdan-kam hollarda zo‘riqish, tanamda titroqni his etaman
	Orzu qilishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men xayollarga kamdan-kam berilaman
	Menga tez-tez rahbarlik qilib, boshqalarga bo‘yruq berishga to‘g‘rikeladi	-2	-1	0	1	2	Men kimdir rahbarlikni o‘z qo‘liga olishini ma‘qul ko‘raman
	Men raqbotlashishdan ko‘ra, hamkorlikni afzal bilaman	-2	-1	0	1	2	Jamiyat raqobatsiz rivojlanmagan bo‘lardi
	Men ishga jiddiy va qunt bilan yondashaman	-2	-1	0	1	2	Men ishda qo‘shimcha vazifalar olmaslikka harakat qilaman
	Odatdan tashqari sharoitlarda tez asabiylashaman	-2	-1	0	1	2	Men yangi muhitga oson moslashaman
	Ba‘zan chuqur o‘ygachumaman	-2	-1	0	1	2	Men o‘y-xayollarga vaqt yo‘qotishni yoqtirmayman
	Notanish kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men unchalik kirishimli odam emasman
	Ko‘pchilik odamlar tabiatan yaxshi (xayrli)	-2	-1	0	1	2	Men hayot ayrim odamlarni qahrli qilib qo‘yadi deb hisoblayman
	Ko‘pincha odamlar menga	-2	-1	0	1	2	Ayrim odamlar meni

	mas'uliyatli ishni ishonib topshiradilar						mas'uliyatsiz, deb hisoblaydilar
	Ba'zan o'zimni yolg'iz va g'amgin his etib, qo'limishga bormaydi	-2	-1	0	1	2	Tez-tez biror narsani bajarishga berilib, hamma narsani unutaman
	Go'zallik va zebolik nimaligini yaxshibilaman	-2	-1	0	1	2	Mening go'zallik to'g'isidagi tasaavurim boshqalarnikidek
	Men yangi do'stlar va tanishlar orttirishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men bir nechta ishonchli do'stlar bo'lishini afzal ko'raman
	Men muloqot qiladigan odamlar odatda menga yoqadi	-2	-1	0	1	2	Men yoqtirmaydigan odamlar ham bor
	Men ishda qattiqqo'l va talabchanman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan o'z vazifamga e'tiborsizlik bilan qarayman
	Men qattiq asabiylashsam, ko'nglimga hech narsa sig'maydi.	-2	-1	0	1	2	Menda kamdan kamhollarda g'amgin kayfiyat bo'ladi
	Musiqaga shunday berilamanki, vaqt o'tganini sezmay qolaman	-2	-1	0	1	2	Drama san'ati va balet men uchun zerikarli
	Men katta va quvnoq davralarda bo'lishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men yolg'izlikni yoqtiraman
	Ko'pchilik insonlar pokliklari tufayli ularga ishonish mumkin	-2	-1	0	1	2	Men ba'zan boshqalarga shubha bilan qarayman
	Odatda men vijdonan ishlayman	-2	-1	0	1	2	Odamlar mening ishimdan tez-tez xato topib turadilar
	Mening depressiya (ziqlik)ga tushushim oson	-2	-1	0	1	2	Mening kayfiyatimni buzish imkonsiz
	Haqiqiy san'at asarlaridan zavq olaman	-2	-1	0	1	2	Men kamdan-kam haqiqiy san'at asaridan zavq olaman
	Sport musoboqalariga "ishqibozlik" qilib, barcha narsani unutaman	-2	-1	0	1	2	Odamlarning xavfli sport turlari bilan nima uchun shug'ullanishlariga tushunmayman

	Odamlar bilan ishlaganimda e'tiborli bo'lishga intilaman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan meni boshqalarning dardi bilan ishim bo'lmaydi
	Men kamdan-kam hollarda bajaradigan ishimni o'ylamasdan amalga oshiraman	-2	-1	0	1	2	Men tez qaror qabul qilishni afzal ko'raman
	Mening kamchilik va ojizliklarim ko'p	-2	-1	0	1	2	Mening o'zim haqidagi fikrim yuqori
	Men ruhiy holatimni yaxshi tushunaman	-2	-1	0	1	2	Boshqa odamlar menga qaraganda his-tuyg'usi kamroqdek tuyuladi
	Men xavfdan ogohlantiruvchi signallarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiraman	-2	-1	0	1	2	Xavfli vaziyatlarni chetlab o'tishni ma'qul hisoblayman
	Boshqalarning quvonchlarini o'zimmikidek qabul qilaman	-2	-1	0	1	2	Men boshqalarning kechinmalariga har doim ham sherik bo'lmayman.
	Men odatda tuyg'u va xohishlarimni nazorat qilaman	-2	-1	0	1	2	Menga o'z xohishlarimni tiyib turish qiyin
	Muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berishimga to'g'ri kelsa, bunga o'zimni aybdor sanayman	-2	-1	0	1	2	Ko'pincha mening omadim omadim chopadi va vaziyatlar kamdan kam menga qarshi chiqadi
	Tuyg'ularim hayotimni mazmundor qilishiga ishonaman	-2	-1	0	1	2	Men boshqalarning tashvishlariga kam e'tibor beraman
	Menga karnaval tantanalari va namoyishlari yoqadi	-2	-1	0	1	2	Ko'pchilik bor joylarda bo'lish menga yoqmaydi
	Men o'zga kishilarni tushunish uchun uning o'rniga o'zimni qo'yaman	-2	-1	0	1	2	Men boshqalar kechinmalarining barcha nozik tomonlarni tushunishga intilmayman
	Do'kondan sotib olish lozim bo'lgan naosani uzoq vaqt tanlayman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan narsalarni beixtiyor sotib olaman
	Ba'zan o'zimni nochor	-2	-1	0	1	2	Men odatda o'zimni

	odamdek his etaman						kerak odamdek his etaman
	Men to‘qima qahramonlarning kechinmalariga oson kirishaman	-2	-1	0	1	2	Kino qahramonlarining sarguzashtlari ruhiy holatimni o‘zgartira olmaydi
	Menga e’tibor bilan qarasalar o‘zimni baxtiyor his etaman	-2	-1	0	1	2	Men kamtarin odamman va sababli boshqalardan ajralib turmaslikka harakat qilaman
	Har bir insonning hurmatlashga arziydigan qandaydir jihatlari bor	-2	-1	0	1	2	Men hali hurmatga sazovor bo‘ladigan insonni uchratmadim
	Men odatda harakatlanishdan oldin yaxshilab q o‘ylab ko‘raman	-2	-1	0	1	2	Men o‘z xatti-harakatlarim natijalari haqida oldindan o‘ylab ko‘rishni yoqtirmayman
	Mening kayfiyatim tez-tez ko‘tarilib va tushib turadi	-2	-1	0	1	2	Men odatda bir xil kayfiyatda bo‘laman
	Ba’zan o‘zimni luttiboz, boshqalarni masxara qiluvchi kishidek his etaman	-2	-1	0	1	2	Odamlar ko‘pincha meni zerikarli, ammo ishonchli inson, deb hisoblaydilar
	Men boshqa jins vakillari uchun yoqimliman	-2	-1	0	1	2	Ayrimlar meni oddiy va ko‘rimsiz odam deb hisoblaydilar
	Men har bir kishiga nisbatan mehribon va e’tiborli bo‘lishga intilaman	-2	-1	0	1	2	Ayrim odamlar meni o‘ziga bino qo‘ygan va xudbin, deb o‘ylaydilar
	Sayyohatga chiqishdan oldin aniq reja tuzaman	-2	-1	0	1	2	Men odamlarning nega bunday mukammal reja tuzishlariga tushunmayman
	Mening kayfiyatim qarama-qarshi tomonga oson o‘zgarib turadi	-2	-1	0	1	2	Men doimo xotirjamva vazminman
	Men hayot bu qimor o‘yinidek narsa, deb o‘ylayman	-2	-1	0	1	2	Hayot-bu avloddan-avlodga uzatiladigan tajribadir

	Menga kishini g'ashiga tegadigandek ko'rinishda bo'lish yoqadi	-2	-1	0	1	2	Men jamoat orasida odatda xatti-harakatim va modali kiyimlar bilan ajralib turmayman
	Ayrimlar meni atrofdagilarga nisbatan iltifotli kishi deb hisoblaydilar	-2	-1	0	1	2	Men ko'pincha o'z yutuqlarim bilan maqtanishimni gapiradilar
	Men o'z ishimni aniq va batartib bajaraman	-2	-1	0	1	2	Men o'z tuyg'ularimga ishonib, "oqim bo'ylab suzishni" afzal bilaman
	Men ba'zan juda hayajonlanganligim dan yig'lab ham yuboraman	-2	-1	0	1	2	Men o'z holatimdan chiqarish qiyin
	Ba'zan men o'zimda qandaydir yangilikni kashf etadigandek his etaman	-2	-1	0	1	2	Men o'zimdagi hech narsani o'zgartirmagan bo'lar edim

“Katta beshlik” so'rovnomasining javoblar varaqasi

F.I.Sh _____ yoshi _____ jinsi _____
Mutaxassisligi _____ ma'lumoti _____

I	II	III	IV	V 1
2	3	4	5	
6	7	8	9	10
11	12	13	14	15
1.1=	2.1=	3.1=	4.1=	5.1=

16	17	18	19	20
21	22	23	24	25
26	27	28	29	30
1.2=	2.2=	3.2=	4.2=	5.2=

31

--	--

32

--	--

33

--	--

34

--	--

35

--	--

36			37			38			39			40		
41			42			43			44			45		
	1.3=			2.3=			3.3=			4.3=			5.3=	

46			47			48			49			50		
51			52			53			54			55		
56			57			58			59			60		
	1.4=			2.4=			3.4=			4.4=			5.4=	

61			62			63			64			65		
66			67			68			69			70		
71			72			73			74			75		
	1.5=			2.5=			3.5=			4.5=			5.5=	

I=

II=

III=

IV=

V=

2.2. Sosiotiplarni o'rganish metodikasi

Metodikadan foydalanish tartibi. Sinab ko'rilayotgan (tekshirilayotgan) shaxs (o'quvchi) jadvalda keltirilgan tavsif-mulohazalarjuftligi (1-2, 3-4, 5-6, 7-8)ni sinchiklab o'qib chiqadi. Juftlikdagi tavsiflardan qaysi biri o'zining tabiatiga mos kelishiga qarab, ulardan birini tanlaydi va tartib raqamini yozadi. Natijada to'rtta raqam ketma- ketligi hosil bo'ladi. Bu raqamlar o'quvchi shaxsi tipini ifodalaydi.

Shaxs tiplari: 1357 — «Nozir», 1358 — «Ma'mur», 1368 — «Tadbirkor», 1457 — «Qo'riqllovchi», 1458 — «Tashabbuskor», 1467 — «Insonparvar», 1468 — «Murabbiy», 2357 — «Usta», 2457 — «Vositachi», 2358 — «Marshal», 2458 — «Siyosatchi», 2367-«Tanqidchi», 2467-«Lirik», 2368-«Izlovchi», 2468-«Maslahatchi».

Yo'riqnoma: Metodikadan foydalanishda Siz jadvalda keltirilgan mulohazalarni o'qib chiqib, ularning o'ziga mos kelishiga qarab juft

raqamlardan (1-2, 3-4, 5-6, 7-8) birini tanlab, tartib raqami bo'yicha yozishi talab etiladi va natijada to'rtta raqamli son hosil bo'ladi. Hosil qilingan son o'sha shaxsga xos qaysidir shaxs tipini ifodalaydi

1 Sizning ishga layoqatingiz bir xil bo'lib, faqat ma'lum sabablarga ko'ra o'zgaradi. Qarorlarni yuqori darajada qabul qilasiz va ularni o'zgartirishni xohlamaymiz. Siz belgilangan tartib qoidaga, tartib-intizomga rioya etasiz, batartiblikni yoqtirasiz.	2 Sizning ishga layoqatingiz kayfiyatingizga bog'liq, u asossiz sabablar tufayli ham o'zgarib turadi. Ko'tarinkilik faollikni pasayishi bilan almashib turadi. Siz omadga suyanib, tayyorgarliksiz harakat qilasiz. Sizda qat'iy ish tartibi vako'rsatmalarga amal qilish qiyin.
3 Siz janjal va noxush holatlarning sabablarini ochiqchasiga yoqtirmaysiz. Siz aqlni tuyg'ulardan ustun qo'yasiz. Odamlarni simpatiyasiga qaramay ular maqida maqqoniy mulomaza bildirasiz. O'zingiz va o'zgalarning shaxsiy hayotiga doir mavzularni muvokama qilishni xush ko'rmaysiz.	4 Siz yaxshi munosabat uchun ishda murosaga borishga moyilsiz. Siz odamlar o'rtasidagi mis-tuyg'u va o'zaro munosabatalarga qiziqasiz. Boshqalarga yoqimli bo'lish uchun tez-tez kompliment so'zlardan so'zlashga intilasiz.
5 Siz realistsiz, bo'm-bo'sh xayollarni yomon ko'rasiz. Siz amaliyotchi va faolliyatlisiz. O'zingizga ishonasiz. Bir necha ishga bir vaqtni o'zida bosh urishni yoqtirmaysiz. Ko'pchilik ishlarni o'z qo'lingiz bilan tayyorlashni yoqtirasiz. O'zingiz va boshqalar tomonidan bajarilgan ish natijalarini tekshirasiz.	6 Siz kelajakni yaxshi ko'ra olasiz, o'tmishni tez-tez esga olasiz. O'zgarishlarga va yangilikka intilasiz. To'qlinlanasiz va shubhalanasiz, o'zingizga doimo ishonmaysiz, parishonxotirsiz. Amaliyotdan ko'ra nazariyaga ko'proq tayanasiz.
7 Siz muomalada kuzatuvchan, tortinchoq va tashabbuskor emassiz, yangi kishilarga ishonchsizlik bilan qaraysiz. O'zingizni nazorat qilasiz, o'z xizmatlaringizni namoyish etishni yoqtirmaysiz. Munozaralarda ortiqcha so'zlab qo'ymaslik uchun o'zingizni chetga tortib turasiz.	8 Siz yangi kishilar bilan tez til topishasiz, tanishlar davrasini kengaytirishga intilasiz. Sizda o'zingizdan ko'ra boshqalarni tushunish osonroq. Siz ochiq, boshqalarga zarurat sezmaydigan va impulsivsiz. Siz tez-tez tavakkal qilishga moyilsiz, tortinchoq emassiz.

Shaxsning sosial tiplar sharhi

1. Intuitiv–mantiqiy irrasional ekstravert. Shaxsning ijtimoiy tipi — «Izlovchi».

Bunday tipdagi shaxslardan quyidagilarni talab qilish va kutishda biror foyda bo‘lmasa kerak; amaliy fikrlashni; kerakli joyga aytilgan vaqtda kelish va ishni o‘z vaqtida bajarishni; izchillikni va boshlagan ishni oxiriga yetkazishni; turmushda va ish joyida doimiy tartibga rioya etishni; topshirilgan ishni o‘z vaqtida sifatli bajarishni; suhbatdoshi bilan yumshoq muomala qilishni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* Agar imkoni bo‘lsa, «Izlovchi»ga erkin faoliyatni tavsiya etgan ma’qul. Bunday tipdagi shaxslar uchun iloji boricha qiziqarli va unda har xil taassurotlar qoldiradigan ishlarni tanlash zarur. Uning boshqalarga bog‘liq bo‘lmagan holdamustaqil faoliyat ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. U har xil (ayniqsa o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan) ma’lumotlar ustida tinmay ishlaydi. «Izlovchi» o‘zining aql-kuchidan ilmiy-bilish sohasida foydalangani ma’qul. U istiqbolli hisoblangan sohalarda tub o‘zgarishlarga olib keladigan nazariy ishlanmalar tayyorlashi mumkin. «Izlovchi» harakatchan, doimo oldinga intiladi, o‘z taassurotlarini o‘zgartirib turishni yoqtiradi. Shuning uchun bunday xodimlar, odatda, harakat talab etadigan ishlarni bajonidil bajaradi va tez-tez xizmat safarlarida bo‘lishni afzal ko‘radi.

2. Sensor-etik irrasional introvert. Ijtimoiy tipi — «Vositachi». Undan quyidagilarni talab qilmang va kutmang: doimo yuqori ishchanlik ruhida faoliyat ko‘rsatishni; izchil va tartibli holda ishlashni; ishni yaxshilash yo‘lida murosasiz bo‘lishni; katta jamoani boshqarishni, vazifalarni taqsimlashni; tavakkal qilishga to‘g‘ri keladigan amallarni bajarishda ishtirok etishni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:*

«Vositachi» o‘zini ijtimoiy sohada juda yaxshi namoyon eta oladi.

Ishbilarmonlik va tadbirkorlik ishlarini yaxshi uddalaydi, insonlarga alohida-alohida xizmat ko‘rsatish sohasida muvaffaqiyat bilan ishlaydi.

«Vositachi» solumning infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'la oladi. Shuning uchun u yaxshi ta'minotchi, savdogar, kichik firma direktori, diplomat-menejer bo'lib ishlashi mumkin. «Vositachi» reklama va nashriyot, tibbiyot, xizmat ko'rsatish sohalarida yaxshi faoliyat ko'rsata oladi. Ular sifat baholovchisi, dizayner, dam olishni tashkil etuvchi sifatida ishlashlari mumkin.

3. *Etiko-sensor rasional ekstravert. Ijtimoiy tipi — «Entuziast».* Undan quyidagilarni kutmang va talab qilmang: ishga, odamlarga doimo oqilona va ob'yektiv, emosionalsiz munosabatni; xulq-atvorda noziklikni va vaziyatlarga tez moslashuvchanlikni, ta'masiz altruizmni, odamlar bilan munosabatda murosasizlik va qattiq qo'llikni, yaxshi strategik va texnologik iqtidorni, muddatga qat'iy rioya etishni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turi:* solum infratuzilmasini ta'minlash; reklama; sosiologik so'rovlar; tibbiyot, sog'liqni saqlash; rasmiylashtirish ishlari; xizmat ko'rsatish sohasi, savdo; ijtimoiy va ilmiy sohada tashkilotchilik faoliyati (ko'rgazmalar, simpoziumlar, dam olish va bayram tadbirlarini tashkil etish).

4. *Mantiqiy-intuitiv rasional introvert. Ijtimoiy tipi — «Analitik».* Undan katta amaliylik va safarbarlikni; sezgirlikni; suhbatdoshiga nozik munosabatda bo'lishni; o'zi uchun qiziqarli bo'lmagan ishlarni sifatli bajarishni; muloqotmandlikni talab qilmang va kutmang. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* ilmiy tadqiqot va tahlil ishlari (murakkab hodisa va ob'yektlarni tahlil etish); amalda qo'llash uchun yangi g'oyalarni ishlab chiqish. Tizimli tahlil, sxemalar tuzish va tasniflash, konsepsiyalarni ilgari surish talab etiladigan sohalarida yaxshi faoliyat ko'rsatadi. Amerika ilmiy ishlanmalarida bunday tipdagi shaxslar «biznesni qayta tashkil etuvchi» deb ataladi.

5. *Etiko-intuitiv rasional ekstravert. Ijtimoiy tipi — «Murabbiy».* Undan quyidagilarni talab qilib va kutib bo'lmaydi: barqaror nekinlik (optimizm)ni; ishda tezkor va aniq natijani; masalalarga hushyor,

xolis, hissiyotlarga berilmasdan qarashni; vaziyatni ishonchli tahlil etishni; muoamalarda oddiylik va demokratiya tamoyilariga amal qilishni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* biror g'oya, dunyoqarash, dinni tashviqot-targ'ibotetuvchi ijtimoiy sohalar; mijozlarga hissiy ta'sir etuvchi sohalar (masalan, sug'urta bo'yicha agent), his-tuyg'uni yaqqol ifodalovchi san'at sohasi (teatr, estrada, notiqlik san'ati).

6. *Mantiqiy-sensor rasional introvert. Ijtimoiy tipi —«Nozir».* Undan odamlarga yumshoq muomala qilishni; ularning individual qobiliyatlarini doimo inobatga olishni; vaziyatga mos holda moslashishni; prinsipial masalalarda muloyimlik va yon berishlikni; konseptual g'oyalar ishlab chiqishni talab qilib va kutib bo'lmaydi. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* «Nozir» vazifalarni yaxshi taqsimlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi, shu bois 8 -10 kishidan iborat guruhlariga yaxshi rahbarlik qiladi. Kichik bulimlarda yaxshi rahbar bo'la oladi. Shuningdek, rasmiylashtirish ishlarini yaxshi bajaradi, qo'li gul usta bo'lishi mumkin. Texnikani yaxshi ishlata biladi. U nazoratchi, yo'llanma beruvchi, hujjatlarni rasmiylashtiruvchi, soliq noziri, tergovchi bo'lishi ham mumkin.

7. *Sensor-mantiqiy irrasional ekstravert. Ijtimoiy tipi — «Marshal».* Undan izchillikni; boshqalarga yumshoq muomala qilishni va yon berishlikni, agressiyaga berilmaslikni; «g'oya» uchun tekinga ishlashni; bashorat qilishni talab etmang va kutmang. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* «Marshal» tipidagilar boshqalarni yaxshi boshqara oladi, vazifalarni to'g'ri taqsimlaydi. Zaruriy tashkiliy tuzilmalarni ikir-chikirigacha o'ylab ko'rishva uni ketma-ket amalga oshirish qobiliyatiga ega. Odamlarni nafaqat saralab tanlaydi, balki ularni ish orqali sinab ko'radi, qo'l ostida xizmat qiladiganlarni ma'lum doirada qattiq tutib turadi, zarur bo'lganda noommabop choralarni qo'llaydi, irodaviy ta'sir o'tkaza oladi. Amaliyotchi, ishdan keladigan foydani to'g'ri chamalaydi. qo'l bilan ishlashga va buyumlarni tuzatishga mohir. «Marshal»lar boshqaruv sohasida, texnika, milisiya, harbiy

sohalarda yaxshi faoliyat ko'rsatadi. Ular turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida ishlashlari mumkin.

8. *Intuitiv-etik irrasional introvert. Ijtimoiy tipi— «Lirik».* Bunday tipdagi shaxslardan quyidagilarni kutmang va talab ham qilmang: doimo yuqori ishchanlik ruhida faoliyat ko'rsatishni; izchil va tartibli holda ishlashni; ishdan tez aniq natijalarga erishishni; vaziyatni yaxshi tahlil qilishni; katta jamoani boshqarishni, vazifalarni taqsimlashni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* «Lirik»larning gumanitar yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgani ma'qul. Unga yaxshi muomala talab etiladigan uncha katta bo'lmagan jamoada ishlash qulay. «Lirik»lardan yaxshi kotib («Marshal» rahbarligi ostida), tarjimon, kutubxonachi, adabiyotchi, jurnalist, muharrir chiqadi. Ular o'zlarini san'at sohasida ham ancha yaxshi namoyon eta oladi (teatr tanqidchisi, shoir sifatida).

9. *Mantiqiy-intuitiv rasional ekstravert. Ijtimoiy tipi — «Tadbirkor».* Undan quyidagilarni talab qilib va kutib bo'lmaydi: qarorlar qabul qilishda sabr va vazminlikni, katta ishlarda diqqat-e'tiborni; ish joyida va turmushda doimiy tartibni; doimo bir xildagi yoqimli va go'zal tashqi ko'rinishni; uzoqni o'ylab ish qilishni va psixologik syezgirlikni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* «Tadbirkor» keng dunyoqarash, ishga nostandart yondashish, nazariy ishlanmalarni amaliyotda qo'llash talab etiladigan innovasion sohalarda o'zini yaxshi namoyon eta oladi. U yaxshi ixtirochi va rasionalizator bo'lishi mumkin. Uning jadal sur'atlar bilan ishlashi va harakatchanligini inobatga olib, unga xizmat safarlari bilan bog'liq ishlarni tavsiya etgan ma'qul. «Tadbirkor»lar tijorat ishlarida tavakkal qilishdan qo'rqmaydi, bu esa uni biznes ishida ma'lum va mashhur qilishi mumkin. Ular qiziqarli, istiqbolli, jadal rivojlanuvchi va batafsillikni talab etmaydigan turli ishlar bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin.

10. *Etiko-sensor rasional introvert. Ijtimoiy tipi — «qo‘riqlovchi».* Undan hayotga doimo ijobiy munosabatda bo‘lishni, axloqqa zid xatti- harakatlarga befarq bo‘lishni, e‘tiqodi va baholash mezonlarini tez o‘zgartirishni, muammo yechimini topishga mutlaqo yangicha yondashishni talab etib va kutib bo‘lmaydi. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* bunday tipdagi shaxslar odamlar bilan o‘zaro munosabatni talab etuvchi ijtimoiy sohalar — tibbiyot va sog‘liqni saqlash, ayniqsa, amaliy yo‘nalishlar — stamotologiya, massaj, tibbiyot hamshirasi, sanitarka, fizioterapiya, igna bilan muolaja qilish, rengenoskopiya, bioximik tashxis; tovarlarni taqdim etish, xizmat ko‘rsatish sohasi (moddiy boyliklar va pulni saqlash); xizmat ko‘rsatish xarakteridagi hisobchilik ishlarini, kassirlikni tanlagani ma’qul.

11. *Sensor-etik irrasional ekstravert. Ijtimoiy tipi—«Siyosatchi».* Undan punktuallik va majburiylikni; ishda izchillik va mantiqiylikni; vazifalarni to‘g‘ri taqsimlashni; chuqur strategik va tahlil qilish qobiliyatini; moddiy boyliklarni taqsimlashda adolatni, bergan va’dalarining ustidan chiqishni talab etish va kutish foydasiz. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* ijtimoiy soha; savdo (ayniqsa ko‘tara savdo); moddiy resurslar bilan ta’minlash; diplomatik vakillik, shou-biznes, ko‘ngil ochar, estrada bo‘yicha ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish.

12. *Intuitiv-mantiqiy irrasional introvert. Ijtimoiy tipi — «Tanqidchi».* Undan ishda tezkorlikni; ekstremal vaziyatlarda jur‘at va dadillikni; mehmondo‘stlik va g‘amxo‘rlikni; hissiy hamdardlikni talab etib va kutib bo‘lmaydi. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* amaliy xarakterdagi ilmiy-tadqiqot faoliyati, dasturlash; matematika va fizika; makroiqtisodiyot; murakkab muammolarni konseptual tahlil etish; xavf-xatar darajasini baholash; ekspertiza va prognoz; falsafa; tarix va arxeologiya; arxiv va kutubxonachilik ishlari.

13. *Mantiqiy-sensor rasional ekstravert. Ijtimoiy tipi — «Ma’mur».* Undan vaziyatga mos tarzda xulq-atvorini o‘zgartirishni; odamlar

bilan munosabatda yumshoqlik va diplomatiyani; ekstremal vaziyatlarda o'zini tuta bilishni va sovuqqonlikni; nostandart g'oyalarni ishlab chiqishni talab qilib va kutib bo'lmaydi. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari va kasblar:* o'zgakishilarga rahbarlik qilish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish zarur bo'lgan boshqaruv sohasi (barqaror vaziyat va qonunlar hukm surgan holda); iqtisodchi, bankning kredit bo'limi xodimi, firmada ishlarni taqsimlovchi texnik yordamchi; texnik jarayonlarni kuzatib boruvchi (texnikani ta'mirlash va ishlatishni); qurilish; qishloq xo'jaligi; fermerlik sohalari.

14. *Etikaviy-intuitiv rasional introvert. Ijtimoiy tipi — «Insonparvar».* Undan quyidagilarni talab qilmang va kutmang: ishda uddaburonlik va tashabbuskorlikni; ekstremal vaziyatlarda hal etuvchi qarorlar qabul qilishni; katta safarbarlikni; qiziqarsiz va manfaatsiz ishlarni tez va sifatli bajarishni, tashkilotchilik qobiliyatini. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* «tugarak» ko'rinishidagi tarbiyaviy ishlar; psixoterapiya, falsafiy-gumanitar soha; portret va syujetli fotografiya bilan bog'liq ishlar.

15. *Intuitiv-etika irrasional ekstravert. Ijtimoiy tipi — «Maslahatchi».* Undan quyidagilarni talab qilmang va kutmang: ishni sifatlibajarishni; hujjatlashtirish ishlarini izchil yuritishni; o'z-o'zini yuqori darajada uyushtirishni; boshqa odamlarga samarali rahbarlik qilishni va vazifalarni to'g'ri taqsimlashni; nizoli vaziyatlarda his-hayojonga berilmaslikni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* gumanitar soha; pedagogika; san'at; jurnalistika; oilaviy psixologik maslahatlar; tanishuv xizmatlari; imidj-meykerlik; reklama.

16. *Sensor-mantiqiy irrasional introvert. Ijtimoiy tipi — «Usta».* Undan quyidagilarni talab qilib va kutib bo'lmaydi: voqealarga emosional munosabatda bo'lishni va unda bevosita ishtirok etishni; omadsizligi tufayliboshqalar tomonidan ayblanayotgan kishiga hamdardlik bildirish va uni qo'llab-quvvatlashni. *Tavsiya etiladigan faoliyat turlari:* xo'jalikni

oqilona yuritish; aniq texnikaga xizmat ko'rsatish; buyumlarni sifatli rasmiylashtirish, o'rta bo'g'indagi boshqaruvchilik faoliyati; kichik biznes; ishchi o'rinlarini va interyerani rasmiylashtirish.

Albatta, shaxslarni tiplarga ajratish nisbiy, uni mutloqlashtirish o'rinli emas. Bundan tashqari, shaxs tiplarining psixologik xususiyatlarini tahlil etishda «yondosh tiplar»ga xos bo'lgan o'xshash sifatlar kuzatilishini, ularninghayotiy tajribasi, aqliy imkoniyatini e'tiborga olish lozim. Umuman, shaxs psixodagnostikasi juda murakkab bo'lib, unda xilma-xil ziddiyatli qarashlar mavjud. Shuning uchun ko'proq amaliy kuzatish natijalariga, psixologiyada qo'llanilayotgan turli amaliy metodikalar natijalariga tayanib, xulosalar chiqarish maqsadga muvofiq.

2.3. MOTIV VA MOTIVATSIYA

Yo‘riqnoma: Siz yuklatilgan toshiriqni belgilangan bosqichi yakunlangach so‘rovnoma savollarini diqqat bilan o‘qing va javob bering. Siz birinchi bosqich vaziflar hal etilsa-da , ammo vazifalarning davomi borligini esda tuting. Har savolga tartibli va ketma-ketlikda javobingizni qayd eting. Siz unga qo‘shilasizmi yoki yo‘q shunga ko‘ra shkalalardan birini doiracha oling. Siz javoblaringizni quyidagiga asoslanib berishingiz mumkin: to‘liq qo‘shilaman Q3, Q2-qo‘shilaman, Q1-qisman qo‘shilaman; -3-mutlaqo qo‘shilmayman, -2 qo‘shilmayman, -1-qisman qo‘shilmayman, agar siz hech biriga qo‘shilmasangiz –0 aylana ichiga olib qo‘yishingiz mumkin.

№	Test tasdiqlari	Shkalalar
	Tadqiqotdan bezorman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men imkoniyatim darajasida ishlayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men nimaga qodirligimni namoyon etishni xohlayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Menda yuqori natijalarga erishishga intilish xohishi bor	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Nimagadir erishish men uchun qiziqarli	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Topshiriqlar hatdan ortiq murakkab	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Qiladigan ishlarim hech kimga kerak emas	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Mening natijalarimni boshqalarnikiga qaraganda yaxshi yoki yomon ekanligi qiziqtiradi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men o‘z ishim ustida tez shug‘illanaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Meni natijalarim yuqori bo‘ladi deb o‘ylayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Bu vaziyat menga noxushlik tug‘diradi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Yaxshi natijaga qarab uni yanada rivojlantirishga intilaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men tirishqoqman	-3-2-1 0Q1Q2Q3

	Men erishayotgan yaxshi natijalar tasodif emas	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Topshiriqlar yetarlicha qiziqarli emas	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men o'zimga vazifalar qo'yaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Meni natijalar bo'yicha beriladigan xulosalar bezotalantiradi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men kuchimga kuch qo'shilganligini his etayapman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Yaxshi natijalarga erishish ham menga ta'sir ko'rsatmaydi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Hozirgi vaziyat men uchun ahamiyatli	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men oldimga murakkab vazifalar va topshiriqlar qo'yilishini xohlayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Natijalarga e'tiborsizlik bilan qarayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Qancha ishlasa shuncha qiziqish ortadi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men ushbu vazifalarni yakunlashga shoshilmayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	<i>Meni natijalarim mutloqo past bo'ladi</i>	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Qanchalik harakat qilmay natijalar past bo'ladi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men hozir bu sinovdan ko'ra boshqa ma'qulroq ish bilan shug'ullanishni xohlayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Topshiriqlar mutlaqo sodda	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men yaxshi natijalarga erishishga layoqatliman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Maqsad murakkab bo'lsa unga erishish xohishim yuqori bo'ladi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf eta olaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Natijalarimni boshqalarniki bilan solishtirish menga qiziqarli	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men topshiriqlar ustida ishlashga qiziqaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Mening natijalarim past bo'lib qolishidan xavotirlanaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3

	Men o‘zimni mustaqil his etaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Menga vaqt va quvvatimni bekorga yo‘qotgandek tuyulayapdi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men yarim quvvat bilan ishlayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men imkoniyatlarimning chegarasi qiziqtiradi	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Meni natijalarim eng yaxshilaridan biri bo‘lishini istayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Men maqsadga erishish uchun kuchim yetishiga harakat qilaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Mendan hech narsa chiqmasligini his etaman	-3-2-1 0Q1Q2Q3
	Sinovni loteriya deb hisoblayman	-3-2-1 0Q1Q2Q3

Testning kalit

№	Motivatsiya tuzilmasining komponentlari	Tasdiq nomerlari
1	Ichki motiv	15 ₀ , 23, 33
2	Bilish motivi	5,22 ₀ ,38
3	Qochish motivi	11,17,34
4	Musoboqalashuv motivi	8,32 ₀ ,39
5	Faoliyatni almashtirish motivi	1,9,27
6	O‘zini e‘zozlash motivi	12,21,30
7	Natidalarining ahamiyatliligi	7,20 ₀ ,36
8	Topshiriqlarning murakkabligi	6,28 ₀
9	Irodaviy quvvat	2,13,37 ₀
10	Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	19 ₀ ,29
11	O‘z imkoniyatlarini bahosi	18,31,41 ₀
12	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi	3,24 ₀ ,40
13	Natijalarni kutilganlik darajasi	10, 25 ₀

14	Natijalarning qonuniyati	14,26 ₀ ,42 ₀
15	Tashabbuskorlik	4 ₀ ,16,35

Sinaluvchilarning to‘g‘ri va teskari yo‘nalish

bo‘yicha javoblarini ballash qoidasi

Almashtirish	Javoblar shkalasi						
	-3	-2	-1	0	Q1	Q2	Q3
To‘g‘ri	1	2	3	4	5	6	7
Teskari	7	6	5	4	3	2	1

Testning shkalalari

№	Motivatsiya tuzilmasining komponentlari	Motivlarning mazmuni
1	Ichki motiv	Topshiriqlarning jalb etuvchanligi, topshiriqqa nisbatan qiziqishning mavjudligi
2	Bilish motivi	Sub'yektning o‘z faoliyat natijalariga qiziqishi, natijalardan qoniqishi
3	Qochish motivi	Natijalarni past bo‘lishi va qoniqmaslikni keltirib chiqarishidan qochish
4	Musoboqalashuv motivi	Natijalarini boshqalarnikidan ustunroq bo‘lishga intilishi
5	Faoliyatni almashtirish motivi	Faoliyatni o‘zgartirish xohishini paydo bo‘lishi, boshqa faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga urinish
6	O‘zini e‘zozlash motivi	Faolitni qat’iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalar qo‘yish va amalga oshirishga intilish
7	Natijalarning	Sabab va oqibat tamoyiliga ko‘ra, muhim shart-

	ahamiyatligi	sharoitlarga ko'ra ish tutish, faoliyat natijalariga shaxslik mazmunini berish
8	Topshiriqlarning murakkabligi	vazifalarning murakkabligi
9	Irodaviy quvvat	Topshiriqlarni bajarishdagi irodaviy quvvatni namoyon bo'lishi
10	Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	Ushbu faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholashi
11	O'z imkoniyatlarini bahosi	Imkoniyatlarini baholash
12	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi	natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishi
13	Natijalarni kutilganlik darajasi	Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi
14	Natijalarning qonuniyati	Natijalarning motivatsiya tuzilmasiga ta'siri, unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar, natijalarni tasodiflarga, vaziyatlarga va shaxsiy imkoniyatga bog'liqligi
15	Tashabbuskorlik	Qo'yilgan topshiriq qanchalik tashabbus asosida yoki biron bir kishining rahbarligita'siri tarzda amalga oshiriladi

2.4.

SHAXSLARRARO MUNOSABAT DIAGNOSTIKASI

2.4.1. Yu.Ya. Rijonkinning kommunikativ distansiyani (oraliqni) aniqlash metodikasi (KDAM)

KDAMdan yana foydalanish tekshiriluvchilar uchun ortiqcha muammo tug'dirmaydi. Bu voqelikni uning umumiy tavsifidan payqash mumkin. Metodika muloqotdoshlarni ma'lumot ayriboshlash jarayonida bir- biriga o'zaro ta'sirlashuvi, mazkur jarayonidagi oraliqqa aniqlik kiritadi. Buning uchun muomala ishtirokchilari bir-biriga qanchalik yaqin yoki uzoq turishi hamda o'rtadagi kommunikativlik (kommunikator varesipiyent) rolini aniqlashda bir qator topshiriqlarni bajarishlari lozim. Tekshiriluvchi guruhning har bir a'zosi o'zaro bir-birlarini yoqtirishiga qarab, bir-biridan 100 mm o'lchamda ajratilgan ikki nuqta orasidagi masofani hosil qiluvchi qutblarga ko'ra 100 balli shkalada baholashi shart. Muloqotdoshlarni o'zaro yoqtirish xususiyatini baholashga qutbdagi nuqtalar orasidan to'g'ri chiziq o'tkazish orqali, "Men" olmoshi ifodalangan nuqtadan familiya ko'rsatilgan nuqtaga qarab yoki aksincha ifodalash yordami bilan erishiladi. Birinchi hosil qilingan uzunlik("Men"dan muloqotdagi sherikgacha) sherikka nisbatan axborot almashishdagi ob'yekt sifatida qiziqqanlik darajasini, ikkinchisida esa (sharikdan"Men"gacha) jarayonning sub'yekti ma'nosini bildiradi. Biz kartochkaning taxminiy namunasini tayyorlashda metodikadan foydalangan boshqa mualliflarning namunasiga tayandik (Gaynutdinov Ram Z. 1986) hamda o'qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida o'quvchilar bilan (Rasulov A.I. 2001) o'zaro munosabati darajalari va hokazo. Xuddishu sababdan uning namunasini keltirib o'tamiz.

Metodika blankasiga hech qanday ortiqcha ifodalarsiz faqat nuqtalar aks ettirilishi lozim. Tekshiriluvchilar bilan eksperimento'tkazilgandan keyin test blankalarini solish uchun pochta konverti beriladi. Konvertning yuqori qismida tekshiriluvchilar o'zlari haqida barcha zaruriy ma'lumotlarni, ya'ni familiyasi, ismi, bajarilgan muddati va boshqalarni qayd etishlari zarur. Shuningdek, metodikaning

kommunikativ oraliq darajalarini belgilovchi ko‘rsatkichlari mavjud. Bizga qadar metodikadan foydalangan mualliflar kommunikativ oraliqning darajalari va ularning me‘yoriy ko‘rsatkichlarini taqdim etganlar. Bu esa bizning metodikadan foydalanishimizga ancha qulaylik tug‘dirdi.

1- ilova

Kommunikativ oraliq darajalari

№	Munosabat darajalari	Kontinuum	Munosabat darajalari	Kontinuum	
		Bir yoklam a; Ikki yoklam a		Bir yoklam a	Ikki yoklam a
	Zaruriy-majburiy	0-0,21;	Majburiy	0-12	-1-(-0,75)
		-1,00-(-0,58)	Zaruriy	0,13 - 0,21	-0,76-(-0,58)
	Rasmiy-konvensional	0,22- 0,67; -0,57-0,34	Salbiy rasmiy	0,22-0,30	-0,57-(-0,40)
			Rasmiy	0,31- 0,55	-0,39-(-0,10)
			Ijobiy rasmiy	0,56-0,67	-0,10- 0,34
	Dildan ishonish	0,68-1,00;	Ishonchli	0,68- 0,79	0,35- 0,58
		0,35-1,00	Intim	0,80-1,00	0,59-1,00

2.4.2. Sosiometriya

Sosiometrik o‘lchash maqsadi: a) guruhdagi jipslik va munosabatdagi tarqoqlikni; b) guruhdagi pozisiya, simpatiya va antirativiyaga ko‘ra guruh a‘zolarining nufuzini o‘rganish v) guruh tarkibidagi norasmiy liderni aniqlash

Sosiometrik kartochka


Sosiometrik kartochka							
№	Tip	Mezonlar				Tanlanmalar	
1	O‘qishda	a)Guruh sardori sifatida kimni tanlagan bo‘lardingiz?					
		b)Guruh sardori sifatida kimni tanlamagan bo‘lardingiz?					
2	Bo‘sh vaqtda	a) Tug‘ilgan kuningizda kimni taklif etgan bo‘lardingiz?					
		b)Tug‘ilgan kuningizda kimni taklif etmagan bo‘lardingiz?					

Sosiomatrisa

N-guruh a‘zoli guruh uchun sosiomatrisa namunasi												
№	Tanlovchilarning familiyasi. J-tekshiriluvchi guruh a‘zolari	i- tanlanuvchilarning a‘zolari								Amalga oshirilgan tanlovlar		Jami
		1	2	3	4	5	.	.	.	(Q)	(-)	
1	Sharopova		Q	Q	-	-				2	2	4
2	Quvondiqov	Q		Q	-	-				2	2	4
3	Dilmurodov	Q	Q		-	-				2	2	4
4	Xoliqova	Q	Q	-		Q				3	1	4
5	Jo‘rayeva	Q	-	-	-					1	3	4
...	...									..	..	..
N												
	Olingan $\sum (Q)$	4	3	2	0	1				10		
	Olingan $\sum (-)$ tanlanma	0	1	2	4	3					10	

	Jami											20
--	-------------	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	-----------

Sosiogramma



Sosiometriya indekslari

1. Sosial status indeksi. i-a'zoning sosiometrik nufuzi (statusi) indeksi:

$$S_i = \frac{\sum_{j=1}^n (R_{ij} - Q_j)}{N-1}$$

S_{i-i} - a'zoning sosiometrik statusi, R_i -a'zo bo'yicha olingan tanlanmalar, Σ -algebraik yig'indi, N-guruh a'zolari soni

2.Emosional ekspansivlik indeksi. j-guruhning a'zosi uchun hisoblanadi.

$$Y_{ej} = \frac{1}{N-1} \sum_{k=1}^n (R_j^Q R_{jk}^-)$$

Y_{ej} -j- a'zoning emosional ekspansivligi, R_j -a'zo bo'yicha olingan tanlanmalar, Σ -algebraik yig'indi, N-guruh a'zolari soni

3.Guruhning emosional ekspansivlik indeksi.

$$A_g = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^n \left(\sum_{k=1}^n (R_j^Q R_{jk}^-) \right)$$

A_g - guruhning ekspansivligi, N-guruh a'zolari soni

4.Guruhning o'zaro hamjihatligi (jipslik) indeksi.

$$G_g = \frac{1}{\sqrt{2} N(N-1)} \sum_{ij=1}^n \left(\sum_{q=1}^n (A_{ij}^Q) \right)$$

G_g -guruhning jipslik indeksi, A_{ij}^Q -guruhdagi ijobiy o'zaro aloqalar, N-guruh a'zolari.

2.4.3.

“**.ÄË'Ë ÎÄÚÓ%ÖË**

...o'‘Ëq ÎÓÏ: qÛËË% ÎÄÎÚË'ËÎ, ðÛËË%Ëq ÎÏ' qÏÎ~ÏËÎ òËÁËË,,
 1ÏÚÚË-hÏ'ÏÏÚËË,,ËÁ, 1ÛÎq-ÏÚ,Ó'ËË,,ËÁ, ·Ó-qÏÎÏ'ÏÏ
 ÎÛÎÓòÏ·ÏÚËË,,ËÁËË ËÛÓ%ÏÏ'Ë,,Ï Îó'‘Ï ÎÓò úÍË ÎÓò ÍÄÎÏòËË,,ËËË
 ·ÏhÓÎÏË,, ÿ,Ï' ÎÓò ÍÄÎ,ÏÏ hÓÏÏ'‰Ï' hÏÏ, ÏÏ hÓÎ‰Ï' Ëó'qª ËÏ,Ó·ËËË
 ·Ä'ËË,, ¯ÏÏ,Ó·ÎÏ'ËË,,ËÁËË ÎÏ1òÛò ËÏ,Ó·ÎÏ' ,Ï'ÏqòË,,Ï ·ÄÎ,,ËÎÏË,,

1. O‘zaro yordamga hamkorlikga qobiliyatli.
2. O‘ziga ishongon.
3. Boshqalar hurmatini qozongan.
4. Uning ustidan xukmdorlikni yoqtirmaydi.
5. Ochiq ko‘ngil.
6. Shikoyatchi arzchi.
7. Ko‘pincha boshqalar yordamiga muhtojlik sezadi.
8. Rag‘batga muhtoj.
9. Ishonuvchan va boshqalarga quvonch ulashishga intiladi.
10. Ma’sulyatni yoqtiradi.
11. Salobatli ko‘rinadi.
12. Hamiyatli (o‘z qadr-qimmatini biladi).
13. Ruhlantiruvchi.
14. Yaxshilikni biluvchi.
15. Jahldor, shafqatsiz.
16. Maqtanchoq.
17. O‘zini o‘ylovchi.
18. Nahoqlikni tan olishga qodir.
19. Zolim (mustabid).
20. O‘z fikrida tura oluvchi.
21. Bag‘ri keng, nuqsonlarga bardoshli.
22. Amirona-kekkaygan.
23. Homiylik qilishga moyil.
24. Hayratlantirishga qodir.
25. Boshqalarga qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi.
26. Kechiruvchan.
27. Beozor.
28. Loqayd bo‘lishi mumkin.
29. Beg‘araz.
30. Maslahat berishni yoqtiruvchi.

31. Yordamga muhtoj, mustaqil emas.
32. O‘ziga ishonuvchan va tirishqoq.
33. Har kimdan hayratlanishni kutuvchi.
34. Ko‘pincha homush.
35. Unga ta’sir o‘tkazish qiyin.
36. Dilkash va murosali.
37. To‘g‘ri so‘z va cho‘rtkesar.
38. Alamzada (jahldor).
39. Tobelikni yoqtiradi.
40. Boshqalarga hukmron.
41. O‘ziga tanqidiy bo‘lishga qodir.
42. Ko‘ngli ochiq, sahiy.
43. Muomalada doim xushmuomala.
44. Yon beruvchi (Kelishuvchan).
45. Uyatchang. Tortinchoq.
46. Boshqalarga g‘amxo‘rlikka moyil.
47. Shaxsiyatparast (faqat o‘zini o‘ylaydi).
48. Ko‘ngilchan.
49. Muhtojlarga hamkor.
50. Buyruq berishga uddaburon.
51. Ko‘pincha hafsalasi pir bo‘ladi.
52. Bir so‘zli, lekin adolatli.
53. Ko‘pincha adolatli.
54. Boshqalarga tanqidchan.
55. Doim xayrixoh.
56. Noxolisona baholovchm odam.
57. Ishonchsizlik to‘g‘dirishga moyil.
58. Boobro‘ ishonuvchan.
59. Rashkchi.
60. Dod-voy qilib yurishni yoqtiradi.

61. Tortinchoq.
62. Arazchan va injiq.
63. Ko‘pincha xayrixoh emas.
64. Hukmron.
65. Tashshabuskor emas.
66. Qattiqqo‘llikka moyil.
67. Xushmuomala.
68. Hammani yoqtiradi.
69. Tadbirkor, omilkor.
70. O‘ta rahmdil.
71. E‘tiborli va yoqimli.
72. Ayyor va pishiq.
73. Atrofdagilar fikrini qadrlovchi.
74. Takabbur va mag‘rur.
75. O‘ta ishonuvchan.
76. Har kimga ishonishga tayyor.
77. Xijolatpaz.
78. Mustaqil.
79. Xudbin.
80. Nozik ta‘b, ko‘ngilchan.
81. Boshqalar ta‘siriga beriluvchan.
82. Hurmatli.
83. Boshqalarda taassurot uyg‘otuvchi.
84. Yumshoqko‘ngil.
85. Maslahatlarni qabul qiluvchi.
86. Rahbarlik talantiga ega.
87. Noqulaylikka tez tushuvchan.
88. Xafachilikni eslab yuruvchi.
89. Do‘stlar ta‘siriga beriluvchan.
90. Qarama-qarshilik ruhiga moyil.

91. Ortiqcha ko'ngilchanligi bilan odamlarni buzadi.
92. Atrofdagilarga o'ta muruvvatli.
93. Shuxratparast.
94. Har kimning ko'nglini olishga intiluvchan.
95. Hayratlanuvchi, taqlidga moyil.
96. Jon deb bo'ysunuvchi.
97. Hamma bilan kelishuvchan.
98. O'zining zarariga hisobiga, boshqalarga g'amho'r.
99. Jizzaki.
100. Uyatchang.
101. Bo'ysunishga o'ta tayyorligi bilan farqlanuvchi.
102. Do'stona, xayrixoh.
103. Saxovatli ishonch tug'diruvchi.
104. Sovuq, bag'ritosh.
105. Muvaffaqiyatga intiluvchi.
106. Boshqalar xatosiga beshafqat.
107. Hammaga bir xil iltifotli.
108. Qattiqqo'l, lekin adolatli.
109. Hammaga mehr-muhabbatli.
110. G'amxo'rlik qilishlarini yoqtiradi.
111. Deyarli, hech kimga e'tiroz bildirmaydi.
112. Yumshoq, ko'ngilchan.
113. Boshqalar u haqida yaxshi fikrdalar.
114. Qaysar, o'jar.
115. Kerak bo'lganda sabotli va keskin.
116. Samimiylikka moyil.
117. Kamtar.
118. O'z-o'ziga murruvatli bo'lishga qobil.
119. Sershubha.
120. Zahar tilli, istehzoli.

121. Shilqim.
122. Kek saqllovchi.
123. Musobaqalashishni yaxshi ko‘radi.
124. Boshqalar bilan chiqishishga intiluvchan.
125. O‘ziga ishonchsiz.
126. Har kishiga tasalli berishga intiladi.
127. O‘z-o‘zini qiynovchi (ichidan siqilib yuruvchi).
128. Hissiz. Loqayd.

T.Liri metodikasining yana qulay jihatlari uning tarkibiga kiruvchisavollarning (114 ta xarakterologik xususiyatlardan tarkib topgan) tizimlashganligi va ularning bir necha omillar asosida (8 ta psixologik tendensiyalarga) tahlil etish mumkin. T.Liri metodikasidagi oktantlarning har biri o‘zida bir necha darajani (to‘rt daraja) ifoda etgan bo‘lib, ularda quyi, o‘rta, yuqori va ekstremalga ajratiladi. Shuningdek, metodikada,

I. Liderlikka moyillik, hukmronlik, zulmkor

II. O‘ziga ishonch-o‘zini yaxshi ko‘rish

III. Talabchanlik-murosasiz, shafqatsiz

IV. Ishonchsizlik (skeptizm)- kaysar-salbiylik (negativizm)

V. Yon berishlik-beozor-passiv bo‘ysunuvchanlik

VI. Ishonuvchanlik-itoatkorlik-tobelik

VII. Ko‘ngilchanlik-mustaqil emas, haddan tashqari yon beruvchan

VIII. Rahimdillik-beg‘arazlik-fidokorlik singari oktantlar bilan bir qatorda shaxsning psixologik qiyofasini (profilini) ochib berishga yordam beruvchi ikkita omilga tayanishini ham aytib o‘tish joiz. Chunonchi ular, ustunlik yoki yetakchilik hamda do‘stonalik omillaridir. Shaxsiy qiyofani ifodalashda esa diskogrammadan foydalaniladi. Shuningdek, metodika natijalarini sharhlash uchun kulaylikni hisobga olgan holda ularning balli darajalarini aks ettiruvchi quyidagi jadvalni taqdim etishni lozim topdik. Jadvalda har bir oktant natijalari ballar bo‘yicha nimani ifodalashi keltirilgan:

“ . ÀË‘È ò “Ó, ÌÓÏ±ÒËÈËÌ, Í±ÎËÚË

Oktant №	Savollar nomeri
I.	3,10,11,19,20,22,24,30,33,40,50,64,83,86,105,113
II.	2,12,16,28,32,47,56,69,72,74,78,79,93,104,118,123
III.	5,15,17,37,52,53,54,63,66,99,106,108,115,116,120,128
IV.	4,6,34,35,38,51,57,59,60,62,68,89,90,114,119,122
V.	18,27,41,44,45,48,61,65,77,96,100,101,112,117,125,127
VI.	9,7,8,14,25,31,39,58,75,82,85,87,95,110,111,121
VII.	1,36,43,55,68,71,73,76,81,84,94,97,102,107,109,124
VIII.	13,21,23,26,29,42,46,49,67,70,80,91,92,98,103,126

T.Liri testining sifatlarni baholash jadvali

Oktan tlar	Munosabatl ar	Tekshiriluvchilar to‘plagan ball miqdori			
		3-4	5-8	9-12	13-16
I	Liderlik-ka moyil- lik.Hukm- ronlik	Maslahatlar berishga intiluvchan	Tashki- lotchi- likka qobili- yatli	Tanqidlar-ni qabul qila olmaydi	Fikrlari qotib qolganva zulmkor
II	O‘ziga ishonch -o‘zini yaxshi ko‘rish	Ishonchli, mustaqil	Raqobat- lashish-ga qobi- liyatli	Guruhda ajralib turuvchi	Kibr- havolik, mag‘rurlani sh
III	Talabchan -lik muro- sasiz, shafqatsiz	Ochiqlik, bevositalik	Qat’iy-lik	Haddan ortiq- o‘jarlik	O‘zini tuta olmaydigan. Jahli tez
IV	Ishonchsiz- lik-qaysar- salbiy	Real mulohazolov- chi	Shubha bilan qarovchi, konform- likka moyil emas	Xafa bo‘luvchi, ishonchsiz, tanqid qilishga moyil	Atrofdagila rdan norozi, shubhalanuv- chan
V	Yon berishlik-	Muloyimlik, tortinchoqlik	Begona- larning	Aybni o‘z zimmasiga	Butunlay ko‘ngilchan

	passiv bo'ysunuvch anlik		majbu- riyatla rini o'z zimmasi-ga oluvchan	oluvchan, o'zini o'zi kamsituv-chan	
VI	Ishonuv- chanlik- itoatkor- lik	Atrofdagi- larni ishonchiga kirishga ehtiyoji bor	Yordam ga muxtoj	Yuqori konformlikka moyil	Atrofdagila rning fikrlariga bog'lanib qolgan
VII	Ko'ngilchan- lik-hat- dan tash- qari yon beruvchi	Guruh bilan hamkorlikka intiluvchan	Xayrixoh	murosakor	Xayrixohlig ini ochiq izhor etuvchan
VIII	Rahmdillik fido- korlik	Atrofdagi- larni tushunuvcha nva ularga yordam ko'rsatishga shay	Muloyim ko'ngilli, o'ta mas'uliyatli	Yuqori ijtimoiy ustanovka- larga ega	Fidoyi

DOMINANTLIK_q(I-V)Q_{0,7x}(VIIIQII-IV-VI
DO'STONALIK_q(VII-III)Q_{0,7x}(VIII-II-IVQVI

2.5.

PROYEKTIV TESTLAR

2.5.1. «Geometrik figuralar bo'yicha hosil qilingan odam tasviri» testi

Testdan foydalanishning maqsadi: individual psixologik farqlarni yoritish.

Ko'rsatma: siz uch xil geometrik figuralar, uchburchak, aylana va kvadrat yordamida 10 ta elementdan iborat odamni ichizishingizni so'raymiz. Siz geometrik figuralardan foydalanayotganda ularni kengaytirishingiz va qisqartirishingiz ham mumkin. Ammo odamni tasvirlayotgan vaqtda bu uchala figuraning ishtirok etishi shart. Agar ortiqcha figura chizilib qolgan bo'lsa u uchirib tashlanadi. Odam tasviridagi elementlar o'ntadan ortib hamketmasin, kam ham bo'lib qolmasin. Suratni ushbu ko'rsatma bo'yicha tayyorlang.

Materiallar: sinaluvchilarga 10x10 o'lchamdagi uchta qog'oz berilib, har bir qog'oz nomerlangan bo'lishi lozim. №1 varaqda birinchi sinaluvchi rasm chiziladi, №2 varaqda ikkinchi va №3 varaqda uchinchi surat mos ravishda chizilishi lozim.

Ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: odam tasvirida ishtirok etgan uchburchak, aylana va kvadratlar (har biri suratda alohida). Har bir figura o'ziga xos baholanadir: uchburchak yuzlik, aylana o'nlik va kvadrat birlik miqdorni ifodalaydi. Bu uchlik sonlar «suratformulasini» anglatadi.

Geometrik figura asosida konstruktiv suratni bajarishni yoritish uchun individual psixologik farqlar tizimi

901	802	703	604	505	406	307	208	109	
910	811	712	613	514	415	316	217	118	019
	820	721	622	523	424	325	226	127	028
		730	631	532	433	334	235	136	037
			640	541	442	343	244	145	046
				550	451	352	253	154	055
					460	361	262	163	064
						370	271	172	073
							280	181	082
								190	091

Tiplar:

I tip-«rahbar». Odatda bu tipdagi kishilar rahbarlik va tashkilotchilik layoqatiga ega bo'lgan odamlar hisoblanishadi. Xulq-atvorlari ijtimoiy

ahamiyatga molik normalar yo'naltirilgan, yuqori darajadagi nutiy qobiliyatga ega, yaxshi hikoyachi. Ijtimoiy muhitga tez moslashuvchyaang, boshqalar ustidan yetakchilik qilshda ma'lum chegara saqlaydi. Odatda ko'k rangni tanlaydi (m.Lyusher) va «Daraxt» testida «archa» rasmini chizadi.

Rasmlar formulasi: 901, 910, 802, 811, 820, 703, 712, 721, 730, 604, 613, 622, 631, 640.

Boshqalar ustidan keskin hukmronlik qilish 901, 910, 802, 811, 820; situativ- 703, 712, 721, 730: odamlarga so'z orqali ta'sir ko'rsatishga – vebal rahbar yoki «o'qituvchilik» tipi-604, 613, 622, 631, 640.

Bu tiplarni namoyon bo'lishi psixik taraqqiyot daorajasiga bog'liqligini e'tiborga olish lozim. Individual farqlar yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, yetarlicha anglashga egalikdan dalolat beradi. Quyi darajada esa professionalizm sezilmaydi, vaziyatlarga moslashishi qiyin. Bu barcha xarakterlar uchun xosdir.

II tip-«mas'uliyatli ijrochi»-«rahbarlik»ning bir qator sifatlarini o'zlashtirgan, biroq mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishda anchahayajonlanadi. Bu tipdagi odamlar «ishni ko'zini biladigan», poofessionalizm, yuqori tuyg'ularga ega, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan mas'uliyatli va talabchan, haqiqatni qadrlaydi. Ular ko'pincha somatik kasalliklar bilan og'rinib turishadilar. Asabiy jihatdan ancha zo'riqqan bo'lishadi.

Rasmlar formulasi: 505, 514, 523, 532,550.

III tip- «bezovtali-sust» - oddiy qo'l malakalaridan tortib yuqori adabiyiqtidorga – har xil qobiliyat va iqtidorga ega. Odatda ular bir tipdagi kasblarga xos bo'lsa-da, ammo kutilmagan hollarda uni o'zgartirishga, ikkinchi bir qiziqadigan kasbga ham ega bo'ladilar. Ular odatda boshqa odamlar bilan nizoga borishga moyillar.

Yuqori va o'zidan shubhalanishga moyil.

Suratlar formulasi: 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460, bundan tashqari 415 – «shoirona tipcha»-shoirona iqtidorga ega ; 424 esa- gaplar bo'yicha anglab oladigan tip bo'lib, butipdagilar ishda xotirjamligi bilan ajarlib turadi.

IV tip –«olim». Bu tipdagi kishilar reallikni osongina mavhumlashtirishga, «konseptual aqlga», «hamma narsani» tahlil qilishga mos nazariyasiga ega, qobiliyatligi bilan ajarlib turadi, turadi. Odatda ular ruhan xotirjam, o'z xatti – harakatlarini obdan o'ylab amalga oshirishadi.

Suratlar formulasi: 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370. 316 tipcha nazariya yaratishga moyil tip, u global, murakkab va katta ishlarni amalga oshiradi: 325-tipchasi esa hayotni, sog'liqni, biologiyaga oid fanlarni, tibbiyotni bilishga o'ta qiziquvchan. Bu tip vakillari san'atning sintetik ko'rinishdagi turlari: kino, sirk, teatr-tomosha rejessyori, multiplikatsiya bilan shug'ullanadigan odamlar orasida uchraydi .

V tip –«intuitiv». Bu tipdagi odamlarasab tizimi ancha hissiy kuchga ega, ularjda yuqori toliqish kuzatiladi. Bir faoliyatdan ikkinchi bir faoliyatga oson o'tib ketishadi, yangi imkoniyatlarga ega. Yangilikni tuyushda yuqori sezgirlik mavjud. Altruist, mohir qo'lli va obrazli xayolga ega , texnik ijodkorlikka moyil. Odatda ijtimoiy normalarni o'zini moslashtira oladi. Ichki o'zini o'zi nazorat qilishga ega, uning erkinligiga to'siq bo'luvchi holatlarni qabul ila olmaydi, o'zini o'zi nazorat qilishni yoqtiradi.

Suratlar formulasi: 208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 180. 235 tipcha – psixologiyaga va psixolog mutaxassislarda uchraydi; 244- badiiy ijodga qobiliyatli kishilar, 217- kashfiyotchilik faoliyatiga moyil kishilar; 226- yangilikka yuqori ehtiyodj sezadigan, o'ziga maqsadga erishishi uchun yuqori talab qo'yadigan kishilar.

VI tip-« kashfiyotchi, konstruktor, rassom». Texnika bilan mashg'ul kishilar orasida ko'proq uchraydi. Bu tipdagi odamlarda boy xayoliy obrazlar, fazoviy ko'ruvchanlik, tez-tez texnik ,badiiy va intellektual ijodkorlik xos. Ular introvert, intuitiv tip singari shaxsiy ahloqiy normalari bilan

yashashadi., o‘zlarini nazorat qilishdan tashqari boshqa chet ta’sirlarni qabul qilishmaydi.

Suratlar formulasi: 109, 118, 127, 136, 145, 019, 028, 037, 046.

019 tipcha- auditoriyani o‘ziga jalb qiluvchi kishilar hisoblanishadi; 118-konstruktiv imkoniyatga va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega shaxs hisoblanadi.

VII tip –«emotiv». Boshqa kishilarga hamdard, «og‘ir» kino filmlarni juda qiyinchilik bilan ko‘rishadi. Uzoq vaqt emosional ta’sirlar ostida bo‘lishadi. Ko‘p quvvatni hayajonlanganlari bois yo‘qotishadi. Qobiliyatlarini namoyon qilishga ancha qiynalishadi.

Suratlar formulasi: 550, 451, 352, 361. 370, 253, 262. 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.

VII tip –emotiv tipga teskari tip hisoblanadi. Ular o‘zga kishilarning kechinmalarini his qilishmaydi, atrofdagilarga nisbatan e’tiborsiz Yaxshi mutaxassis o‘zi bajaradi, u boshqalarni bajarish lozim deb majburlashga moyil. Unda ba’zan «jizzakilik» , situativ ravishda gavdalanadi.

Suratlar formulasi: 901, 802, 703, 505, 406, 307, 208, 109.

2.5.2. Mavjud bo‘lmagan hayvon testi

Agar rasm varaqning o‘ng tomonining yuqori qismidan o‘rin olgan bo‘lsa, bu holat ayni dam bilan bog‘liq yoki kelajakka aloqador hisoblanadi, ijobiy emosiyaning ifodalaydi.

Rasm chap tarafda varaqning pastgi qismidan o‘rin olgan bo‘lsa, u holda o‘tmish bilan bog‘liq, faolsizlik va salbiy emosiyaning ifodalaydi. Rasmdagi me’yordagi zolat rasmning varaqning o‘rta qismida joylashganligidan bilinadi. Agar rasm varaqning yuqori qismiga joydoshgan bo‘lsa, bu yuqori o‘zini baholash va o‘zining jamiyatdagi o‘rnidan noroziligidan dalolat beradi. Atrofdagilar tomonidan tan olimayotganligi, ko‘proq noroziliklar bildirishga moyilini bildiradi.

Rasm varaqning pastgi qismiga yaqin bo‘lsa, o‘ziga ishonchmaslik, o‘z-o‘zini past baholash, qat’iyatsizlik, ta’sirlarga tushib qolganlikni anglatadi.

Agar rasmdagi hayvonning yuoshi o'ng tomonga qaratilgan bo'lsa, u holda insonning amalga oshirilayotgan ishlari yoki nimani amalga oshirmoqchi bo'lsa rejali bajarishidan dalolat beradi.

Agar rasmdagi hayvon boshi chapga qaratilgan bo'lsa, u holda bunday kishilar amalga oshirilayotgan ishlarida jur'at yetishmaydi, kam mulohazalovchi hisoblanadi.

“Yuz” ko'rinishi, ya'ni bosh holati chizuvchiga qarab chizilgan bo'lsa, u holda bu egosentrizmdan dalolat.

Bosh detallarining ma'nosi:

Quloq: axborotlarga qiziquvchanlik, atrofdagilarning u to'g'risidagi fikrlari qiziqtiradi, atrofdagilarning unga beradigan baholariga his-tuyg'uli, payti bo'lsa-da o'z xatti-harakatlarini o'zgartirmaydi.

Ochilib qolgan og'iz til bilan ifodalansa, vaysaqi, labning aniq chizilganligi-chezgirlik. Til va lab aniq chizilmagan ochiq og'iz-ishonchsizlik, qo'rquv borligi, Og'iz tish bilan ifodalansa-og'zaki tajovuzkorlik alomati (haqarotlovchi, qo'pol, tahdid qiluvchi).

Ko'z. Ko'zning alohida ajratilib chizilganligi-bu chizgan insonda qo'rquv borligini bildiradi. Kipriklarni ifodalanishi-xulq-atvorida namoyikoronalik, kiyinishi va yurish-turishi bilan atrofdagilarga o'ziniko'rsatmoqchi bo'luvchi.

Hayvonning boshida qo'shimcha detallari bo'lganda:

Shox-tajovuzkorlik, agar agressiyani boshqa belgilari tirnoq, nina- agressiyaning xarakterini ifodalaydi, u tasodifiy yoki himoyalanish bo'lishi mumkin.

Patli- namoyishkoronalik, o'zini oqlash va o'zini bezashga moyillik. Yol, jo'n-sezgirlik, o'z jinsini qayd etuvchanlik.

Hayvonning oyog'i, panjalari: asoslilik, mulohazali, qaror qabul qilishda amaliy yondashuvchan. Oyoqning yo'qligi yoki nozik oyoq-atroflachi o'ylovchi, xulosa chiqarishda yengiltabiat, impulsiv xulosa chiqaradi. Bir xillik, oyoqlarning bir-birini takrorlashi (ko'poyoqlik)-mulohazalarga tobe,

standartlashib qolgan va siyqasi chiqqan. Oyoqlarning xilma xilligi, panjalar-mustaqillik, siyqasichiqmagan, originallik, ijodkorlikdan dalolat beradi.

Qismlarning figura darjasiga ko'tarilganlini:

Qanot, paypaslagich, qisqich-xohishning hayotning barcha sohalariga yo'nalganligidan dalolat beradi, qiziquvchanlik, jasurlik, shijoatlilik, o'ziga ishonch ifodalaydi.

Bezak beruvchi detallar- bantik, qo'ng'iroq soch-namoyishkoronalik, hohishni o'ziga qaratilganligi, ustamolik.

Dum-yuqoriga qaratilgan bo'lsa, inson xatti-harakatlarini, qarorlarinii ijobiy baholaydi, ***dum*** pastga qaratilgan bo'lsa-aytilgan, bajarilgan narsalar yuzasidan o'zidan norozilik,achinishni anglatadi. Dum o'ngga qaratilgan bo'lsa, inson munosabati o'z xatti-harakatlari yoki xulqiga qaratilgan munosabatni, chapga qaratilgan bo'lsa – fmkriga, qarorlarga munosabatni anglatadi.

Figura konturlari- qalqon, sovutmavjudligi-atrofdagilardan himoyalaniish, nina, o'tkimr burchakli sovut-tajovuzkorlik, Qora qilib chizilgan qiziqlar, chiziqlarni ikkilanganligi- shubhalanish, qo'rquv, bezovtalanish. Ushbu himoyalaniishlarning joylashuv o'rniga ko'ra: yuqoriga joylashtirilgan bo'lsa-ota-ona, o'qituvchi, boshliqlardan, pastda aks ettirilgan bo'lsa-muhokamadan, kichiklarda nufuzning yo'qligi, tobelikni anglatadi; yon tomonda chizilgan bo'lsa-himoyaga tayyorlik va har xil vaziyatlardahar xil tarzda o'z-o'zini himoyalash.

Rasmni bosibroq chizish-chiziqlarni orqa tomondan ham ko'rish (chizga qo'lda yuqori darajada titrash tonusi mavjud), keskin bezovtalanish (qanday detalga alohida urg'u berib chizilganiga qarab).

Hayvonning umumiy holati baho: tajovuzkor, tajovuz qilishga tayyorlangan va beozor-bu har shaxsning o'ziga munosabati, o'z Meniga munosabati, uning olamga munosabati, o'zini nimaga o'xshatishi (quyon, fil,

ya'ni chizilgan rasmga ko'ra). Ushbu suratlada chizilgan narsa, chizuvchining o'zi sanaladi.

Aylana shakl, hech narsa to'ldirilmagan holda tundlik, ichki olami berkligidan dalolat beradi.

Mexanik qismlarni ichiga joylashtirilganlik-hayvonning jonli qismi sifatida ishlatilganligi- tank oyog'ini qo'llanilganligi, simlar, antena –shizoidlik, shizofreniyaga moyillik bor.

Nomlanishi-agar nomlanish, mazmunli qism bilan rasional bog'langan bo'lsa, rasionallik, moslashishga qobiliyatlilikni; nomlanishga ilmiy tus berilgan bo'lsa- intellektda nomoyishkoronalik, erudisiya; har xil ma'noliovozli, tovushli tarzdagi – yengiltaklik, xavfga bo'lgan ogoo'lantirishlarni sezmaslik; taqdir taqazosiga ko'ra berilgan nomlar- atrofga nisbataniltifotli. Haddan ortiq uzun nomlash-himoyalanish, o'imoya tarzda fantaziyaga moyillik.

2.5.3. Beixtiyor chizilgan suratlar testi

Birinchi kvadrat. O'rtadagi nuqta Egoni anglatadi va tashqi voqealarga nisbatan emosional reaksiyani ifodalaydi. Sinaluvchi chizgan rasm uning muammolarini hal etishdagi holatini bildiradi. Masalan, nuqtadan bir nechta to'g'ri chiziqli chiqarilgan bo'lsa, bu muammolarni yechishga nisbatan egiluvchanlik va ishonchni bildiradi., muammoni yechishga nisbatan bir necha variantlarga egaligini anglatadi.

Ikkinchi kvadrat. Chap tomon tepasidagi to'liqlik chiziqli o'arakatni ifodalaydi. Rasmda nimani bog'lab chizishiga qarab, yo erkin harakatlanish, yoki nimaga bog'liqlikni ifodalaydi.

Uchinchi kvadrat. Uchta vertikal chiziqli zavq-shavqli- izzat-nafs, jizzakilik. Agar tekshiriluvchi bu simvolga alohida chizgilar berilgan bo'lsa, maqsadga erishishi aniq va aniq motivga ega. Agar simvollar qoralatib chizilgan bo'lsa, bunday sifatlar xoliligini anglatadi.

To‘rtinchi kvadrat. Tepadagi qora kvadrat to‘g‘rilash lozim bo‘lgan muammoni yoki chegarani ifodalaydi. Kvadratda chizilgan narsaga qarab, muammoni yechishga nisbatan faol yoki passivlikni bildiradi.

Beshinchi kvadrat. Ikkita dioganl tarzdgai kesishuvchi chiziq. Tekshiriluvchini sayyohatni davom ettirishga taklifni, ularni davom ettirilganligiga qarab, bu o‘zidan nimani taqdim etayotganligini bildiradi. Kesishuvchi chiziqlar qilich va bolg‘ani ifodalaydi va bu agressivlik yoki dushmanlikni bildiradi. Kesishmaydigan chiziqlar qat‘iyatsizlik, irodani va qat‘iyatlilikni yetishmasligini bildiradi.

Oltinchi kvadrat. Ikkita alohida vertikal va gorizontal o‘tkazilganchiziq, hozirgi yoki o‘tmishdagi emosiya bilan muhitning birligini ifodalaydi. Ular ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar va er-xotin orasidagimunosabatni ham ifodalaydi. Bir xilda chiziq muhitni me’yorda ekanligini, chiziqlarni aks holati esa tekshiriluvchi ongidagi beqarorlikni bildiradi.

Yettinchi kvadrat. Yarim aylana nuqtasidan o‘ng burchakka qaratib chiziladigan tasvir kishini xushmuomalalik, nazokatini, sezgirligini. Kvadratda tekshiriluvchi o‘zida bunday sifatlar bor yoki yo‘qligini namoyon etadi.

Sakkizinchi kvadrat. To‘nkarilgan egri chiziq boshpanani ifodalaydi. Bu tekshiriluvchi qanday boshpanada ekanligi, atrofdagilar muhiti, tabiatda, kitoblarda, xotirjamlikda yoki moddiy ta‘minlanganlikda ekanligini anglatadi.

2.6.

KASBIY FAOLIYAT DIAGNOSTIKASI

2.6.1. Xolland testi

Ushbu metodika o‘quvchilarning qaysi kasb sohasini afzal ko‘rishini aniqlashga imkon beradi. Kasbiy muhit sohalari olti turga ajratiladi: realistik yoki amaliy; intellektual; ijtimoiy; konvensional yoki standart, uddaburon; artistik.

O'quvchilar e'tiboriga 42 juft kasb havola etiladi. Bundan o'quvchilar har juftlikdan faqat bitta, ya'ni o'zi istagan yoki unchalik «yomon» bo'lmagan kasbni tanlashga majbur.

Ushbu metodika ayni bir vaqtda ham diagnostik, ham faollashtiruvchi hisoblanadi: unga ilova qilinadigan kasb-hunar lug'ati o'quvchilarning kasb- hunar haqidagi tasavvurini kengaytiradi, o'quvchilarga ayni bir kasb doirasida xilma-xil kasbiy muhit mavjudligini his qilish imkonini beradi(masalan, «huquqshunos» kasbi advokat, tergovchi, notarius, huquqshunos maslahatchi, jinoyat qidiruv inspektori, sudyani birlashtiradi).

Kasblar ro'yxati

1. Muhandis(1)_____Sosiolog (2)_____
- 2.Qandolatchi(1)_____Taqvador 3)_____
- Oshpaz(1)_____Statist (4)_____
- Suratkash(1)_____Savdo zali ma'muri (5)_____
5. Mexanik(1)_____Bezakchi 6)_____
6. Faylasuf(2)_____Shifokor (3)_____
7. Ekolog(2)_____Hisobchi 4)_____
8. Dasturchi(2)_____Advokat (5)_____
- Kinolog(2)_____Badiiy adabiyot tarjimoni (6)_____
- Sug'urta agenti (3)_____Arxivshunos (4)_____
- 11.Murabbiy(3)_____Telereportyor (6)_____
- 12.Tergovchi(3)_____San'atshunos (6)_____
